

NASHR KO'RSATKICHI 1404



URGANCH
INNOVATION
UNIVERSITETI



INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch_iu



@uriu.xz



(91) 436-20-22
(90) 436-20-22
(88) 909-22-20



@uriu



Xorazm viloyati Urganch
shahri "Mustaqillik" MFY
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2025 (5)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 5-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Afoqova – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 5 (26), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

M.ESHMURODOV . Komyobning “Tarixi xavonin” tarixiy asari lisoniy tadqiqot obyekti sifatida.	4
F.ABDUXOLIQOV. O‘rta asr miniatyurasida Umar Shayx Mirzo tavsiri. ...	4
N.MIRZAEV. Toshkentdan Onado‘liga hijrat qilgan shahzoda va uning tarixiga doir arxiv hujjatlar.	13
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Ismoil Gasprali jadidchilik harakati asoschisi va uning tarixda tutgan o‘rni	23
S.XOSHIMOV, Sh.NAJIMIDINOVA. Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSR oliy ta’lim tizimida amalga oshirgan qatag‘on siyosati va uning oqibatlari.	31
N.DADAJONOVA. O‘zbekistonda elektrlashtirish tarixidan.	37

FILOLOGIYA

A.ALLAMBERGENOV. Maqollar – xalq donoligi va tafakkuri mahsuli. ...	44
S.KURBANOVA. Shukrullo lirikasiga xos poetik obrazlar.	48
U.HAMDAM. Adabiyot jarchisi va jangchisi	53
I.YOQUBOV. So‘zga evrilgan hislar.	62
M. ULUG‘OVA. Ullibibi Otayevaning ijodida aks etgan hayoti va faoliyati.	75
Q.YO‘LDOSH, A.ALLAMBERGENOV. Adabiyot o‘tkinchi hayotni mangulikka muhrlaydigan vosita.	82

TARIX**KOMYOBNING “TARIXI XAVONIN” TARIXIY ASARI
LISONIY TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA**

**Madamin
ESHMURODOV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
rektori,
filologiya fanlari
doktori, dotsent**

UO‘K 574.511

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komyobning “Tarixi xavonin” tarixiy asari va uning Xorazm tarixini o‘rganishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В статье освещается исторический труд Камиоба «История погоды» и его значение для изучения истории Хорезма.

Annotation: This article highlights Kamiob's historical work "The History of the Weather" and its importance in studying the history of Khorezm.

Kalit so‘zlar: Komyob, Xorazm, tarix, Xiva xonligi, qo‘lyozma, siyosiy voqealar, adabiy til.

Ключевые слова: Камёб, Хорезм, история, Хивинское ханство, рукопись, политические события, литературный язык.

The keywords: Kamyob, Khorezm, history, Khiva Khanate, manuscript, political events, literary language.

Eski o‘zbek adabiy tilining so‘nggi davrlariga oid adabiy, tarixiy manbalarning lingvistik tadqiqi shu davrgacha amalga oshirilmadi. Bunga asosiy sabab sifatida ularning katta qismi hali hanuz to‘laligicha nashr etilmaganligi, topilmaganligi, xorijiy mamlakatlarning qo‘lyozmalar fondlarida o‘z tadqiqotchilarini, merosxo‘rlarini kutib yotganligi yoxud boshqalarni sanashimiz mumkin. Shu davrgacha Munis va Ogahiy asarlari ham to‘laligicha kitobxon qo‘liga yetib bormaganligiga barchamiz birdek guvohmiz. Ushbu sabablar tufayli biz mazkur manbalarning lingvistik, lingvokulturologik, tarixiy qimmatini hamon to‘la tasavvur qila olmayapmiz. Ogahiy, Munis, Bayoniy, Komyob yoki boshqa ijodkorlarning asarlarini eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili rivojidagi tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritib, mazkur ijodkorlarning asarlari so‘zligini jamlash, izohli, etimologik lug‘atlarini tuzish zarurati mavjudligi haqida to‘xtalsak, ko‘p hollarda bunga hojat yo‘qligini, Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘atlari o‘zi yetarli manba bo‘la olishini, mazkur davr tili Navoiy asarlari tili bilan umuman farq qilmasligini ta’kidlaydilar.

Eng avvalo, Navoiy davridan uch yarim to‘rt asr keyingi davr eski o‘zbek tili Navoiy davridagidan ancha katta farqlarga ega ekanligi birgina Ogahiy asarlari leksikasidan ham sezilib turadi. Bu davrda, eng avvalo, arab tili ta’sirining sezilarli darajada kamayganligini, fors tarixnavisligi hamda fors tili ta’sirining anchayin ortganligini, Ogahiy boshlab bergan fors tilidan o‘zbek tiliga tarixiy-badiiy asarlarni tarjima qilishning jadal sur’atlarda olib borilganligi natijasi o‘laroq, adabiy tilda, adabiy manbalarda fors tili elementlarining keskin ortganligini kuzatamiz. Bular Munis, Ogahiy, Komil kabi saroy ijodkorlari ijodida ayniqsa yanada yaqqol seziladi. Mazkur e’tiborli jihatni hisobga olgan holda, davr adabiy, tarixiy manbalarini lingvistik jihatdan mukammal tahlil va tadqiq qilish zarurati mavjud. Bu holatni Komyob, Bayoniy, Eshmurod Ohund kabi xalq tiliga yaqin holda o‘z asarlarini yozishga intilgan ijodkorlarda ham kuzatamiz. Shu bois Komyobning asarlari ham tadqiqotimiz uchun muhim lingvistik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Chunki, ushbu tadqiqotgacha Komyobning asarlari lingvistik manba sifatida tahlil qilinib, muarrixning individual uslubi haqida batafsil tadqiqotlar amalga oshirilmadi: *Alg‘araz, maqsadi asliyi so‘zga emdi qalami mushkinraqamning yakronin safha maydonida garm javlonlig‘in mundoq sabukxez qilinurkim, podshohi sohibqironi mag‘furiy Abulfath Eltuzar Muhammad Bahodirxonni marhumiyning amri oliylari bila nasr gulistonining guli va nazm bo‘stonining bulbuli va donish bog‘ining bog‘boni va fazl chamani gulining to‘tiyi xushilhoni Shermuhammad mirob al-mulaqqab Munis ul xoni mag‘firatnishonning ismi humoyunig‘a bir shajarayi turk taxtin bitib, otin “Firdavs ul-iqbol”g‘a mavsum qilibdur...*¹

Parchadan ko‘rinib turibdiki, muarrixning uslubiga forsiy tilning ta’siri sezilarli darajada bo‘lgan. Keltirilgan misoldagi forsiy izofalarni ko‘zdan kechiraylik: *maqsadi asliyi so‘z, qalami mushkinraqam, podshohi sohibqironi mag‘furiy, Muhammad Bahodirxonni marhumiy, amri oliy, to‘tiyi xumilhoni, xoni mag‘firatnishon, ismi humoyun, shajarayi turk*. Izofalarning barchasi matnning musajja’ usulida bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ya’ni ularning barchasi o‘zaro qofiyadoshlikni yuzaga keltirmoqda. Parchada o‘zlashmalarning miqdori ashar o‘zak nuqtayi nazaridan olinganda katta qismni tashkil qiladi. Aniqrog‘i, *emdi, mundoq, Eltuzar, qilinur, bila, ul, bir, turk, bitib, otin, qilibdur* so‘zlarigina turkiy qatlam birliklaridir. Statistik nuqtayi nazaraidan 65 so‘zdan (mustaqil va yordamchi so‘zlar bilan birgalikda) iborat keltirilgan parchada 11 so‘z turkiy

¹ Комёб. Таворих ул-хавонин. // Қўлёзма. Ўз ФА Абу Райхон Беруний номидаги ШИ. – № 7717. 16^a вар.

qatlam birligi ekanligi o'sha davr tarixiy asarlarining leksikasida o'zlashmalarning ahamiyati qay darajada yuqori bo'lganligini isbotlaydi.



Komyob va uning tarixiy asari haqida, uning nasl-nasabi haqida bizlarga nimalar ma'lum. Sayid Homid to'ra ibn Sayid Muxammadxon to'ra Komyobdan bizga bitta she'riy devon, Xorazm tarixiga oid "Tavorix al-xavonin", "Muntaxab ul-voqeot" kabi tarixiy asarlar va XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazmda yuz bergan tabiat o'zgarishlari to'g'risida ma'lumot beruvchi esdaliklari yetib kelgan. Komyob Muhammad Rahimxon Feruz homiyligida o'z davrining yetuk olimlaridan ta'lim oladi¹. Arab va fors tillarini puxta egallaydi². Uning bilim doirasi va dunyoqarashining kengayishida Feruz

tashkil etgan davlat siyosatini yurgizish, uning barqarorligi va kelajagini ta'minlash, taraqqiy ettirish, xalk farovonligini oshirish, mamlakatning maorif va shunga o'xshash bir qator sohalariga e'tiborni qaratish yuzasidan davlat va hukumat arboblari o'rtasida kechadigan suhbat na mubohasalar, shoir va musiqa bilimdonlari ishtirokida bo'lib o'tadigan adabiy kechalar, she'rxonlik majlislari hamda musiqa bazmlarida muntazam ishtirok etib borishining ahamiyati beqiyos bo'lgan. Komyobdan bizgacha to'rtta asar yetib kelgan. Bular ichida uning "Tavorix al-xavonin" asari, eng avvalo, Munis, Ogaxiy, Bayoniylar tomonidan yozilgan tarixiy asarlarning davomi sifatida, ikkinchidan, salaflari qayd etmagan ayrim tarixiy ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi va ularning asarlaridagi kemptik o'rinlarni to'ldira olishi bilan e'tiborga molik.

"Tavorix al-xavonin" (№7717) muqaddima, besh bob (I bob: Odam damidin hazrati Nuh avlodig'acha. 19a-25a; II bob: Yofasdin Qo'ng'irot urug'ining voqeoti jumlasigacha. 25a-33a; III bob: Qurlos avlodidan podshoxlik martabasiga yetganlarning tafsilan zikri. 33a-35a; IV bob: Qo'ng'irot podshohlarining zikri. 35a-84a; V bob: Muhammadamin inoqning avlodlaridan Xorazm mamlakatida podshohlik qilganlarining zikri. 84a-204b) va muallifning

¹ "...Va maktabda o'qub xat va savodim o'n uch yoshimda chiqdi. Va har turluk kitob va har nechuk xat bo'lsa xam o'qub va yozdim va ilm ishidin, filjumla, voqif bo'lub, ogohlik topdim. Ondin so'ngra madrasa va masjid bino etib mudarrisni darsgo'y ulamodin etib, "Masoyil" va "Mushkulot" ilmiga shuru' etdim va qorixona bino qilib, yaxshi hofiz ul-qur'onxon qoriga topshurub, ondin ham Qur'on o'tkarib, Qur'oni sharif tilovatiga mashg'ul bo'ldim. Va eshoni murshidonlarni chaqirib, masjidda suhbatlari jahr etib, zikru sanolaridin masarrat toptim". O'sha joyda. 197^a, ^b var.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

o'z hayoti hamda ijtimoiy muhit to'grisida ma'lumot beruvchi bir maqoladan iborat. Asar 1885-1894-yillarda yozilgan.



Hozircha ilimga “Tavorix al-xavonin»ning uchta nusxasi ma'lum. Ular 3730/I, 7717 va 853/III raqamlari ostida O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Asar qo'lyozmasining 3730/I raqamli nusxasini muallif dastxati deyish mumkin. Uning deyarli har bir sahifasi hoshiyasiga keyinchalik mayda xat bilan ko'plab to'ldirish va qo'shimchalar yozilib, ma'lumotlar mukammallashtirilgan. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, ushbu qo'lyozma Komyobning to'rtala asarini ham o'z ichiga olgan bo'lib, barchasi bir xil yozuvda ko'chirilgan. Shuningdek, boshqa asarlariga ham keyinchalik ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, ular ham bir xil yozuvda bajarilgan¹.

7717 raqamli nusxa esa 1897-yili domla Ro'zimuhammad tomonidan Xorazmda ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozma asar Komyob dastxati bilan ko'chirilgan birinchi nusxa hoshiyasidagi qo'shimchalarni ham o'z ichiga olgan to'la nusxadir. Uning xat uslubi, imlosi va birinchi nusxadagi kiritmalarning o'z o'rniga to'g'ri qo'yilganligidan kotibning anchagina savodli ekanligi bilinadi. Qo'lyozma Komyob yashagan davr va muhitda ko'chirilganligi bois uning nazaridan o'tgan bo'lishi ham mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, uning matnida ham kotib tomonidan amalga oshirilgan ayrim qisqartirish yoki biror so'zning muqobilini ishlatish kabi tafovutlarga ham duch kelamiz.

Qo'lyozma 220 varaqdan iborat bo'lib, hafrang qog'ozida, nastaliqda qora siyoh bilan ko'chirilgan. Ayrim sarlavha va ajratib ko'rsatilishi lozim deb topilgan o'rinlar qizilda yozilgan.

Asarning 853/III raqamli ko'lyozmasi to'la bo'lmagan nusxa bo'lib, 198 varaqni tashkil qiladi. Nastaliqda qora siyoh bilan ko'chirilgan. Kotibi va ko'chirilgan yili noma'lum.

Sayid Homid to'raning qayd qilishicha, ushbu asarni yozishga kirishishdan avval Xiva xonlari tarixiga oid asar yozish niyati borligini Muhammad Rahimxonga bildiradi. Xon bu fikrini quvvatlagan va o'z davrigacha bo'lgan tarixiy voqealarni Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiyilar yozganligi, u mazkur mualliflarning asarlariga kirmay qolgan voqealar bayonini

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

qalamga olishi lozimligini aytadi. Komyob asarda zikr qilishicha, buyurilgan tarzda asar yozish va kerakli o‘rinlardan foydalanish uchun Ogahiyning kitoblarini har kancha qidirsam ham topa olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zi to‘plagan materiallar asosida kitobni yozishga kirishgan¹.

Muarrir asarni yozishda Shahobiddin Nasaviyning “Siyрати Sulton Jaloliddin Manguberdi”, “Temur tuzuklari”, Sharafiddin Ali Yazdiyning² “Zafarnoma”, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” singari insoniyat, turkiy xalqlar, qo‘ng‘irot xonlari tarixiga oid qimmatli yozma manbalar bilan birgalikda boy folklor materiallaridan ham foydalanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bulardan tashqari, biror joy yoki voqealar bayonidagi mukammallikni oshirish uchun ko‘plab surishturuvlar olib borganligi ham sezilib turadi.

Chunonchi, ushbu parchani lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilib ko‘rsak: *“o‘tgan abo va ajdodining ravish yo‘sinidin tajovuz qilmay, otin inoq qo‘yub qazoq, dog‘i to‘ralaridin kim Chingiziya avlodlaridur, olardin birin kelturub otin xon qo‘yar erdi. Oxiri umri tekru xonin qatlg‘a yetkurub, amirlik otin xonliqg‘a intiqol yetkurdi”*³.

Parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Komyobning tili nisbatan sodda, voqealar bayonida arabiy va forsiy so‘zlardan foydalanish darajasi Munis va Ogahiy singari sermahsul emas. Bu holat muarrir tilini xalq tiliga yaqinlik darajasini orttirgan. To‘g‘ri, muqaddima, ta‘rif va vasf o‘rinlarida o‘zlashmalar nisbatan ko‘p qo‘llanadi. Ammo qolgan o‘rinlarda turkiy so‘zlarning o‘rni salmoqlidir. Shu sababli matnni oson o‘qiymiz va tushunarli so‘zlar soni Munis hamda Ogahiy asarlaridagiga nisbatan ancha ko‘p miqdorni tashkil qiladi. Shuningdek, Komyob asari leksikasida nafaqat arabiy, forsiy o‘zlashmalar miqdori oz, balki, musajja‘ usulida qahramon ta‘rifi, jimjimador ko‘tarinki pafosdagi o‘rinlar ham nisbatan kam. Bu o‘z navbatida asar tilini yanada soddalashtirgan.

Asardan keltirilgan quyidagi parchalarni ham lingvistik tahlil qilib ko‘rsak. *Akom meni maktabga topshirdilar. O‘n to‘rt yil o‘tgach, muallim huzurida ilm o‘qib, muallim keltirib bergan kitoblarni o‘rganib, holimizdan ogoh bo‘lib turgach... umrimiz muddati yigirmagacha to‘lguncha fozilu shoirlar, oqilu olimlar davrasi, majlislarida donish olib, kitobat ijodi sirlarini o‘rgandik...*

¹ Сайид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. Нашрга тайёрловчилар: Н.Норкулов, Жал. Жўраев, Т.Тоғаев, Жам. Жўраев. Сўзбоши муаллифлари: Т. Тоғаев, Жам. Жўраев. -Тошкент.: Академия. 2002. – Б. 7 ва кейингилари.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

³ Комёб. Таворих ул-хавонин. // Кўлёзма. Ўз ФА Абурайхон Беруний номидаги ШИ. – № 7717. 85^a вар.

Gohida zohidlar holidan xonaqohga borib ogoh bo'lardik... ¹Qarchig'ay va shunqorlar bilan ovga chiqardik... Dehqonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lardik..., shul tariqa umrim muddatidin o'ttiz bir yil o'tdi. Fard:

Umri mo si sol raft ne xubu zisht,

Kaj falak farzine omad nogoh "kisht".

(Yaxshi yamon o'ttiz yil o'tti umrimizdan,

Kajfalakning farzini to'satdan kelib "kisht" – ket dedi)" – deb eslaydi Komyobning o'zi.

Parchadan shunday xulosa chiqadiki, muarrix ikki tilda – o'zbek va fors tilida ijod qilgan. O'z tarixiy asarlarini she'riy parchalar bilan bezagan. Komyobning she'riy ijodi ham mavjudligini, sohibidevon ijodkorligini yuqorida qayd qildik.

Asar Munis va Ogahiyilar an'anasi tarzida har bir voqea bayoni muallif tomonidan yozilgan ko'plab nazmiy xulosalar bilan to'ldirib borilgan. Nazmiy xulosalarning aksari muallif qalamiga mansub bo'lsa, ba'zi o'rinlarda boshqa mualliflarning ijod namunalari ham keltirib o'tilgan. Asarning mazkur jihatlari davr adabiy jarayonini tadqiq etish, adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatlidir.

"Tavorix al-xavonin"da an'anaviy tarzda insoniyatning yaratilishidan boshlab izchil tarzda turkiy xalqlar, turkiy xoqonlar, qo'ng'iroq urug'i, ulardan chiqqan hukmdorlar to'g'risida gapirib o'tilib, nihoyat, Xorazmda hokimiyatni qo'lga olgan qo'ng'iroq inoqlari tarixini yozishga kirishilgan².

"Tavorix ul-xavonin"ning beshinchi bobida muallifning o'z hayotiga oid eng qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, unda Qo'ng'iroq vakillarining qanday qilib hokimiyat tepasiga kelgani va Buxoro bilan chegaradosh yerlar, shuningdek, Orolbo'yi xalqlari va yovmutlar markazlashgan hokimiyatdan ajralib chiqish va alohida davlat tuzish uchun tinimsiz urushlar olib borganliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Xuddi shu bobda rus qo'shinlarining Xiva xonligini bosqichma-bosqich bosib olganliklari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Ushbu ma'lumot, shuningdek, muallif ushbu voqealarning bevosita guvohi bo'lganligi sababli ham biz uchun alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, "Tavorix ul-xavonin"da Xiva va Rossiya, Buxoro, Afg'oniston, Eron o'rtasidagi diplomatik, harbiy va iqtisodiy munosabatlarning susayishi va yuksalishi sabablarini ochib beruvchi ma'lumotlar keltirilgan. Asarda eshon va shayxlarning davlat

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

² Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

boshqaruviga ta'siri, mavjud so'fiylik ta'limotlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan, ularning mohiyati, axloqiy xulq-atvor qoidalari ochib berilgan.

Komyobning bizgacha yetib kelgan ikkinchi tarixiy asari "Muntaxab ul-voqeot"dir. Hozirda ushbu asarning bir nusxasi saqlanib qolgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 3730/II raqami bilan saqlanmoqda.

Bu yerda ba'zi ma'lumotlardan "Tavorix ul-xavonin" kitobidan ham keltirilgan, qolaversa, muarrix asarni yaratishda Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan boshqa tarixiy manbalardan ham foydalanilgan. Muallifning yozishicha, "Tavorix ul-xavonin" kitobiga o'zi bilgan, lekin kiritilmagan ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Ushbu ma'lumotlarni saqlab qolish maqsadida ularni saralab, tegishli tartibda joylashtirgan, shu bois kitob "Muntaxab ul-voqeot" deb nom olgan. U uchta bobdan iborat. Birinchi bob Odam Atodan Nuh payg'ambargacha bo'lgan davrda sodir bo'lgan voqealarga bag'ishlangan. Ikkinchi bobda Efasdan Qo'ng'irot oilasigacha bo'lgan voqealar yoritilgan. Bu yerda muallif turk va uning oilasining tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot beradi. Xususan, qiyot va qipchoq urug'larining vujudga kelishi, bu nomlarning etimologiyasi haqida gapirar ekan, Komyob bu ma'lumotlarni tasdiqlovchi manbalar haqida ham so'z yuritadi. Bu bobda ham xuddi "Tavorix ul-xavonin"dagi kabi qo'ng'irot oilasining paydo bo'lish tarixiga asosiy e'tibor qaratilib, "Qo'ng'irot" so'zining ma'nosi izohlanadi.

Uchinchi bob ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Eltuzarxon tomonidan Xorazm xonligini yuzaga keltirish va uning hukmronlik qilgan davri haqida so'z boradi. Ikkinchi bo'limda turli tarixiy davrlarda yashab o'tgan mashhur insonlar hayoti, shuningdek, muallifning turli mavzudagi she'rlari tasvirlangan. Sayyid Homid har bir tarixiy voqeani tasvirlab bo'lgach, o'z xulosasini beradi. Masalan, kitobda O'g'uzxon vafotidan so'ng Qo'ng'irot urug'i qanday qayta tiklangani, Elxon o'g'li Kayon va Xolin o'g'li Nikuz taqdiri qanday kechgani haqida hikoya qilinadi. Dushman bosqinidan omon qolgan ikkala oila ham juda ko'p azob chekdi. To'rt yuz yil davomida qo'ng'irotliklar shakllanib, omon qolgan ikki oila a'zolari o'z ajdodlari zaminini qayta egallab, pirovardida adolatni tikladilar. Nasrda tasvirlangan bu voqealar she'riy xulosa bilan yakunlanadi. Bu satrlarda Vatan ozodligi uchun kurashuvchilarning harakatlari yuksak baholanadi: Ozodlik yana tantana qildi, davlat gullab-yashnadi, xalq birlashdi, adolat tantana qildi. Muallif "Muntaxab ul-voqeot"ning uchinchi bobida Chingizxonning Xorazmga qilgan hujumi, Muhammad Xorazmshohning mas'uliyatsizligi natijasida olib kelgan vayronagarchiliklari, qudratli davlat dushman qo'lga o'tgani haqida og'riq bilan yozadi. Xon umrining so'nggi yillarini sarson-sargardonlikda

o'tkazadi, hatto Xorazmshohning munosib dafn etilmaganini ham muarrix kuyinib yozadi.

Ayni damda, Komyob “Muntaxab ul-voqeot”da keltirgan afsonaga ko'ra, Chingizxon o'limidan oldin o'z o'g'illarini chaqirib, uchta o'qni olib kelishni buyurgan va u osongina sindirib tashlagan. Keyin u uchta o'qni birga olib, ularni sindirish qanchalik qiyinligini ko'rsatdi. Bu bilan Chingizxon o'z o'g'illariga mana shu o'qlardek do'stona va birdam bo'lishni vasiyat qiladi. O'z navbatida, Komyob o'z o'quvchilarini ushbu afsonadan tegishli xulosa chiqarishga chaqiradi. Sayyid Homid to'ra o'sha davrda sodir bo'lgan ko'plab tarixiy voqealarni bayon qilar ekan, birdamlik, birodarlik zarurligiga ishora qiladi. “Muntaxab ul-voqeot” asarida O'ngxonning dushmanga qarshi kurashi va o'zaro yordam naqadar muhimligi, Turkomilxondan o'z vaqtida yordam ko'rsatishning qadri haqida hikoya qilinadi, xususan, muallif madad zarurligini quyidagi satrlarda yana bir bor ta'kidlaydi: “Bir tilanchining tayanchi bo'lsa, u hukmdor bo'la oladi, podshoh, agar tayanchi bo'lmasa, tilanchiga aylanishi mumkin»¹.

Yana bir Xorazm xoni Berdibekning taqdiri haqida gapirar ekan, muarrix quyidagilarni yozadi: Jonibek vafotidan keyin uning o'g'li Berdibek bir ovozdan taxtga ko'tarildi. U zolim va yovuz odam edi, u o'zining yaqin sheriklari va qarindoshlarini nohaq qatl qildi. Ammo u hokimiyat abadiy emasligini tushunmadi. 1762-yilda vafot etdi. Bu Botuxonning oxirgi vorisi Berdibek ekanligidan dalolat berardi. Bundan foydalanib, taxtga Jo'jixon avlodlari o'tirdilar. Bunga Komyob o'z munosabatini quyidagicha ifodalaydi: Berdibek zolim bo'ldi, Qarindoshlarini yo'q qildi, Muqarrar o'lim keldi, na boylik, na meros qoldira olmadi. Shu bilan birga, deydi Sayyid Homid-to'ra, Jo'sh Sulton va Elbarsxon taxt, boylik uchun kurashgan, natijada ularning otalari va akalari, Isfandiyorxonning bir yarim yoshli o'g'li halok bo'lgan. Muallif shunga o'xshash bir qancha tarixiy voqealarni keltirib, padarkushlarning hokimiyati olti oy ham davom etmasligini ta'kidlaydi.

Komyob turkiy hukmdorlar, ularning faoliyati, davlat tarixi haqida ma'lumot berib, ularning har birining o'ziga xosligini ko'rsatadi, adolat bor joyda davlat obod bo'lishini aytadi. Komyob ham davlat boshqaruvida hukmdorning hassosligi, uning barcha sohalarda ogohligi birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. U bu qarashlarni “Muntaxab ul-voqeot”da rivojlantirib, Qo'ng'irotni qisqa muddatda bosib olib, uni Xivadan ajratib olgan To'ramurod so'fi haqida so'z yuritadi. Asarda so'fining shaharni qo'lga kiritgach, hushyorligini yo'qotib,

¹ Комёб. Мунтахаб ул-воқеот. 3730/II/. 132а-саҳифа.

aysh-ishratga berilib, natijada magʻlubiyatga uchrangani koʻrsatilgan. Bu haqda shunday deyiladi: “Toʻramurod soʻfi yengiltak ayollar bilan ziyofat qilib, mast holda bemaʼnilik bilan yashar edi”. Bundan Komyob shunday xulosa qiladi: Mastlik va bekorchilik hamda maishatda boʻlgan amir davlatini yoʻqotadi. Boylik va hukmdorlik uni tark etadi. Uning oxiri oʻlim va qochqinlikdir¹.

Sayyid Homid toʻra insonning fazilatlarini haqida gapirar ekan, bu bilan cheklanmaydi, uning salbiy tomonlarini ham ochib beradi. Va aksincha, obyektiv boʻlishga harakat qilib, u butunlay yomon odamlar yoʻqligiga ishonadi, siz hammadan ijobiy narsani izlashingiz kerak. Ismoil miroxur haqidagi “Muntaxab ul-vokeot” asarida shunday deydi: U sotqin va noinsof boʻlib, ayni paytda magʻrur va qoʻrqmas edi. Komyob hayajon bilan bir safar chogʻida Ismoil miroxurning sherigi uni yutib yuborishga tayyor boʻlgan botqoqqa tushib qolganini hayajon bilan esladi, lekin u doʻstini qutqarib qoldi. Uning aytishicha, har bir sayohatchining qiyin paytlarda oʻzini ayamadan yordamga keladigan ishonchli hamrohi boʻlishi kerak. U bu haqda shunday deydi: “Har bir odamning qoʻrqmas hamrohi boʻlishi kerak, shunda uzoq yoʻldan qoʻrquv boʻlmaydi”. Bundan xulosa qilish mumkinki, Sayyid Homid toʻra oʻzining ishonchli manbalarga asoslangan tarixiy maʼlumotlarga boy boʻlgan har ikki kitobida Abulgʻozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi xivalik tarixchilarning asarlarida boʻshliqlarni toʻldirgan. Xiva xonligi va Oʻrta Osiyo tarixida. Uning asarlari nasriy anʼanalar va oʻzbek tarixiy yozuvlarini oʻrganishda qimmatli manba ekanligini ham qoʻshimcha qilish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Sayid Xomid Toʻra Komyobning “Tavorix ul-xavonin” asari Xorazm turkiy tarixinavisligida oʻzining muhim ahamiyatiga ega asarlardan biridir. Asar, eng avvalo, oson, sodda tilda yozilgani, arabiy va forsiy oʻzlashmalardan foydalanish nisbatan ozligi, musajjaʼ usulidagi taʼrif-tavsiflar ozligi, turkiy soʻzlardan foydalanib fikr ifodalashga intilish yaqqol ustunlik qilishi bilan ajralib turadi. Asarda davlatchilikka oid terminologiya asosiy qismni tashkil etadi.

¹ Комёб. Мунтахаб ул-вокеот. 3730/II/.182а-саҳифа.

TARIX

O'RTA ASR MINIATYURASIDA UMAR SHAYX MIRZO TAVSIRI



**Firdavs
ABDUXOLIQOV,**

**O'zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o'rganish va
ommalashtirish
bo'yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san'atshunoslik
bo'yicha falsafa
doktori.**

UO'K 95.15

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriy hukmdorlardan Umarshayx Mirzo siymosining sharq miniatyuralarida tasvirlanishi tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье исследуется изображение Умаршайха Мирзы, одного из правителей Тимуридов, в восточных миниатюрах.

Annotation: This article examines the depiction of Umarshayx Mirza, one of the Timurid rulers, in oriental miniatures.

Kalit so'zlar: Samarqand, Movoraunahr, sharq miniatyurasi, tasviriy san'at, Amir Temur, musavvir, temuriylar, an'ana, sulola.

Ключевые слова: Самарканд, Мовараунахр, восточная миниатюра, изобразительное искусство, Амир Темур, художник, Темуриды, традиция, династия.

Key words: Samarkand, Movaraunahr, oriental miniature, fine arts, Amir Temur, painter, Timurids, tradition, dynasty.

Temuriy hukmdorlar orasida ikki nafar Umarshayx Mirzoning nomi tarix kitoblarida zikr etilgan. Ularning birinchisi Sohibqiron Amir Temurning ikkinchi o'g'li bo'lgan. U 1356-yilda tug'ilib, Amir Temurning ko'pgina harbiy yurishlarida ishtirok etgan, xususan To'xtamishxon bilan bo'lgan jangda faol qatnashgan. 1394-yilda vafot etgan.¹

Ikkinchi Umarshayx esa o'zining otdoshidan roppa-rosa yuz yil keyin tug'ilgan va taxminan u bilan bir xil umr ko'rgan.

Umarshayx Mirzo II (1456-1494) Boburiylar (mo'g'ullar) sulolasining asoschisi - Zahiriddin Muhammad Boburning otasi 1469-yildan Farg'ona amiri bo'lgan. Boburning yozishiga ko'ra, Umarshayx Mirzo Samarqand shahrida tug'ilgan va Movaraunnahr sultoni Abu Saidning to'rtinchi o'g'li bo'lgan. U o'g'lini yoshlik chog'idanoq Andijonga, so'ngra butun Farg'ona vodiysiga, keyinroq esa Toshkent va Sayramga ham hokim qilib tayinlagan. Umarshayx Mirzo o'ttiz to'qqiz yoshida Axsida vafot etgan.

Bobur Mirzo otasini pokiza e'tiqodli, besh vaqt namozni tark qilmaydigan taqvodor inson bo'lganini zikr etadi. Xoja Ahrorning sadoqatli muridlaridan

¹ Fayziyev T., Temuriylar shajarasi, T. "Fan", 1995. – B. 38.

bo'lgan. Nizomiy va Dehlaviy "Xamsa"larini, Firdavsiy "Shohnoma"sini muntazam mutolaa qilgan.

Uning adolati haqida so'z yuritarkan, Bobur bir voqeani misol keltiradi: bir yili Xitoydan kelayotgan ming kishilik karvon Andijonning sharqiy tarafidagi tog'da, qor ko'chkisi ostida qolib ketadi. Bu tabiiy ofatdan faqat ikki kishi tirik qoladi. Afsuski qolganlarini asrab qolishning iloji bo'lmaydi. Umarshayx Mirzo yordamchi kuchlarni jo'natib, qor ostida qolgan yuklarni chiqartiradi. Samarqand va Xurosonga odam yuborib, halok bo'lgan savdogarlarning vorislarini izlab toptiradi. Ikki yil deganda yuklarning barini merosxo'rlarga topshiradi.

Umarshayx Mirzo qilichbozlik, merganlikda benazir inson bo'lgan. Uning mushtidan yiqilmagan yigit bo'lmagan ekan.

Bobur o'z odatiga ko'ra hech kimni, hatto o'z otasining kamchiliklarini ham ayamay fosh etgan. Jumladan, u otasining ichkilikbozlik va kashandalikka ruju' qo'yganini ham yashirmaydi. Nard, hatto qimor o'yinlariga ham qiziqishi bo'lganini tan oladi.

Umarshayx Mirzo o'z hukmronligi davrida ko'plab janglarda qatnashgan. Jumladan, bir gal o'z akasi Sulton Ahmad Mirzo bilan ham Xovosda urushib, undan yengilgan.

Abusaid Mirzo unga Farg'ona viloyatini boshqarish uchun topshirgan edi. Keyinchalik akasi unga Toshkent va Sayram (Chimkent)ni ham bergan. Shohruhiya, Xo'jand, O'ratepa, Ushrushona (hozirgi Sirdayo viloyati) hududlari ham unga tegishli bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur uning eng katta o'g'li edi. U Mirzoning Qutlug'nigor xonim ismli ayolidan tug'ilgan. Shuningdek, Umarshayx Mirzoning Nosir va Jahongir ismli o'g'illari, Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor sultonbegim, Ruqiya sultonbegim ismli qizlari bo'lgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Umarshayx Mirzo akalari Ahmad Mirzo va Mahmud Mirzo, shuningdek, qaynisi Mahmudxon bilan muntazam urushib kelgan. 1494-yilda ikki akasi Axsiga yurish qilgan payti Umarshayx Mirzo jar labida qurilgan kabutarxonasidan jarga qulab nobud bo'ladi.¹

Tabiiyki, Bobur Hindistonda o'z davlatini yaratganidan keyin ham otabobolarini unutmagan. Uning avlodlari ham temuriylarning an'alarini davom ettirgan.

Umarshayxning ushbu obrazi mo'g'ul rassomlarining tasavvuriy ko'rgazmali portret an'anasi asosida yaratilgan, ammo rassom uni buyuk sulola

¹ Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960. – B.65.

asoschisining otasi haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqib, oshkora ideallashtirgan holda tasvirlagan.

Ma'lumotlarga ko'ra, bu surat Hindistonda 1875-1900-yillarda ishlangan. Demak, bu paytda mamlakat inglizlar boshqaruvi ostida edi. Noma'lum rassom temuriy hukmdorni Boburning avlodlariga xos ko'rinishda tasvirlaydi.

Ayni paytda mazkur surat AQShning Vashington shahrida, Bruklin muzeyida № 59.205.9 inventar raqami ostida saqlanadi. Miniatyura qaysi qo'lyozmadan olingani, surat qay tariqa ushbu muzeyga kelib qolgani haqida ma'lumot yo'q.

Boburning aytishicha, otasi past bo'yli, silliq soqolli, yuzlari dag'al bo'lgan. U juda tor chopon kiyib, belbog'ini mahkam bog'lab, qornini ichkariga tortib yurgan; agar u belbog'ini boylab, sal o'zini erkin qo'ysa, belbog'i uzilib ketarkan. Sallani o'sha payt odatiga ko'ra, to'rt o'ram qilib bog'lagan. Yozda esa devondan boshqa hamma joyda asosan mo'g'ullarning telpagida yurar edi.

Surat Bobur otasi haqida bergan tasvirlarga uncha mos tushmaydi. Suratdagi shoh qornini ichiga tortib, belbog'ini bog'laganga o'xshamaydi. U bir muncha ozg'in tasvirlangan. Boshiga mo'g'ulcha bo'rk emas, Hindistonning musulmon hukmdorlari udumiga mos tarzda qizil tusli salla kiygan. Hukmdor ochiq maydonda, taxt ustida o'tiribdi. Panjaralar bilan o'rab olingan maydon chetlarida gullar ochilib turibdi. Surat o'rta asr miniatyura san'ati an'analari asosida chizilgan. Turli manbalar orqali Boburiylar shajarasiga mansub Muhammad Xalil Sulton, Abu Said Mirzo, Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir singari hukmdorlarning xuddi shu an'ana asosida moviy fonda, naqshli hoshiya ichida chizilgan portretlarini uchratdik.

Chamasi bu surat XIX asr oxirlarida emas, hali Boburiylar taxt tepasida bo'lgan paytda, saroy buyurtmasi asosida bir yoki bir necha rassom tomonidan chizilgan bo'lishi kerak. Rassom bu hukmdorlar, jumladan Umarshayx Mirzoni tasvirlashda qaysi manba yoki suratdan foydalangani noma'lum. Biroq, ayni paytda ushbu miniatyura hozirga qadar topilgan, Umarshayx Mirzo tasvirlangan yagona miniatyura bo'lib qolmoqda.



Umar Shayx Mirzo II portreti. Hindiston. 1875–1900-yillar

Bruklin muzeyi. AQSh. № 59.205.9

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” – Xiva, 2023. № 2-3. B. 22-24.

TARIX

TOSHKENTDAN ONADO'LIGA HIJRAT QILGAN SHAHZODA VA UNING TARIXIGA DOIR ARXIV HUJJATLAR

UO'K 820.30



**Mirzaev Nasriddin
Muxritdinovich,**

**O'zbekiston Milliy
arxivi katta ilmiy
xodimi, t.f.f.d. (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrda yashagan Markaziy Osiyo shahzodasi Sulton Muhammad Pahlaviyning tarixiy shaxsi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda yangi topilgan arxiv hujjatlariga asoslanib, uning Toshkentdan Usmonli imperiyasiga ko'chishi va Usmonli Turkiyaning turli hududlaridagi faoliyati o'rganiladi.

Аннотация: В статье рассматривается историческая фигура султана Мухаммеда Пехлеви, принца из Средней Азии, жившего в XIX веке. Опираясь на недавно обнаруженные архивные документы, исследование прослеживает его миграцию из Ташкента в Османскую империю и исследует его деятельность в различных регионах Османской Турции.

Annotation: This article examines the historical figure of Sultan Muhammad Pahlavi, a 19th-century prince from Central Asia. Drawing upon newly discovered archival documents, the study traces his migration from Tashkent to the Ottoman Empire and explores his activities in various regions of Ottoman Turkey.

Kalit so'zlar: Sulton Muhammad Pahlaviy, XIX asr, Toshkent, Urkub viloyati, arxiv hujjatlari, Usmonli turk tili, Xonzoda nasli; tarix, sudyalik lavozimi (qazi), Markaziy Osiyo, migratsiya.

Ключевые слова: Султан Мухаммед Пехлеви; XIX век; Ташкент; регион Уркуб; архивные документы; османский турецкий язык; родословная Ханзаде; история; судебная должность (кази); Средняя Азия; миграция.

Key words: Sultan Muhammad Pahlavi; 19th century; Tashkent; Urkub region; archival documents; Ottoman Turkish language; Khanzada lineage; history; judicial position (qazi); Central Asia; migration.

XIX asrda Toshkentda hukmron oilasida tug'ulib voyaga yetgan, so'ng Usmonli Turk davlatining Onado'li o'lkasi Ko'nya (Nekda) sanjaqi O'rkub nohiyasiga ko'chib borgan Sulton Muhammad Pahlaviy hayoti va faoliyatiga doir saqlangan arxiv hujjatlarining ko'pligi va turli xilligi Markaziy Osiyo tarixi va bu o'lkaning Usmonli davlati bilan aloqasiga doir ko'plab qiziqarli yangi ma'lumotlarni ochishga sabab bo'ladi. Zero, O'zbekiston Milliy arxivi va Turkiya

Usmonli arxivida saqlanayotgan XIX asrning ikkinchi yarmiga doir aniqlangan hujjatlar bunga misol bo'ladi.

Ushbu maqolamizda Toshkentning XIX asr tarixi, xususan, bu yillarda faoliyat yuritgan qozilar tarixi bilan shug'ullanish davrida Toshkent xonzodalaridan bo'lgan Sulton Muhammad Pahlaviy tarixiga oid O'zbekiston Milliy arxivida shaxsiy hujjatlar to'plami aniqlangan. Sulton Muhammad Pahlaviyning ta'kidlashiga ko'ra, u Toshkentda hokim bo'lgan Yunusxo'ja (to'liq ismi Hoji Muhammad Yunus ibn Hidoyatxo'ja, vaf. 1803) ning avlodidandir. Yunusxo'ja Shayx Xovandi Tohurning avlodi, mustaqil Toshkent davlati hokimi (1787-1803) bo'lgan. Shayxontoxur dahasi hokimi sifatida o'z qo'mondonligi ostida shaharda hokimiyatni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan va Toshkent bekligiga asos solgan.

Toshkent shahzodasi Sulton Muhammad Pahlaviyning nasl-nasabi bo'yicha bugungi kungacha biz O'zbekiston Milliy arxivi, Turkiyadagi Usmonli arxivi, Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning "Tarixi jadidi Toshkand" asaridan, Sultonov O'ktambekning "Toshkent vaqf mulklari tarixi: tarixiy hujjatlar tadqiqi va talqini (1507-1917)" kitobidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Sulton Muhammad Pahlaviy ajdodlarining shajarasi quyidagicha: Sayyid Sultonxo'ja Pahlaviy ibn Sayyid Sultonxo'ja Eshon ibn Sayyid Muhammad Yunusxo'ja Eshondir.

Muhammad Yunusxo'janing Sayyid Sultonxo'ja Eshondan tashqari Muhammadxo'ja, Xonxo'ja, Homidxo'ja va Hoshimxo'ja degan farzandlari bo'lgan. 1803-yili Toshkent hokimi Muhammad Yunusxo'janing vafotidan so'ng farzandlaridan Muhammajo'ja qisqa muddat Toshkent hokimi, so'ng Sayyid Sultonxo'ja Eshon o'g'li to 1809-yilgacha hokim bo'lgan. Hoshimxo'ja Qo'qon tomonga ko'chib ketgan. Homidxo'ja esa Buxoroga ko'chgan, zero Toshbobo degan Sultonxo'ja davrida miroxur lavozimida ishlagan kishining ta'kidlashicha, Homidxo'janing avlodlarini Buxoroda ko'rgan va u Toshkentdan shu hududga ko'chib borganini ta'kidlaydi.

Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning Turkiya hududiga ko'chib borgani haqida o'z arxiv hujjatlarida quyidagicha ma'lumotlar uchraydi. Sayyid Sulton Yunusxonxo'ja ibn Sayyid Sultonxonxo'ja Eshonning sulbi tohiralaridan Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning Onado'li Ko'nya viyolatiga tobe O'rkub qasabasiga kelib yashay boshlagani 1865-yil noyabr (1282-hijriy) oyidagi tuzilgan hujjatga ko'ra, 30-40 yil bo'lgan, demak 1835-1825-yillarda bu joyga kelib yashay boshlaganini anglash mumkin¹.

¹ O'zbekiston Milliy arxivi I-125 fond, 2-ro'yxat, 280-yig'majild, 3-varaq.

Uning ko'chib borish sababi sifatida quyidagi ma'lumotlar uchraydi: Sayyid Sulton afandi do'iylari Toshkand hukumatidan davr o'laraq hijrata majbur o'lan va bir xili vaqtdin beru Ko'nya viyolati doxilinda iskan edarak bukkra Xo'qand safiri (Ya'qub) afandi do'iylarila birlikda mamlakati jonibina azimat etmak o'zara dari aliyyaya kelan va fomilyasi dazi o'lan besh nafara (keyingi varaqda 10 dan ziyod) qarib edukindan aqron va amsoli bayninda hajil dushmamak o'zara haqinda muomalai latifa va marosimi mehmonnavozning be darig' buyurulmasini istid'o aylar (3 oy muddat uchun Musofirxonadan joy berish)" to'g'risidagi hujjat, 13 jumodulavval 1283 hijriy sana (1866-yil, 23-sentabr). Majlisi ahkomi moliyasi: Ahmad Abduh Raf'at, muhlari bilan tasdiqlangan¹. Bundan ma'lum bo'ladiki, u noilojlikdan ko'chib ketgan.

Usmonli arxivida saqlangan usmonli tili va yozuvidagi hujjatlarda bu kishining ismi va unvonlarini turlicha keltiradi, hatto ularning soni 30 ga yaqindir.

Usmoniy Turkiya Onado'lida Ko'niya (Nekda) sanjaqida O'rkub qasabasi va qazosida joylashgan Qilich Arslon Xonaqohi shayxi Sulton Muhammad Pahlavon Toshkent shahzodasining mahalliy xalq orqasidagi tanilgan unvon (*titul*) va laqablari:

- Arslon G'oziy turbasi postnishini Shayx Muhammad Pahlaviy;
- Qilich Arslon G'oziy xonaqohi sharifi postnishini;
- Shayxi mashoyixi Naqshband;
- Turbadori xonaqohi Qilich Arslon G'oziy;
- Hoji Pahlaviy;
- Postnishini Turbai sharif;
- Sajjodnishini Turbai sharif;
- O'rkub xonadoni qadimiy va mashixoni kiromiy Afandi Pahlaviy

hazratlari;

- Sayf (q.s.) Arslon G'oziy turbasi postnishini;
- Raisul ulamo, muftiyi Nekda;
- Buxoroli (Buxoroviy) Shayx Pahlaviy;
- Naqibul ashraf;
- O'rkub qazosinda sokin;
- Pahlaviy Bobo;
- Dard darmonim, tab'i Luqmonim;
- Ashraf xonadonidan;
- O'rkub qazosi xonadonidan va mashoyig'i kiromdan;

¹ Usmonli arxivi. MVL-00875, 32 gumlak, 4-varaq.

- Dori aliya Bog‘cha qapusi jivorindan Amin Ukunda Qahvachi o‘dasinda musofir sokin Buxoroli Xonzoda fazilatli;
- Buxoroli Shayx, Shayxi bilod;
- Hoji Bobo, Hoji Ali afandi;
- Aziz Bobo;
- Arslon G‘oziy takyasi (takkasi) shayxi, 1273 10 gavvaol (1857-yil, 2-iyun oyi);
- Toshkand shahzodasi;
- Toshkand xonzodasi;
- Sayyid Sultonxon afandi;
- Hoji Pahlaviy Bobo;
- Qilich Aslon G‘oziy (q.s.) oliy dargohi sharifinda “Noqili irshod” rashodatlu Muhammad Pahlaviy Axiy Bobo va Shayxul asnof manbasiga ta‘yin o‘lunmishdir¹.

Usmonli Sultonlariga, Buxoro va Xiva xonlariga murojaat qilib yoki shaxsan o‘zi tashrif buyurishga oid hujjatlarida “Shahzoda” va “Toshkent xonzodasi” degan qo‘shimchalar doim uning ismiga qo‘shib yozilgani kuzatiladi.

Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning Toshkent hukmdori va xonlari naslidan ekanligiga doir Buxoro, Xorazm va Qo‘qonning yetakchi shaxslari tomonidan taqdim qilingan shahodatnomani misol qilib keltirish muki. Mazkur shahodatnoma Xiva xonlariga taqdim etilgan bo‘lib, unda quyidagilar yozilgan:

“1865-yil 24-dekabrda yuksak maqomlaringizga taqdim qilingan shahodatnomamizdir. Onaduluning Ko‘nya viloyatidagi O‘rkub qishlog‘ida uzoq yillardan beri istiqomat qilib kelayotgan Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviy afandining ota-bobolari Toshkand hukmdori va xon naslidan bo‘lib, taqdir taqazosi bilan o‘ttiz-qirq yildan buyon oilasi bilan musofirchilikdalar. Toshkand hukmdori Sayyid Sultonxon Xo‘ja Eshon o‘g‘li Sayyid Yunusxon Xo‘ja naslidan ekanligini ma‘lum qilgan holda, janobi Haqning lutfi bilan uch farzandini podshohning amri bilan (tahsil olish uchun) litseyga qayd qildiribdi. Sayyid Sultonxonning Toshkand xon nasabidan ekanliklari mamlakatimizda ham tan olingan, boshqa joylardan ham bu ma‘lumot tasdiqlangan. Bu shaxsdan boshqasi xon naslidanman, deb da‘vo qilsa asosli bo‘lmasligini, hukmdorlikning meros orqali Sayyid Sultonxonga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi ushbu shahodatnomamizni tayyorlab, shubhaga o‘rin qoldirmaydigan ma‘lumotlar asosida Xonzodaga taqdim qildik. 5-Sha‘bon [1] 282-hijriy sana / 24-dekabr 1865-yil Harbiy maqomlar tomonidan tayinlangan alamdor [muhr]; Shayxlar raisi

¹ O‘zMA I-125 fond, 2-ro‘yxat, 279-yig‘majild, 1-varaq (1276-hijriy, 22-rajab oyi / 1860-yil, 14-fevral).

Shayx Olim Afandi [muhr]; Ishonchli tojirlardan Najmiddin Xo‘ja o‘g‘li Buxoriy Xolid Sharafiddin Xo‘ja [muhr]; Qo‘qon shayxlar raisi Muhammad Rahim [muhr]; Xorazm elchisining xodimi Abdulkarim [muhr]”¹.

Arxivdagi aftobiografik hujjatlarga ko‘ra, Sayyid Sulton Muhammad Pahlaviy XIX asrning birinchi yarmida Xivada yashagan, keyinchalik Turkiyaga yo‘l olgan. Yuqorida zikr qilinganidek, Ko‘nya viloyatiga qarashli O‘rkub shahrida istiqomat qilgan. Bu yerda u O‘rkubning shayxi va qozisi bo‘lgan. Taxminan 1867-yilda Sayyid Sulton Muhammad Pahlaviy Xivaga kelib, yana qaytib ketgan bo‘lishi mumkin². Zero, Turkiyada turib Misrga safar qilish uchun ruxsat so‘ragan boshqa hujjat ham mavjud³.

Toshkent xonzodasi Muhammad Pahlaviyning hayot yo‘li XIX asrdagi Turkiya Usmonli davlati bilan Marakziy Osiyo xon va amirlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni kuchaytirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. Zero, arxivdagi hujjatlar orqasida ko‘plab o‘zaro yozishmalarni uchratish mumkin⁴. Ularda Buxoro amirligi bilan Shayx Sulaymon Afandiyning birgalikdagi aloqalari asosida Qo‘qon xonligi bilan elchi Ya‘qubnig vositachiligi hamda Sayyid Sulton Muhammad Pahlaviynig o‘z shaxsiy arxiv hujjatlarining Xiva xonlari arxivida saqlanib qolishi esa bevosita buni isbotlaydi⁵.

Shuningdek, Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi kurashish lozimligi haqida Buxoro amirligiga o‘z murojaati bilan 1866-yilda Turkiyadan maktub yo‘llagani ham uzoq safarda bo‘lsa ham o‘z yurtining g‘amida yashaganidan quyidagi hujjat darak beradi. U hujjatda Toshkent xonlari naslidan bo‘lib, Istanbulda yashayotgan Sayyid Sultonxon Muhammadning ruslarga qarshi kurashish maqsadida mamlakatiga borish istagini bir maktub orqali Mavarounnahr xoniga bildirilishini talab qilgani yozilgan. Bu kabi misollardan ham ko‘rinib turibdiki, musofirlikda yurgan bo‘lsa ham vatan dog‘ida va uning farovonligi yo‘lida barcha sa‘y-harakatlarni amalda bajargan. Ushbu hujjatning mazmunini boyitgan boshqa, 1866-yil 24-dekabrga oid hujjatda Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning farzandlari haqida ma‘lumot berilib, ular Turkiyaning litseylarida tahsil olishlari uchun qabul qilingani alohida qayd qilingan⁶.

Umuman olganda, arxivda saqlanayotgan yuzdan ziyod hujjatlar Sulton Muhammad Pahlaviy hayot yo‘li va faoliyatiga oid bo‘lib, Turkiyaning Onado‘li

¹ O‘zMA, I-125-fond, 2-ro‘yxat, 279-yig‘majild, 3-varaq.

² O‘zMA. I-125-fond, 2-ro‘yxat, 279-288-yig‘majildlar.

³ O‘zMA I-125 fond, 2-ro‘yxat, 279-yig‘majild, 8-varaq.

⁴ O‘sha joyda: 279-yig‘majild, 17 varaq.

⁵ Usmonli arxivi. MVL-00875, 32 gumlak – 4 varaq.

⁶ O‘zMA. I-125-fond, 2-ro‘yxat, 279-yig‘majild, 3-varaq.

mintaqasi O'rkub shahridagi turli mazmundagi yozishmalari, moliyaviy faoliyati, Turkiya sultonlari bilan bo'lgan aloqalari, o'z ota yurtiga kelib ketishi, Sulton Muhammad Pahlaviy qalamiga mansub she'rlar, boshqa shu kabi tarixiy hujjatlar joy olgan. Bu kabi ajdodlarning xotirasini tiklash va hayot yo'llarini yoshlarga ibrat sifatida yoritib berish tadqiqotchilar oldidagi birlamchi vazifalardandir. Kelgusida tadqiqotchilarimizdan Toshkent xonzodasi Sulton Muhammad Pahlaviy hayotining so'nggi onlari va taqdiri to'g'risida, uning ajdodlari va avlodlari haqida batafsil ma'lumotlar, "Pahlaviy" degan taxallusning etimologiyasiga oid yangi tadqiqotlar e'lon qilinishini umid qilib qolamiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonov U. The History of Tashkent Waqf Properties: A Study and Interpretation of Historical Documents (1507-1917). – Tashkent: "Fan", 2021. - P. 6-7. (Султонов Ў. Тошкент вақф мулклари тарихи: тарихий ҳужжатлар тадқиқи ва талқини (1507-1917). - Тошкент: Фан, 2021. - Б. 6-7).
2. А. Муҳаммадкаримов. Тошкентнома. – Т.: "Янги аср авлоди", 2009. – Б. 86-88 (187-б.)
3. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2012. – 460-б.
4. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таворих ал-хавакин / Генеология султанов и история хаканов./Пер., прим., указатели С. Юлдашев. Введ., науч. ред. Ш. Вохидов. – Тошкент, 2007. – 255 с.
5. Муродхўжа Солиххўжа ўғли. Тарихи жадидаи Тошканд асарига тақриз ва илова. // Дастхати ИШ АФ Р Ўзбекистон ба номи Абу Райҳон Беруний. № 13414. – 31 вар.
6. Муҳаммад Солиххўжа. Тарихи жадидаи Тошканд // Қўлёзма ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний шарқшунослик институти. № 7791. – 1040 в.
7. Муҳаммад Солиххўжа. Тарихи жадидаи Тошканд. // Дастхати ИШ АФ Р Ўзбекистон ба номи Абу Райҳон Беруний. № 11072. – 302 в.
8. National Archive of Uzbekistan (hereinafter referred to as NAU) Fond I-125, Inventory 2, File 280, Page 3.
9. NAU, Fond I-125, Inventory 2, File 279, Page 1 (22nd of Rajab, 1276 Hijri / February 14, 1860).
10. NAU, Fond I-125, Inventory 2, File 279, Page 3.
11. NAU, Fond I-125, Inventory 2, File 279, Page 8.
12. Ottoman Archives. MVL-00875, 32 gumlak, Page 4.

TARIX

ISMOIL GASPRALI JADIDCHILIK HARAKATI ASOSCHISI VA UNING TARIXDA TUTGAN O'RNI

UO'K 574.30



**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Turon Fanlar
akademiyasi akademigi,
dotsent



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Turon Fanlar
akademiyasi akademigi,
dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ismoil Gaspralining hayoti va faoliyat, jadidchilik harakati bilan bog'langan holda tahlil etiladi. Gaspralining tarixda va turkiy dunyoda tutgan o'rni o'sha davrga oid manbalar asosida tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье анализируется жизнь и деятельность Исмаила Гаспрали в связи с движением джадидов. На основе источников того периода исследуется место Гаспрали в истории и тюркском мире.

Annotation: This article analyzes the life and work of Ismail Gasprali in connection with the Jadid movement. Gasprali's place in history and the Turkic world is explored based on sources from that period.

Kalit so'zlar: Qrim, jadid, maktab, gazeta, shahar meri, harakat, tarix, turkiy dunyo, sharq, fenomen.

Ключевые слова: Крым, джадид, школа, газета, мэр, движение, история, тюркский мир, Восток, явление.

Key words: Crimea, Jadid, school, newspaper, mayor, movement, history, Turkic world, East, phenomenon.

O'zbekiston respublikasida jadidchilik harakatini va uning namoyandalari faoliyatini tadqiq qilib, dunyo ilm-fanida nufuz orttirgan va zamondoshlari tomonidan "So'nggi jadid" deb nom olgan professor Begali Qosimov shunday yozgandi: "Ko'hna Sharq Arastuni "Birinchi muallim" deb tanigan edi. O'rta Osiyo uyg'onishini boshlab bergan Forobiy "Muallimi soniy" sifatida tarixga kirdi. Zamonlar aylanib to'rt-besh asrli turg'unlik va tutqunlikdan so'ng turkiy olamning o'zligini anglashdek jarayon boshlandi. Buni mutaxassislar "milliy uyg'onish" deb atamoqdalar. Uning ikkinchi nomi ham bor - "jadidchilik". 19 asrning oxiri, 20 asr boshlaridagi Rusiya mustamlakachiligi zulmini boshdan

kechirayotgan turkiy xalqlar uygʻonishining boshida turgan taraqqiyparvar ziyolilar sinfini tarbiyalab yetishtirgan Ismoilbek Gasprinskiy (Gasprali) edi. Shunga koʻra uni “Uchinchi muallim” desak, mubolagʻa boʻlmas” (1).

Turkiy musulmon xalqlari hayotida Milliy Uygʻonishni boshlab bergan jadidchilik harakati, fenomenining asoschisi Ismoilning bobosi Ali, Qrimdagi Gaspra qishlogʻining nufuzli shaxslaridan boʻlgan. Shu bois ham oʻgʻli Mustafobey Kavkaz va Qrimning general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkovning tarjimoni boʻlib ishlagan va 1853-yilda poruchik unvoni bilan taqdirlanib, dvoryanlik martabasiga koʻtarilgan. Mustafobey ikki marta uylanadi. Birinchi turmush oʻrtogʻi 1849-yilda vafot etadi va shu yili Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fotima xonimga uylanadi. Mustafobeyning bu turmush oʻrtogʻidan ikki oʻgʻil va toʻrt qiz tugʻilgan.

Ismoil 1851-yilning 21-martida ana shu oiladagi ikkinchi oʻgʻil boʻlib tugʻiladi. Dastlab boqchasaroylik Hoji Ismoilning eski maktabi, soʻngra Simferepoldagi gimnaziya, undan keyin Voronej shahridagi harbiy oʻquv yurtida va 13 yoshidan Moskvadagi Milyutin gimnaziyasida tahsil oladi. 1868-yilda Ismoil Bogʻchasaroyga qaytib, “Zanjirli” madrasasida rus tili fani oʻqituvchisi sifatida pedagoglik faoliyatini boshlaydi.

U 1872-yilda Fransiyaga boradi va Parijdan tashqari Vena, Myunxen, Shtutgard shaharlarida ham safarda boʻladi. Fransiyada yashayotgan buyuk rus yozuvchisi I.S.Turgenevning kotibi boʻlib faoliyat koʻrsatadi. Shuningdek, Sorbonna universitetida tahsil oladi. 1876-yilda Bogʻchasaroyga qaytib, “Zanjirli” madrasasidagi faoliyatini davom ettiradi.

Aynan Yevropa safari Ismoil Gaspralining dunyoqarashiga katta taʼsir qiladi va anʼanaviy tahsilning zamonaviy taraqqiyotdan orqada qolganini anglab, taʼlim sohasidagi yangi usul maktabi ochishni rejalashtiradi.

Professor Begali Qosimov taʼkidlaganidek “Ismoilbek qunt va sabot bilan turkiy tilni, tarix va adabiyotni oʻrganadi. Ayni paytda u sharqona tahsilning zamondan orqada qolganini, shu tufayli musulmonlar jahon taraqqiyotidan chetga surilib chiqayotganligini koʻradi. Nima qilmoq kerak? Milyutin gimnaziyasidagi oʻqitish usulini, Sorbonnadagi koʻrganlarini musulmon maktablariga koʻchirsa boʻlmasmikan? Har bir maktab, madrasa oʻz nizom-dasturiga ega boʻlmogʻi lozim. Diniy bilimlar qatorida dunyoviy fanlar ham keng oʻqitilishi kerak. Bu, masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, oʻqishni nazorat qilish shakllari, bilimni baholash mezonlari boʻlishi lozim...” Xullas, dunyo koʻrib, yangilikka intilgan, turkiy xalqlarni ham boshqa xalqlar, taraqqiyot bilan teng odimlashini, ulardan ham oʻzib ketishini istagan Ismoilbek ishni taʼlimdan, maktabdan boshlash kerakligini anglab yetgandi.

Biroq har qanday yangilik singari Ismoil Gaspralining ta'lim sohasida boshlamoqchi bo'lgan bu sa'y- harakati to'siqlarga uchraydi.

Shunday bo'lsa-da, ajdodlarining nufuzi, qolaversa o'zining Yevropada tahsil olgani bois, 1878-1884-yillarda Bog'chasaroy shahri boshlig'i vazifasida faoliyat ko'rsatadi. Bog'chasaroy meri janob Ismoil Gasprali 1882-yilda Qozon tatarlaridan Aqchurinning qizi Zuhroxonim bilan oila quradi va Rifat, Shafiqa, Bahiya, Doniyol, Nigor, Mansur, Haydar ismli farzandlarni dunyoga keltirib, tarbiyalashadi. Laylo kichikligida vafot etadi.

Merlikdan iste'foga chiqqach, Ismoil Gasprali o'zining keyingi faoliyatini matbuot va pedagoglikka bag'ishlaydi. U 1883-yildan "Tarjimon" gazetasini nashr etishni yo'lga qo'yib, o'ziga xos jadidlar minbarini yaratdi va dunyodagi jarayonlar, Rossiya imperiyasi, bu hududlarda yashovchi turkiy musulmon xalqlar hayoti, ularni taraqqiyotga yetaklash bilan bog'liq takliflarni ko'tarib chiqdi, muammolarga yechim izladi. Aynan "Tarjimon" gazetasi o'z davrida jadidlar minbari, turkiy musulmon xalqlarning tayanchi, huquqlari kafolati va erkin ovozi darajasiga yetdi.

"Tarjimon" gazetasining nashr qilinishi, yuksak saviyada chop etilishida Ismoil Gaspralining rafiqasi Zuhroxonimning ham hissasi katta edi. Tadqiqotchi Gulnora Abdullaevaning tahlillariga ko'ra "Boqchasaroyda tanishgan kezlaridayoq gazeta chiqarish orzusi Zuhra (Zuhrabibi Oqjo'ra-Aqchurin qizi Rossiyaning Simbirsk guberniyasida dvoryan Asfandiyor oilasida 1862-yilda tug'ilgan bo'lib, 1903-yil 23-aprelda vafot etgan-U.B, S.S.) ham xayolini butunlay band etgan edi. Yosh kelinchak qimmatbaho taqinchoqlarining bir qismini sotib, pulini erining ishiga sarflaydi. 1883-yil 23-aprelda Gasprali "Tarjimon" gazetasini nashr etish uchun ruxsat oladi va kelin-kuyov darhol ishga kirishib ketadi. Ular almisoqdan qolgan bosmaxona dastgohi chamberagini qo'l bilan aylantirib, gazetalarini qo'lda chop etishadi va kerakli manzillariga yetkazishadi. Hamma ishni o'zlari, boshqalarning yordamisiz amalga oshirishadi.

Maqolalarni tahrir qilish chog'ida Zuhra eriga bildirmasdan, yurtdoshlari - Volgabo'yi Qozon tatarlariga tushunarli bo'lishi uchun murakkab jummalarni sekingina tuzatib qo'yardi. Ismoilbek Gaspralining ko'ngil orzusi-"Tarjimon" gazetasi faoliyati shu tariqa boshlanadi.

Agar Zuhroxonim dastlabki besh-olti yil eri bilan yonma-yon turib gazeta nashr etishning og'ir yukini yelkasiga olmaganida, "Tarjimon" ham bo'lmas edi. Chunki yosh er-xotin o'sha vaqtda yordamchi yollash imkoniga ega emas edi.

Tatar olimi Rizo Faxriddinov "Mashhur xotinlar" kitobida yozishicha, Zuhroxonim erini eng qiyin damlarda qo'llab-quvvatlagan. Ismoilbek boshlagan ishidan pushaymon bo'lganida sevimli yori tarixdan misollar keltirib, uni sabr

qilishga chaqirgan, shunday xayrli ishda Olloh bizdan albatta o'z marhamatini ayamaydi, deb uni ruhlantirgan. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, u aslo o'zini o'ylamagan, qimmatbaho taqinchoqu kiyimlarni ortiqcha bir hasham deb, ularga bekor pul sarflashni hohlamagan.

Gazetaning 10 yilligi 1893-yili Bog'chasaroyda katta to'y tarzida nishonlandi. Bu tantanada Rossiyaning turli chekkalaridan kelgan mehmonlardan tashqari Turkiya va Erondan rasmiy shaxslar ishtirok etdi. Eron shohi va Buxoro amirining maxsus vakillari Gaspraliga o'z yurtlarining ordenlarini topshiradi. Zuhra Oqjo'ra qiziga ham sovg'alar beriladi. Qrim ahli unga qimmatbaho to'g'nog'ich tuhfa etadi. Qozon shahridan kelgan mehmonlar esa "Millat onasi" degan rasmiy unvon beradi" (2) ("Tatar dunyosi" gazetasi, 2008-yil, 21-noyabr).

Millat onasi darajasida e'tirof qilinish Zuhroxonim uchun bejiz emasdi. Negaki, Shafiqa Gasprinskaya xotiralarida yozganidek "gazeta nashri yo'lga tushib ketgan yillari oyim bir necha farzand onasi bo'la turib ham ularning tarbiyasi, ham gazeta ishlari bilan shug'ullanishga vaqt topa oldi. Otam bilan 20 yil turmush qurgan bo'lsa, biror marta o'zi uchun qimmatbaho narsa yoki kiyimbosh olinishiga rozi bo'lmadi. Hatto bolalar tarbiyasini ham boshqa hech kimsaga ishonmadi. Gazeta sahifalarida biror marta ham nomi ko'rinmagan bo'lsa-da, beminnat xizmati va maorif yo'lidagi g'ayrati juda ko'pchilikka ma'lum edi. Shu sababli ham vafot etganda turli viloyatlardan ta'ziya bildirgan 300 ga yaqin maktub keldi"...

Ha, Ismoilbek o'zi singari millat istiqboli yo'lida umrini safarbar qilgan Zuhroxonim bilan hayot kechirgani balki uning g'oyalari amalga oshishiga turki bo'lgandir.

Ana shu tariqa katta qiyinchiliklar, izlanishlar bilan Zuhrabegim va Ismoil Gasprali tomonidan nashr etilgan "Tarjimon" qisqa vaqt ichida turkiy xalqlarning sevimli nashri, erkin matbuot minbari darajasiga erishdi. Bora-bora faqat Qrimda emas, turkiy musulmon xalqlar yashaydigan har bir hududning ham jadid nashrlari paydo bo'la boshladi.

Gasprali 1884-yildan esa yangi usuldagi jadid maktabiga asos soldi va tezda bunday ta'lim turidagi maktablar dastlab Qrimda, keyinchalik esa Qozon, Ufa va Kavkaz, Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi shaharlarida ham tashkil etila boshlandi.

Dunyoviy fanlar o'qitiladigan ushbu maktablar tez orada eski deb ataladigan an'anaviy va rus-tuzem maktablariga raqobatchi sifatida ta'lim maskaniga aylandi. Aynan Gasprali tomonidan "Xojai sibyon" (1888y)-"Bolalar muallimi" kabi darsliklar yaratildi. Darslikning har bir sabog'idan keyin savollar berilgan bo'lib, muallif fikricha ular o'quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun buyuk vosita edi. Muallif o'qish-o'qitishning yangi

usuli haqida to'xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga e'tibor qaratadi va har bir harfni alohida "sadosi bilan" muntazam va izchil o'rganishni ta'kidlaydi. Ushbu usul shunga ko'ra "usuli savtiya" (tovush usuli) deb ham ataldi.

Shu tariqa, o'qitiladigan darsning mazmunidan uni o'qitish usuli va baholash jarayonigacha, o'quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu qishki va yozgi ta'tiligacha, maktabning joylashish o'rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug'lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko'rib chiqilib, maktab ta'limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Ismoil Gaspralining ta'lim sohasidagi bu yangi dasturi "usuli jadid" nomi bilan dovuq qozondi.

Ismoil Gasprali pedagoglik, matbuotchilikdan tashqari, "Solnomai turkiy", "Mir'oti jadid" nomli ikkita risola, "Rossiya musulmonligi", "Turkiston ulamosi" asarlarini ham yaratdi. Bu borada yana Ismoil Gasprali faqat pedagoggina emas, o'tkir publitsist, jamoat arbobi va siyosatchi sifatida e'tirof etilishida "Tarjimon" gazetasi, unda berib borilgan millatning dardu hasratlari, istiqbollari to'g'risidagi maqolalari, shuningdek yuqoridagi singari asarlari katta rol o'ynadi.

Ana shunday serqirra faoliyati bois Ismoil Gasprali nafaqat Rossiya imperiyasida, shuningdek Usmoniylar saltanatida, umuman olganda turkiy dunyo va Yevropada ham nufuzi katta shaxsga aylandi.

Tabiiyki, u nufuzini, ta'sir kuchini o'zining jadidchilik g'oyalarini keng tarqalishiga safarbar qildi. Shu maqsad, g'oya yo'lida u 1893-yilda Shirvonlik shogirdlaridan Majid G'anizoda bilan Turkistonga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent shaharlarida safarda bo'ldi va jadid maktablari tashkil etish borasidagi faoliyatini davom etdirdi hamda maslakdoshlari bilan tanishdi.

Gaspralining Turkistonga sayohati "Tarjimon" gazetasining 1893-yilgi 29-38-va boshqa bir qismi 40-43-sonlarida chop etilgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tohir Qahhor tadqiq qilganidek, "Gaspralining barcha o'lkalarga safar qilishidan ikkita maqsadi bo'lgan: birinchisi - yangi usuldagi maktablar ochishni tashkil etish, ikkinchisi - "Tarjimon" gazetasining tarqalishi bilan bog'liq masaladir. Turkistonga ham ayni ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun kelgandi. Asarlaridan va u haqdagi esdaliklardan ma'lum bo'lishicha, Ismoilbek sharqu g'arbning ko'plab davlat arboblari, yuksak doiralari bilan yaxshi munosabat o'rnatgan shaxs edi"(3).

Ismoil Gaspralining Turkistonga ikkinchi safari 1908-yilga to'g'ri keladi. Safar tafsilotlari "Buxoroda na ko'rdim?" sarlavhasi ostida "Tarjimon"ning o'sha yil sonlarida (47,50,57-59,64,78) chop etilgandi. Gasprali Kaspiy dengizidan

“General Skobelev” kemasida kelib, Krasnovodskdan poezdga o‘tarkan, Rossiya bosqini paytidagi Ko‘ktepa urushini eslaydi. Qal’a aholisining “butun Osiyoga shuhrat va ibrat deya bola-chaqasi barobar qilichdan kechurulub, ot oyog‘ida toptalgani”ni alam va iztirob bilan yodga oladi.



Ismoil Gaspralini Yangi Buxoro (Kogon) stansiyasida amir amaldorlari va Rossiya siyosiy agentligi tarjimoni Mirhaydarbek kutib olishadi. Amir uni Karmanaga taklif etadi. Ziyofat asnosida valiahd Sayyid Olimxon bilan uchrashadi. Valiahdning Rossiya matbuotini muntazam o‘qib borishidan, dunyo voqealaridan xabardorligidan voqif bo‘ladi.

So‘ngra Samarqandga borib, shahardagi “usuli jadid” maktablari bilan tanishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir

Shakuriy singari maslakdoshlari bilan maqsadu vazifalari, ta’limoti to‘g‘risida uzoq suhbatlar quradi. Mavzudagi asosiy mohiyat tarix va kelajak, muqaddas obidalar va ularning taqdiri, Rossiya istilochilik siyosati va ana shu sharoitda o‘zlikni saqlab qolish haqida edi.

Samarqanddan qaytishda yana Buxoroga keladi va faoliyati to‘xtab qolgan jadid maktabini yuritish bo‘yicha Qushbegi Ostonaqulbek bilan muzokara olib boradi. Asosiy to‘sqinlik qozikalon tomonidan ekanligini anglab, huzuriga boradi va uning maktabni tiklash haqidagi va’dasini oladi. Safar davomida Buxorodagi no‘g‘oylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, “Jamiyati xayriya” tashkilotiga faxriy a’zo qilishadi. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga “Ismoiliya” deya atamoqchi ekanliklarini aytishadi. Biroq Ismoilbek bunga unamaydi va boshqa taklif - Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga “Muzaffariya” deya nomlashni maslahat beradi...

Ismoil Gasprali faqat pedagog, publitsist, noshir va jamoat arbobigina emas, taniqli adib sifatida ko‘plab badiiy asarlar ham yaratdi. Uning “Farangiston

maktublari” (1887), “Dorur-roxat musulmonlari” (1889), “Sudan maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1890), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897), “Muhokamayi salotin” kabi ko‘plab nasriy asarlari bor. Ayrimlari o‘zbek tiliga tarjima ham qilingan. Asar voqealari deyarli hammasida muallif tilidan hikoya qilinadi.

Ismoil Gasprali jadidchilik harakatining dunyoda e‘tirof etilgan lideri edi. Shu boisdan Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihatlari bilan shu nomga, uning “Tarjimon” gazetasiga kelib bog‘lanadi. Va ushbu davrdan e‘tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror turkistonlik ziyoli yo‘qki, bu nomni chetlab o‘tgan emas. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchiligi va jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega.



Professor Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish” asarida haqli ravishda yozganidek, “Ismoil Gasprali ismi sharifi 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar. U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 1908-yildagi 25 yillik qutlug‘ sanasida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910-yilda esa Fransiyaning eng e‘tiborli jurnallaridan “Revyu dyu monde musulman” uning millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun

nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti”ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko‘p matbuot organlari qo‘llab-quvvatlab chiqqan edi.

U vafot etgan 1914-yilning 11-sentabrida mashhur Narimon Narimonov yozadi: “Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajakdir”. Negaki u tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi.

Uning eng katta xizmati Rossiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoq tushgan (to'g'rirog'i, uzoqlashtirilgan) va begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi. Behbudiy so'zlari bilan aytganda, "Rossiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayrxo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo'ldi". Bu dard o'sha davr chor Rossiyasi asoratida o'z erku huquqigina emas, asriy urf-udum, ma'naviy qadriyatlaridan tortib, tili, dini, e'tiqodigacha unutishga mahkum qilingan turkiy xalqlarning eng katta dardi, so'ngsiz armoni edi.

Ismoil Gasprali Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, "usuli jadid" nomi bilan tarixga kirgan "usuli savtiya"ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga - jadidchilikka asos soldi.

Gasprali barcha turkiy xalqlarni yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularni ham ilm-ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko'rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga-millatning ravnaqi va muhofazasi yo'liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirini teran anglagan, Sharqni ham, G'arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko'rgan bir kishining aniq va rejali hatti-harakati edi" (4).

Natijada Ismoil Gaspralining maktab sohasidan boshlangan jadidchilik harakati jamiyatning barcha sohalari, qatlamlarini qamrab oldi va turkiy musulmon xalqlarning mafkurasiga, fenomenal hodisasiga aylandi hamda Gaspralining nomi islohotchi sifatida tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. Ismoil Gasprinskiyning "Hayot va mamot masalasi" kitobiga yozilgan so'zboshi, "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent, 2006-yil.
2. Rizo Faxriddinov. "Tatar dunyosi" gazetasi, 2008-yil, 21-noyabr.
3. Tohir Qahhor. "Ismoilbek G'asprali va uning Turkiston sayohatlari", "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010-yil, oktabr.
4. Begali Qosimov. "Milliy uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent, 2002-yil, 162-163-betlar.

TARIX

SOVET HOKIMIYATINING O‘ZBEKISTON SSR OLIY TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRGAN QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

UO‘K 9(575.1)

Soibjon Xoshimov,
Andijon davlat
universiteti professori,
tarix fanlari doktori.



**Shoxsanam
Najimidinova,**
Andijon davlat
universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada sovet hokimiyatining 1920-1930-yillarda O‘zbekiston SSR oliy ta’lim tizimida amalga oshirgan qatag‘on siyosati va uning ayanchli oqibatlari tarixi birlamchi manbalar asosida yoritilgan.

Аннотация: В статье освещается история репрессивной политики советского правительства в системе высшего образования Узбекской ССР в 1920–1930-е годы и ее трагические последствия на основе первичных источников.

Annotation: The article examines the history of the policy of repression implemented by the Soviet government in the higher education system of the Uzbek SSR in the 1920s-1930s and its tragic consequences based on primary sources.

Kalit so‘zlar: “tozalov”, qatag‘on, hukm, “uchlik”, mafkura, institut, universitet, oliy ta’lim, talaba, kurs, professor-o‘qituvchi, surgun, gulag lagerlari.

Ключевые слова: «чистка», репрессия, приговор, «тройка», идеология, институт, университет, высшее образование, студент, курс, профессор, ссылка, лагеря ГУЛАГа.

Key words: "purge", repression, sentence, "three", ideology, institute, university, higher education, student, course, professor-teacher, exile, Gulag camps.

Sovet hokimiyatining 1920-1930-yillarda O‘zbekistonda yuritgan qatag‘on siyosati oliy ta’lim sohasi xodimlarini ham chetlab o‘tmadi. Bu o‘rinda Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan 1918-yil 12-mayda ochilgan Turkiston Musulmon Xalq universitetini eslash mumkin. Unda ulug‘ ma’rifatparvar, millatparvar inson, pedagog va adib Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligidagi bir guruh ma’rifatparvarlar faoliyat ko‘rsatgan. Ular sovet hukumatiga qarshi ish olib borganlikda ayblanib, 1929-yil noyabrda qamoqqa olinadi [1.13]. Qamoqqa olingan 87 nafar bu ma’rifatparvarlarning 15 nafari

otishga hukm qilinib, qolganlari esa turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi [2.98].

Madaniyat va fan sohasi xodimlariga nisbatan qo'llanilgan ta'qib hamda qatag'onlar ikki bosqichda kechdi. Birinchi bosqich – 1920-yilning boshlarida boshlangan tergovlarning sovuq to'lqinlari ogohlantirish omili sifatida qatag'onlarning boshlanishi bo'lib, 1933-yillarga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ikkinchi bosqich – 1934-yil oxirlaridan boshlanib, “katta terror” operatsiyasi davrida “musobaqa” tariqasidagi yoppasiga qirg'inlarning avji bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda fan, maorif va barcha madaniyat xodimlari birma-bir elakdan o'tkazilib, ularning eng saralari qatag'on domiga tortilgan.

Biz ushbu maqolamizda ko'rilayotgan davrda sovet hokimiyatining jazolovchi idoralari tomonidan ta'qibga uchrab, so'ngra qatag'on qilingan oliy ta'lim fidoyilarining ayrimlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

SSSR MIQ va XKS tomonidan 1935-yil 29-dekabrda “ijtimoiy kelib chiqishi boshqa (yirik boy, savdogar, ruhoniylar, quloqlar, oq armiya ofitserlari, anarxiyachilar) bo'lgan va ular bilan aloqada bo'lgan shaxslarga qarshi kurashish, ularga nisbatan choralar ko'rish haqida” qaror qabul qilinadi [3.35]. Ushbu qaror maxfiy tarzda har bir tashkilot, muassasa, o'quv yurtlari, maktablar va turli idoralarga jo'natilib, uning joylarda bajarilishi nazorat ostiga olingan. Qarorga asoslanib, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, maktablarda professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar ortidan ta'qib kuchaytiriladi. Ushbu qarordan va uni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, birinchi navbatda, millat ma'naviy kamolotini yuksaltirishga qodir ziyolilarning yosh avlodga ta'sirini yo'qqa chiqarishga qaratilgan edi.

Ijtimoiy kelib chiqishi “begona” bo'lganlardan tozalash ishlari O'zbekistondagi barcha oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi. Bu qaror asosida 1935-1936-yillarda oliy ta'lim dargohlarida “tozalov” kompaniyasi amalga oshirilgan edi.

1937-1938-yillarda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan katta terror yoki “quloqlar” operatsiyasi jarayonidagi ommaviy qatag'onlar Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Karim Abdullaev, Otajon Hoshimov, Po'lat Majidovich Soliev, G'ozil Olim Yunusov, Jalil Baratov, Shorasul Zunnun, Nazrullo Inoyatov, Hikmat Fayzullaev kabi vatanparvar, millatparvar oliy ta'lim xodimlarining ham ko'pini qatag'on domiga tortdi. Shunday qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan jonkuyar pedagog, olimlardan biri Karim Abdullaev edi.

Abdullaev Karim, 1905-yili Sirdaryo oblasti Turkiston uyezdi Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan, o'zbek, ota-onalari qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan, o'ziga to'q dehqon bo'lgan, 1916-yili ota va onasi olamdan o'tgan. Akasi

qaramog'ida qolib, 1919 -1921-yili sovet qishloq maktabida o'qidi, 1919-yili komsomol safiga kirdi. 1921-yildan 1926-yilgacha Toshkent Maorif institutida tugatdi, 1926-yili Zarafshon oblast maorif bo'limiga jo'natildi. 1926-yil iyundan 1927-yil yanvargacha Buxoro qishloq xo'jalik texnikumiga direktorlik qildi. 1929-yilgacha shu idora apparatida ishladi, 1929-yildan xalq maorifi Komissarligida tashkiliy qism mudiri bo'lib, o'sha yil 1-noyabridan Farg'ona okrug xalq maorifi mudiri bo'lib xizmat qildi. 1937-yildan partiya a'zosi [4.58]. Okruglar tugatilgach, O'z Kompartiya Markaziy Komiteti qarori bilan Marg'ilon rayoniga yuborildi. Shahar partiya komiteti ijroiya byurosi a'zosi, madaniy-targ'ibot bo'lim boshlig'i, "Marg'ilon haqiqati" gazetasining muharriri bo'lib 1932-yil dekabriga qadar ishladi. Markaziy Komitet qarori bilan Samarqand davlat pedagogika akademiyasiga direktor, mazkur ilmiy muassasa O'zbekiston davlat universitetiga aylantirilgach, uning rektori qilib tayinlangan. 1935-yili O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti a'zosi bo'lib saylanadi, o'zbek, rus, qozoq tillarini yaxshi bilgan [4.58].

1935-yil 22-oktabrda O'zSSR Sog'liqni saqlash xalq komissari, 1937- yil 5-iyunida ishdan bo'shatiladi, partiyadan o'chiriladi, hibsga olinadi. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan 1938-yil 4-oktabrda otuvga hukm etiladi, hukm o'sha kunning o'zida ijro etiladi [4.59].

1938-yil 7-fevralda "uchlik"ning 68-sonli bayonnomasida 81 nafar mahbus otuvga, 45 mahbus 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Ular orasida tarixchi olim Soliev Po'lat Majidovich ham bor edi. U 1882-yil Astraxan guberniyasining Bashmakovki qishlog'ida tug'ilgan, sobiq quloqning o'g'li, ruhoni, 1917 yilda "Qo'qon" gazetasi muxbiri, hibsga olingan paytda O'zbekiston davlat universiteti O'rta Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi mudiri bo'lgan.

Talabalarni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalaganlikda, qator talabalarning xalq dushmaniga aylanishida, xalq dushmanlarini qo'llab-quvvatlaganlikda, shogirdlarini zararkunandalikka chorlaganlikda, ta'lim jarayonida marksizm-leninizm g'oyalarini targ'ib qilmaganlikda, aksilinqilobiy millatchilik ruhida yozilgan deb topilgan Cho'lpon asarlarini tashviq qilganlikda ayblangan [5.58] hamda otuv jazosi qo'llanilgan edi.

SSSR XKS va VKP(b) MKning 1936-yil 23-iyundagi qaroriga ko'ra mamlakatdagi barcha pedagogika oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakliga o'tdi [6.14]. Unga ko'ra, auditoriya mashg'ulotlarida talaba hamda pedagog faoliyatining uyg'unligini ta'minlash, darslarni ma'ruza hamda seminar, amaliy mashg'ulot ko'rinishida olib borishga ko'rsatma berildi. Biroq, milliy ziyolilar aksilinqilobchi, millatchi, troskiychi, panturkistpanislomist deya ta'lim muassasalaridan chetlashtirildi, ular yaratgan asarlar

ta'qiqlangan adabiyotlar ro'yxatiga kiritildi [6.14]. Bu esa oliy ta'limdan mustaqil fikrga ega bo'lgan malakali pedagog kadrlarning yo'qotilishiga, ta'lim sifatining yanada pasayishiga olib kelgan edi.

Andijon shahrining o'zida 1937-yil iyul-oktabr oylarida 28 nafar ziyoli, jumladan, Andijon kechki pedagogika instituti talabalaridan Burxon Mashrabi, Boqi Mahmudiylar ham qamoqqa olindilar. 1937-yil oktabridan 1938-yil 1-mayiga qadar 42 kishi partiyadan o'chirilib, ulardan 16 kishi xalq dushmani sifatida qatag'on qilindi. Ulardan biri 1937-yil mart oyidan Andijon kechki pedagogika institutining direktori bo'lib ishlab kelayotgan 32 yoshli Jalil Baratov edi. U 1905-yili hozirgi Qozog'istonning Uyg'ur tumani Kichik Oqsuv qishlog'ida tavallud topgan, millati uyg'ur, musulmon maktabida o'z savodini chiqargan. Jalil Baratovni jamoatchilik orasida badnom etish uchun "Qizil O'zbekiston" gazetasida tanqidiy maqola chop etilgan. U 1937-yil 25-oktabrda Andijon shahar partiya komitetining byurosida partiya safidan o'chiriladi, 9-noyabrda O'zSSR Xalq maorifi komissarligining buyrug'i bilan Andijon kechki pedagogika instituti direktori lavozimidan ozod etiladi [7.414].

1937-yil 27-noyabrda Respublika NKVDsining 3-bo'lim tezkor vakili Qosimov Jalil Baratov ishini ko'rib, unga uyg'urlarning sovetlarga qarshi millatchi josus tashkilotlarining rahbarlaridan, shu tashkilotning yashirin, aksilinqilobiy topshiriqlarini bajarishda faoliyat ko'rsatgan, boshqalar bilan birga Sinszyanda qurolli qo'zg'olon tayyorlashda qatnashgan, o'zining aksilinqilobiy faoliyati bilan hozirda qamoqda saqlanayotgan Burhon Qosimov, Abdulla Ro'ziboqiev bilan aloqada bo'lgan degan ayb qo'yilgan. Ayblov xulosasi respublika ichki ishlar xalq komissari Apresyan tomonidan 1937-yil 27-noyabr kuni tasdiqlangan. Jalil Baratovni hibsga olish, tergov qilish uchun respublika prokurori 1937-yil 1-dekabrda sanksiya bergan [8.37-38].

1937-yil 3-dekabrda 8/10-sonli orderga muvofiq Jalil Baratov Andijon shahar Sovetskaya ko'chasi 3-uydan hibsga olingan. Uyi tintuv qilinganida 602 varaqli har xil yozuvli materiallar, 9 ta surat, 10050-sonli kichik kalibrli miltiq, 3 ta bloknot olinadi. Jalil Baratovning cho'ntagidan 6 so'm 50 tiyin chiqadi. Oila a'zolaridan 25 yoshli xotini Nurxon, 4 yoshli o'g'li Erkin, 2 yoshli qizi Klara, 3 oylik o'g'li Marat bo'lgan. O'zbekiston SSR NKVDsi huzuridagi "uchlik" 1938-yil 3-noyabrda, hibsga olingandan roppa-rosa 11 oy o'tib, taqdim etilgan ayblov xulosasiga asoslanib Jalil Baratovni otuvga hukm qiladi. Hukm 1938-yil 17-noyabrda ijro etiladi [7.413]

O'zbekiston Davlat universitetida faoliyat ko'rsatgan qatag'on siyosatining qurboniga aylangan shaxslardan yana biri Inoyatov Nazrullo 1905-yil Toshkentda tug'ilgan. Oliy ma'lumotli, oilali, 2 nafar farzandi bo'lgan. N. Inoyatov 1927-yil Samarqanddagi Oliy pedagogika institutiga ishga keladi. Shu institut negizida

tashkil etilgan O‘zbekiston Davlat universiteti (hozirgi SamDU) pedagogika fakultetida dekan bo‘lib ishlaydi. Bu universitetda 1936-yilgacha ishlagan. N. Inoyatov 1936-yildan 1937-yilga qadar Toshkent kechki pedagogika institutida ishlaydi. 1930-yilda u “G‘ayratlilar” tashkiloti, “Narkompros ishi” bo‘yicha hibsga olingan edi [9.33].

1937-yil 9-avgust kuni Nazrullo Inoyatov O‘zbekiston SSR NKVD tomonidan “O‘zbekistondagi troskiychi–o‘ng og‘machi tashkilotida qatnashganlikda, 1924-yildan boshlab A.Ikromov jalb etgan ittihadchi tashkilotning faol a‘zosi bo‘lganlikda, ta‘lim sohasida millatchi, aksilinqilobiy tashkilotning topshirig‘ini bajarib kelganlikda” aybdor deb topilib, yana hibsga olinadi va NKVD ichki turmasiga olib kelinadi [10.95].

1937-yil 29-dekabrda O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 58-63-64-67 qismlari bilan aybdor deb topilgan Inoyatov Nazrulla sud hukmiga ko‘ra 1938-yil 5-oktabrda oliy jazoga hukm etiladi [10.96]. Hukm o‘sha kunning o‘zida ijro etilgan.

“Katta terror” siyosatining qurboni bo‘lgan yana bir oliy ta‘lim fidoyisi Fan komiteti huzuridagi til va adabiyot institutida dotsent bo‘lib ishlagan Ramazonov Qayum edi. U 1900-yili Toshkent shahri, Kallaxona mahallasida ziyoli oilasida tavallud topgan. Dastavval o‘z onasi Mastura Otin, ya‘ni Abduqodir A‘lam Rajabboyning qizi yordamida savodini chiqargan, 1909-1915-yillarda Eshonxo‘ja Xoniy va Munavvarqorining yangi usul maktabi hamda madrasada ta‘lim – tarbiya oladi, 1916-1917-yillarda Boku shahridagi pedagogika institutida o‘qiydi. O‘qishdan kelib, 1918-1921-yillarda o‘qituvchilar tayyorlash kursi va boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Fitrat bilan birga “Chig‘atoy gurungi”ni tashkil qilgan va unda kotib bo‘lib ishlagan. O‘lkadagi “Qizil bayroq” va “Turkiston” gazetalarida adabiy xodim bo‘lib ishlaydi.

1929-1930-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti qoshidagi Yangi o‘zbek alifbosi Markaziy qo‘mitasi a‘zosi, 1934 -1937-yillarda Fan komiteti huzuridagi til va adabiyot institutida dotsent bo‘lib ishlaydi. U teatr tanqidchisi sifatida “Abu Muslim”, “Uyg‘onish”, “Yalang‘och Eshon”, “Shayx Sanon”, “Farhod va Shirin”, “Malikai Turondot”, “Hujum”, “Halima”, “Kovai ohangar” spektakllariga taqriz yozgan. O‘zbek maktablari uchun dastlabki ona tili darsliklarini yaratgan, 1918-yili uning Fitrat va Sh.Raximiy bilan birga “Ona tili”, “Bilim yo‘llari”, “Yozuv yo‘llari” va to‘rt kitobdan iborat “O‘zbekcha til saboqligi” (Munavvarqori va Sh.Zunnun bilan hamkorlikda) kitoblarini nashr etgan. Shuningdek, u “Yer yuzidagi tillar orasida o‘zbek tili (1930)”, “O‘zbek tilining imlo qoidalari (1931)”, “O‘zbek tillining birlashgan imlo qoidasi (1934)”, “O‘zbek tili ish kitobi (Sh.Shamsiev bilan hamkorlikda)” muallifidir. Qayum

Ramazon o'zbek pedagogi, jurnalisti, teatr tanqidchisi, tilshunosi sifatida respublikada taniqli olim edi. Uning hayot yo'li va qismati sana'tshunos fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmadning 2005-yili Toshkentda nashr etilgan "Qayum Ramazonning ushalmagan armonlari" nomli risolasida batafsil hikoya qilingan.

SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktabrdagi yig'ilishida Ramazonov Qayum otuvga hukm etilgan, hukm o'sha kuni ijro etilgan [11.74-75].

Xullas, 1920-1930-yillarda O'zbekistonda mustabid tuzum boshlagan qatag'on, ommaviy qirg'inad ming-minglab begunoh kishilar qurbon qilindi, ko'plab oilalarning bo'linib ketishiga, kishilarning boshiga qator kulfatlarning yog'ilishiga olib keldi. Xususan, maorif va madaniyat sohasidagi xodimlar hurlik, ozodlik istaganlar, qalbi mustaqillikka intilgan ziyolilar turli jazolarga, azoblarga duchor qilindi, gulag lagerlarida mahbuslik zulmini tortdi yoki otib tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Эгамназаров А. Сургун. –Тошкент, 1999.
2. Муртазаева Х. ва б. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент, 2000.
3. Ўз МА, Р-34-фонд, 1-рўйхат, 14-иш.
4. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). –Тошкент: "Sharq", 2012.
5. Шамсутдинов Р., Курбонов Х., Расулов Ж., Эгамбердиев Ф., Бекимметов У. Қатағон қурбонлари (1938 йил февраль, сентябрь). Бешинчи китоб. –Тошкент: "Sharq", 2009.
6. Ўз МА, Р-94-фонд, 5-рўйхат, 3172-иш.
7. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шахид кетганлар. –Тошкент: "Sharq", 2001.
8. Маҳкамов А., Аббасов Ж. Қатағон қурбонининг набираси Андижонда // Водийнома – Андижон, 2022. №1(25).
9. РИСТДА, 62-фонд, 2-рўйхат, 2199-иш.
10. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида, 1925-1941 йй): Тар. фан. номзоди. дисс. –Тошкент, 2007.
11. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). –Тошкент: "Sharq", 2012.

TARIX

O'ZBEKISTONDA ELEKTRLASHTIRISH TARIXIDAN



N.D. Dadajonova,
Andijon davlat
universiteti
o'qituvchisi.

UO'K 230.25

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushi yillarida qurilgan elektr stansiyalar va ularni qurishda o'zbekistonliklar ko'rsatgan mehnat jasorati yoritilgan.

Аннотация: В статье описываются электростанции, построенные в Узбекской ССР в годы второй мировой войны и храбрость узбекистанцев при их строительстве.

Annotation: In the article discusses the power plants built in the Uzbek SSR during World War II and the labor courage of Uzbeks in their construction.

Kalit so'zlar: ikkinchi jahon urushi, SSSR, elektr energiyasi, elektrostansiya, issiqlik elektr stansiyalari, plenum, gidroenergiya, sanoat.

Ключевые слова: Вторая мировая война, СССР, электроэнергетика, электростанция, тепловые электростанции, пленум, гидроэнергетика, промышленность.

Key words: World War II, USSR, electric energy, power plant, thermal power plants, plenum, hydropower, industry.

Ikkinchi jahon urushining SSSR hududiga ko'chgan dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston SSRning urushgacha tinch maqsadlar uchun ishlayotgan sanoat korxonalari qisqa muddat ichida harbiy texnika, qurol-yarog' ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirildi. Urush yillarida O'zbekiston tom manoda front arsenaliga aylandi. Urushning boshlanishi sovet mamlakati xalq xo'jaligini front ehtiyojlarini ta'minlash uchun qayta qurishni talab etdi. Moddiy, moliyaviy va mehnat imkoniyatlarini urush manfaatlariga bo'ysundirish, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni keskin oshirish kabi masalalar asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan, juda qichqa fursatlarda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan iborat edi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda 1941-yilning oxirlariga kelib 300 ga yaqin zavod va fabrika front uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi[1.415].

Tadqiqotda ilmiy bilishning tarixiy-qiyosiy tahlil (comparative analysis), og'zaki tarix (oral history), dialektika va tarixiylik, muammoli-xronologik, tuzilmaviy-tizimli tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Shunday sharoitda birinchi navbatda turgan masala mudofaa sanoat korxonalarini zarur bo'lgan yoqilg'i, elektr quvvati va metal bilan ta'minlashdan

iborat bo'ldi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1941-yil 5-7-dekabrda bo'lib o'tgan V Plenumi respublika sanoatini harbiy izga solish sohasidagi ishlarga yakun yasadi [2.365]. Plenum kun tartibidagi asosiy masalalardan biri O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarini tezlik bilan ishga tushirish, front uchun zarur mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish bilan bog'liq masala ham muhokama qilindi va uni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga ko'ra tez fursatlarda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan hamma sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlaydigan energiya bazasini yaratish, o'sib borayotgan xalq xo'jaligining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish masalasi bosh vazifalardan biri qilib belgilandi.

Darhaqiqat, gidroenergiyaning boy zapaslaridan foydalangan hoda vujudga keltirilgan energetika bazasini kengaytirmay va mustahkamlamay turib, urush yillarida sanoatni harbiy izga ko'chirib, uning quvvatini oshirish mumkin emas edi.

Elektr stansiyalari qurish bo'yicha urushdan oldin katta tadbirlar amalga oshirilishiga va 1933-yildan 1941-yilgacha bo'lgan davr ichida elektr energiyasi ishlab chiqarish 5 marta ko'payganiga qaramay, urushga qadar bo'lgan davrning o'zida respublika xalq xo'jaligi elektr energiyaga jiddiy muhtoj edi[3.57]. Urushning dastlabki yilida SSSRning g'arbiy rayonlaridan O'zbekistonga ko'chirilgan yuzdan ortiq sanoat korxonalarini tezda tiklanishi va ishga tushirilishi, shuningdek, avvaldan ishlab kelayotgan korxonalarning kengaytirilishi tufayli 1942-yilga kelib energetika masalasi xalq xo'jaligida hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masala bo'lib qoldi. Elektr energiyaga bo'lgan jiddiy talab, elektr energiyasi tanqisligi ko'plab sanoat korxonalarining ishini og'ir ahvolga tushirib qo'ygan edi. Shuning uchun ham urushning dastlabki yillarida aholiga va front ahamiyatiga ega bo'lmagan korxonalarga beriladigan elektr energiyasini ancha kamaytirishga, hatto vaqtincha to'xtatib qo'yishga, bundan tashqari maishiy ehtiyojlar uchun sarflanadigan energiyani kesishga to'g'ri kelgan edi.

Urush yillarida respublikada elektrlashtirishni yuksaltirish – eng muhim xalq xo'jalik vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Hidrostansiyalar qurish ishiga shahar mehnatkashlari va kolxozchilar hashar yo'li bilan jalb etildi. 1941-1945-yillar oralig'ida O'zbekiston SSR da 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar ishga tushirildi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning ko'payishi faqat yangi qudratli elektr stansiyalarining ishga tushirilishi hisobigagina bo'lmay, shu bilan birga ilgari ishlab kelayotgan stansiyalarning ishlarini yaxshilash hisobiga ham amalga oshirildi. Urush yillarida belgilangan bir kilovatt quvvatga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish deyarlik 1,5 marta oshdi. Elektr energiyasi 1940-yilga

qaraganda 1943-yilda 3,5 baravarga oshdi, 1945-yilda esa 1187 million kilovatt soatga ko'paydi[1.415].

Elektr energiyasi ishlab chiqarishni oshirish barobarida, yoqilg'i va xom-ashyo bazalarini rivojlantirish masalalariga ham katta e'tibor berildi. 1942-yilning boshlarida Oqtepa va Oqqavoqdagi 1-son va 3-son gidrostansiyalar qurilishi qayta tiklandi[3.59].

1942-yil 18-noyabrda VKP(b) MQ va SSSR Xalq Komissarlar Soveti hamda Davlat Mudofaa Qo'mitasi O'zbekiston SSRda beshta gidroelektrostansiya va Bekobod metallurgiya zavodini qurish to'g'risida qaror qabul qildi [4.62].


1942-yil noyabrgacha Chirchiq, Toshkent energetika tizimlarining qishki quvvatini 160-170 ming kilovattga yetkazish, 4-5 oy ichida Toshkent shahri yonida 60-70 ming kilovatt elektr energiya bera oladigan issiqlik elektr stansiyasini qurish, bu stansiyalarni mahalliy ko'mir asosida ishlatish tadbirlari ilgari surilgan edi. Respublikada metall-ko'mir va neft qazib chiqarishni ko'paytirish tadbirlari belgilandi. Bu ehtiyojlar uchun bir milliard so'm kapital mablag' ajratildi. Ushbu dasturni amaliy bajarishga doir bir qancha tadbirlar belgilandi va Solar, 1 – Quyi Bo'zsuv (birinchi navbatini), 2 – Oqqovoq (ikkinchi navbatini) va Farhod GESlarini qurish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining VIII Plenumi "Farhodstroy" qurilishining 1943-yil kuzgi reja topshiriqlarini bajarishga yordam ko'rsatish tadbirlari to'g'risidagi masalani muhokama qilib, qurilish sur'atlarini oshirish masalasini qo'ydi, barcha hukumat idoralariga gidroelektr stansiya qurilishiga har tomonlama yordam berish, uni ishchi kuchlari va zarur materiallar bilan ta'minlashni topshirdi.

Farhod GES qurilishiga respublikaning o'zida 8 ming kubometr dan ko'proq yog'och va boshqa binokorlik materiallari, 800 tonna metall, 110 mingdan ortiq har xil asbob-uskuna, transport vositalari topilib ishga solindi. Bundan tashqari, respublika mehnatkashlari bu umumxalq qurilishiga 300 vagondan ko'proq har xil qurilish materiallari yubordilar. Ko'rilgan tadbirlar, Farhod GES ishchilarining qahramonona shijoati va mehnati tufayli Sirdaryoni jilovlash juda qisqa muddatda - 10 oyda amalga oshirildi, holbuki odatda bunday ishlar 2-3 yilga cho'zilardi. Farhod GESni bunyod etish umumxalq hashar yo'li bilan boshlab yuborildi. Farhod GES qurilishida Andijon oblast yoshlaridan 5000 kishi faol mehnat qildi[5.8]. Toshkent oblastidan esa bu GES qurilishiga 11 000 kolxozchi [6.52], Buxoro oblasti mehnatkashlaridan 10600 kishi qatnashdilar[7.64]. Farhod GESining qurilishida Qorako'l, Vobkent, Romiton, Karmana va Kogon rayoni vakillari faol mehnat qildilar. Farhod GESi qurilishida

Namangan oblastidan 9500 kishi qatnashdilar[7.149]. GESi qurilishida 1943-yilning yanvar-noyabr oylarida chustliklardan 1655 kishilik 18 brigada qatnashdi. Shular orasida M.Saidova boshliq 30 nafar qiz-juvonlar ham bor edi. Chust tumanidan Farhod GESi qurilishiga borgan M.Mo'ydinov guruhi kunlik topshiriqlarni 700-800 foizga bajardilar. 24 kishilik M.Ustaboev bosh bo'lgan guruh esa kunlik vazifalarini 500-600 foizga yetkazib bajarishdi. 1943-yilning mart oyida Farhod GESi qurilishining Chust uchastkasidagi kolxozchilar eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishganliklari uchun qurilishning ko'chma "Qizil Bayrog'i"ni ham olish sharafiga muyassar bo'lishdi[8.108].

BumroHETK-100yil



Elektrostansiyaning qurilishi_1933-34 yillar

O'zbek xalqi urushning mashaqqatli yillari bo'lishiga qaramay Sirdaryoda 136 kvv toat quvvatga ega bo'lgan O'rta Osiyoda eng katta to'rt agregatli Farhod GESini qurishga kirishgandi. 1943-yili boshlangan Farhod GES qurilishi ikkinchi jahon urushi tugagandan kegin ham davom etgan. Farhod GESining ikki agregati (birinchi navbat) 1946-yilning fevral oyida ishga tushgan. GESning qurilishda mahalliy aholidan tashqari yapon harbiy asirlari ham jalb etildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan Farhod GES qurilishida jonbozlik ko'rsatgani va qahramonona mehnati uchun 500 kishi Ittifoqning orden va medallari bilan mukofotlandi[9.467].

Farhod GESining qurilib ishga tushirilishi kimyo sanoatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi, boshqa bir qancha korxonalarni ham elektr energiyasi bilan ta'minlash ishlarini ancha yaxshiladi va ko'mir sanoati hamda rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirish uchun turtki bo'ldi. Farhod GESining qurilishi Mirzacho'l yerlarini oqin suv bilan sug'orish imkonini ham berdiki, bu O'zbekiston hamda Qozog'istonning Mirzacho'l va Dalvarzin cho'llaridagi 600 gektar hosildor yerlarni o'zlashtirishga imkon berdi[10.101].

1942-yil 5 ta, 1944-yili esa 4 ta gidroelektr stansiya qurilishi mo'ljallandi. 1944-1945-yillarda Tovoqsoy, Oqtapa, Oqqovoq, Qibray, Solar, Quyi Bo'zsuv, Namangan va boshqa gidroelektrostansiyalar kaskadlari qurilib ishga tushirildi, natijada O'zbekistonda elektr energiya hosil qilish 1940-yildagi 482 mln.kv soatdan 1945-yilda 1.187 mln. kv soatga ko'paydi[5.9].

Urush yillari ichida 7 ta yangi elektr stansiya (Tovoqsoy, Oqtapa, Oqqovoq, Qibray, Solar, Quyi Bo'zsuv) qurilib, ishga solindi. Bundan tashqari, yana 10 ta yangi elektr stansiya qurila boshlandi[11.16]. Urush yillarida O'zbekiston hukumati kolxoz gidroelektr stansiyalari qurish masalasiga ham jiddiy e'tibor berdi. 1943-yilning o'zida kolxozlarda 20 dan ortiq gidroelektr stansiya ishga tushirildi. Ularning har biri 15 kilovattidan-50 kilovattga qadar elektr quvvatiga ega edi[12.45-47].

Urush yillarida O'zbekistonda qurilgan yangi elektr stansiyalar o'nlab yangi sanoat korxonalarini yurgizib yubordi, o'n minglab gektar yangi yerlarda mahsuldor yangi vohalar vujudga keldi, aholi uylariga ham kirib borib ularni yoritdi.

Respublikada urush yillarida qurilgan elektr stansiyalar qurilishi va faoliyatini boshlashiga oid ma'lumotlar ikkinchi jahon urushi frontlarida o'zbek tilida chop etilgan front gazetalarida sahifalaridagi xabarlar va maqolalarda ham yoritib borilgan.

Shimoliy-g'arbiy front, keyinchalik uchinchi Boltiqbo'yi frontida harbiylar uchun o'zbek tilida 1942-yil 29-oktabrdan chiqa boshlagan "Vatan uchun" gazetasining 1945-yil 14-sentabr 17(330)-sonida A.Vaynermanning "O'zbekistonni elektrlashtirish" sarlavhasi ostida berilgan maqolasida elektr stansiyalar qurilishi haqida shunday ma'lumotlar keltirilgan: O'zbekistonda elektr stansiyalari qurilishi respublikani yuksak industriya va mexanikalashtirilgan qishloq xo'jaligi mamlakatiga aylantirishning asosiy faktorlaridan biridir. Elektr stansiya inshootlari qurilishining asosiy ishini Toshkentdagi "Chirchiqstroy" tresti bajarib keladi. Trest boshlig'i, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi A.N. Askochenskiy bunday deydi: - Trestimizga uyushgan quruvchilar va montajchilar kollektivi O'zbekistonda 7 ta yirik gidrostansiya qurdilar. Bulardan

5 tasi urush yillarida qurilib, Toshkent rayonidagi kuchli mudofaa sanoatini elektr quvvati bilan ta'minladi[13.103].

Hozirgi vaqtda trest 10 ta yangi gidrostansiya qurmoqda. Bular ichida Farhod GES ham bo'lib, u o'zining kuchliligi jihatidan Ittifoqdagi katta gidrostansiyalar orasida uchinchi o'rinni tutadi. Bo'zsuv kanalida ilgari qurilgan gidrostansiyalardan tashqari yana 5 ta stansiya quriladi va 2 tasi loyiha qilinmoqda. Shunday qilib, Chirchiq to'g'onidan Chinozgacha cho'zilgan 150 kilometrlik kanalda birin-ketin 15 ta gidrostansiya qator bo'lib joylashadi. Keyinchalik bu qatorga yana bir necha gidrostansiya qurish imkoni bo'ladi[13.103].

Hozir yangi katta gidrotexnika inshootlarining loyihalari ishlanmoqda. Bulardan ikkitasini misol keltirsak, bittasi Sirdaryoda quriladigan Qayroqqum suv omboridir. Bu 5-6 milliard kubometrlik inshoot Mirzacho'lning anchagina qismini sug'orishga va Sirdaryoning pastki tomonida yana 80 ming kilovattlik kuchga ega bo'lgan gidrostansiya barpo qilishga imkoniyat tug'diradi. Undan keyin Norin daryosida 130 ming kilovatt kuchga ega bo'lgan qator gidrostansiyalar quradilar.

O'zbekistonni elektrlashtirishda o'zbek xalqi katta g'ayrat bilan ishlamoqda, Toshkent oblastining mehnatkashlari Salar GES va Quyi Bo'zsuv elektr stansiyalarini qurdilar. "Chirchiqstroy" tresti kollektivi Oqqavoq 1 va Salor stansiyalarini juda tez muddatda, ya'ni bir yil ichida qurdi. Elektr stansiyalarini jadal usulda qurish metodlari Farhod qurilishida va hamma yerda qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda yirik gidrostansiyalardan tashqari sanoat, rayon va qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan ko'plab 100 ta kichik elektr stansiya qurib oldilar va bu yil yana 300 stansiya quradilar. O'zbek xalqi yirik, o'rta va kichik elektr stansiyalar qurilishini amalga oshirish bilan respublikaning qishloq xo'jaligi va sanoatini qisqa muddatda elektrlashtiradi hamda xo'jaligimiz va madaniyatimizning yanada gullashini ta'minlaydi[13.103-104].

SSSR Yer Ishlari Xalq Komissarligi 1945-yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSRda qishloq elektr stansiyalari qurish rejasini tasdiqladi. Rejaga ko'ra 1945-yilda 222 ta kichik gidroelektr stansiya qurib bitkazilish vazifasi qo'yilgan. Umumiy quvvati 1.360 kilovattlik 68 ta kichik gidroelektr stansiya qurilib ishga tushiriladi. Bundan tashqari, 8 ta issiqlik elektr stansiya ham quvvat bera boshlashi belgilangan. Rejada O'zbekiston qishloqlarini elektrlashtirish uchun shu yil elektromontyorlar va slesar-montajchilar tayyorlaydigan FZT maktabini ochish, unga 150 kishini qabul qilish mo'ljallangan[14.294].

Xullas, ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning sanoat arsenaliga aylanishi hamda sanoatning rivojlanishida, respublikamizda elektr energiyasi

ishlab chiqarishni oshirish maqsadida barpo etilgan elektr stansiyalarining ulushi katta bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи, II жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2015.
2. Ўзбекистон коммунистик партияси тарихининг очерклари. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1964.
3. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. –Ташкент, 1966.
4. Ўз ПАА 58-фонд, 19-рўйхат, 86-иш.
5. Пўлатов И. Улуғ ватан уруши ғалабасига Ўзбекистон меҳнаткашларининг қўшган ҳиссаси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1967.
6. Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 2145-иш.
7. Мирзакулов Б. Бухоро вилояти уруш йилларида (1941-1945). – Тошкент, 2020.
8. Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи.-Чуст: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995.
9. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). –Андижон: “Andijon” nashriyoti, 2004.
10. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. – Тошкент: “Фан”, 1974.
11. Воскобойников Э.А. Ўзбек халқи улуғ ватан уруши йилларида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1947.
12. Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3456-иш.
13. Шамсутдинов Р.Т. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Биринчи китоб. –Тошкент: “Akademnashr”, 2017.
14. “Ватан учун”, 1945 йил 25 сентябрь, №20(333); Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари.Тўртинчи китоб. – Тошкент: “Akademnashr”, 2020.

FILOLOGIYA**MAQOLLAR – XALQ DONOLIGI VA TAFAKKURI MAHSULI**

**Anvar
ALLAMBERGENOV,**

**O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori**

UO‘K 230.25

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo‘lmish maqollar haqida so‘z boradi. Maqollarning umumiy tavsifi, ular tashidigan ma‘no, mavzu xilma-xilligi haqida qisqacha to‘xtalinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются пословицы - один из поджанров устного фольклора. Дается краткое обсуждение общей характеристики пословиц, их смысла и разнообразия тем.

Annotation: This article discusses proverbs, one of the subgenres of folk oral literature. The general description of proverbs, the meaning they convey, and the diversity of topics are briefly discussed.

Kalit so‘zlar: Maqollar, tafakkur, xalq donoligi, xususiyat, mavzu ko‘lami, mundarija, xulosa.

Ключевые слова: Пословицы, мысль, народная мудрость, характеристика, объем темы, содержание, заключение.

Key words: Proverbs, thinking, folk wisdom, characteristics, scope of the topic, content, conclusion.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo‘lishiga qaramasdan katta ma‘no tashish xususiyatiga ega. Ular qisqalik, lo‘ndalik, qofiyadoshlik xususiyatlariga, qolaversa, muayyan aniq shakl va chuqur ma‘no-mazmunga ega. Maqollarda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan boy hayotiy tajriba, tabiat va jamiyatga munosabat, umuminsoniy va milliy qadriyatlar mujassamlashgan, ular sayqallanib, ixcham va sodda shaklda bugunga qadar yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biridir. “Maqollar so‘z san‘ati mahsuli sifatida o‘z ma‘nosida, ko‘chma ma‘noda va har ikkala ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Ammo maqollarni o‘xshatishlar bilan o‘zgartirib qo‘llasak, odatda, ular o‘z maqollik xususiyatini yo‘qotadi.” Maqollar matal, naql, hikmatli so‘z, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi nomlari bilan ham yuritilgan va ular ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Asrlar mobaynida og‘zaki nutqda keng va faol qo‘llanilib kelayotgan maqollarda qoyfiyadosh so‘zlar faol ishlatilishi bilan ham inson xotirasida o‘rnashib qolishi oson kechadi. Bu esa janrning umrboqiyiligini ta‘minlovchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, maqollardagi ma‘no, mazmun va hayotiy haqiqat insonlarga taskin, yupanch va hayot maydonidagi

kurashlarda mislsiz ma'naviy kuch, ruhiy quvvat beruvchi ta'sirga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Qisqa so'zlarga olam-olam ma'no to'yintirilganligi, ixcham va lo'ndaligi bilan ham o'zigaxoslik kasb etadi. O'rni qo'llanilgan maqollar yetkazilayotgan fikrning ta'sirchanligini oshiradi. Bu holat ko'pincha improvizatsiya natijasi o'laroq nutqda voqelansa, badiiy adabiyotda, ya'ni yozma adabiyotda ijodkorning ijodiy maqsadidan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.




“Maqol – og‘zaki ijodning eng faol janri. Xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo‘q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o‘lchab bo‘lmaydi. Maishiy hayotda kichik bir e‘tiborga arzimaydigandek ko‘rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o‘z aksini topgan.” Inson umri davomida har xil holatga, kayfiyatga, vaziyatga tushishi tabiiy. Ana shunday hollarda maqollarni o‘z ma‘nosida ham, ko‘chma ma‘noda ham qo‘llab, insonni salbiy holatlarga sabr qilishga, umidini yo‘qotmaslikka, har qanday holatni ham yaxshi tomonini ko‘rishga yoki yaxshilikka deb bilishga

chaqirsa, hamma narsa o‘z yo‘lida bo‘lgan, hatto undan-da yaxshiroq holat, insonning ishlari ko‘ngildagidek bo‘lib, o‘ylaganidan ham a‘lo natijalarga erishib, haddidan oshib ketmaslik, har qanday vaziyatda o‘zligini unutmaslik, agar shunday holatlar yuz bergan taqdirda ham o‘zlikka qaytishga chaqirib turadigan ma‘no-mazmundagi maqollar ham talaygina.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining naqadar boyligini, uning nechog‘lik salmoqdor ekanligini birgina maqol janri misolida ko‘rishimiz mumkin. So‘zimizni inson hayotidagi har qanday kechinma, holat, harakat, vaziyat, kayfiyat kabi turli xil tuyg‘ular uchun mos maqol bilan davom ettirsak: “Borning ishi farmon bilan, yo‘qning ishi armon bilan”. Maqoldagi bor va yo‘q kabi zid ma‘noli so‘zlar, farmon va armon kabi qofiyadosh so‘zlar maqolning xotirada saqlanib qolishi uchun bir omil bo‘lsa, undagi ma‘no va mazmun, maqoldan chiqariladigan xulosalarni keyingi omillar sifatida baholashimiz mumkin.

Maqoldagi bor soʻzini shartli ravishda boy deb tushunsak boʻladi. Boy odamning imkonlari faqir, kambagʻal, yoʻqsil odamnikiga qaragada kengroq va koʻproq boʻladi. Shu boisdan boyning hohish va istaklari moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda “farmon” bilan tezlikda amalga oshishi, yoʻqning, yaʼni yoʻqsil odamning ishi, orzu va istaklari qoʻli kaltalik, imkonsizlik, faqirlik oqibatida juda koʻp hollarda armon bilan yakun topishi nazarda tutilyapti. Farmon bu ijrosi bajarilishi shart boʻlgan buyruq, topshiriq, hukm, amr hisoblansa, armon esa, koʻngilga tugilgan, ammo ushalmagan va endi ushalmaydigan orzu, istak, maqsad hisoblanadi.



Xuddi shu kabi sanʼatkorona aytilgan, soʻzning qudratini, haybatini, xususiyatlarini koʻrsatuvchi quyidagi maqolga eʼtibor qaratsak.

Yaxshi soʻz jon ozigʻi,
Yomon soʻz bosh qozigʻi.

Bu maqol tuzilishi jihatdan oldingi maqol kabi zid maʼnoli va qofiyadosh soʻzlarga ega. Mazmuni haqida qisqacha toʻxtaladigan boʻlsak, odatda insonning joni yegulik bilan oziqlanadi. Ammo bu maqolda soʻz, boʻlganda ham yaxshi soʻz alohida urgʻu bilan aytilyapti. Yaxshi soʻz bilan inson ruhining oziqlanishi, kayfiyatining ijobiy tomonga oʻzgarishi, maʼnan oʻsishi, komillik sari yuz tutishi tabiiy. Yomon soʻzning natijasi yuqorida sanalganlarning

ziddiga va undan ham tubanroq oqibatlarga olib boradi.

Folklorshunoslikda maqollar mavzu jihatidan tasniflanganda ularni 30 ga yaqin guruhga ajratish va koʻpaytirish ham, kamaytirish ham mumkinligi aytilgan. Maqollar oʻz maʼnosida hamda koʻchma maʼnoda ham qoʻllaniladi. Koʻchma maʼnoda qoʻllaniladigan maqollarga “Bir balosi boʻlmasa, shudgorda quyruq na qilur”, “Shamol boʻlmasa, daraxtning uchi qimirlamas”, “It hurar, karvon oʻtar” kabilar kiradi. Oʻz maʼnosida qoʻllaniladigan maqollarga ham talay misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, “Ish quroling soz boʻlsa, mashaqqating oz boʻlar”, “Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar”, “Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar” kabi. “Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki maʼlum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tugʻiladigan

xulosaning ahloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi. Aytaylik, jahondagi barcha xalqlarda ham yashamoqning asosiy sharti yemoq va kiymoq bo‘lib, uning moddiy negizi ekin ekish va undan mo‘l-ko‘l hosil olgan holda ham moddiy, ham ma’naviy imkoniyatlarini ta’minlashdir. Ekin ekish uchun yerni qay vaqtda shudgor qilish uning unimdorligini oshiradi? Bu savolning javobi necha asrlik dehqonchilik tajribasining ahloqiy xulosasi sifatida “Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” degan maqol bilan ifodalangan.

Maqollar zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib, insonlarning turmush tutumlariga mos ravishda yangi maqollar xalqning hayotiy tajribalari xulosasi sifatida yuzaga keladi, ba’zi maqollar esa vaqtlar o‘tishi, sharoitlar o‘zgarishi natijasida o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Umumiy tazrda aytadigan bo‘lsak, inson kamoloti yo‘lida maqol g‘oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Mirzayev va boshqalar. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005-yil.
2. T.Mirzayev va boshqalar. O‘zbek folklori “Malik print co” nashriyoti Toshkent, 2021-yil.
3. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati. Toshkent, “Fan”. 2006-yil
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Musiqqa”. 2010-yil.

FILOLOGIYA**SHUKRULLO LIRIKASIGA XOS POETIK OBRAZLAR****Saida Kurbanova,**

**Abu Rayhon
Beruniy nomidagi
Urganch davlat
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari
nomzodi**

UO‘K 82-14

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Shukrullo lirikasida ko‘p uchraydigan poetik obrazlar tahlil etiladi. Shoir borliqdagi u yoki bu faktdan kelib chiqib, poetik fikr va g‘oyani obraz darajasiga chiqaradi. Hayotiy voqealar va faktlar esa falsafiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.*

Аннотация: *В статье анализируются поэтические образы, распространенные в лирике Шукрулло. Поэт, основываясь на том или ином факте бытия, возводит поэтическую мысль и идею на уровень образа. Жизненные события и факты служат инструментом философского мышления.*

Annotation: *The article analyzes poetic images common in Shukrullo's lyrics. The poet, based on one or another fact of existence, elevates poetic thought and idea to the level of an image. Life events and facts serve as a tool for philosophical thinking.*

Kalit so‘zlar: *Shukrullo, she’riyat, poetik obraz, metafora, assotsiativlik, ramz, ijtimoiylik.*

Ключевые слова: *Шукрулло, поэзия, поэтический образ, метафора, ассоциативность, символ, социальность*

Key words: *Shukrullo, poetry, poetic image, metaphor, associativity, symbol, sociality*

Shoir dunyoni badiiy obraz vositasi bilan o‘z ijodida qaytadan yaratadi. Badiiy obraz metafora, assotsiativ obrazlilik, ramziylik, ko‘p ma’noliligi bilan belgilanadi. Zero, bu haqda “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday deyiladi: “Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning ko‘p ma’noliligi bo‘lib, bu uning metaforikligi va assotsiativligi bilan belgilanadi. Badiiy obrazga xos “metaforiklik”ni “o‘xshashlik” bilangina bog‘lab qo‘ymaslik lozim. Ya’ni “metaforiklik” deganda, badiiy obrazning san’atga xos fikrlash yo‘sini tushuniladi. Chinakam san’atkor nigohi mohiyatga qaratiladi, u narsa-hodisalar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlikka tayanib fikrlaydi, biz kutmagan ichki o‘xshashlikni kashf etadi, natijada, o‘sha biz bilgan narsa-hodisa ko‘z oldimizda butkul yangicha bir tarzda gavdalanadi, o‘zining bizga noayon qirralarini namoyon qiladi” [4: 46].

Shukrullo lirikasida ham kutilmagan, o‘ziga xos poetik obrazlar uchraydi. Jumladan, shoir she’riyatida *turna, simyog‘och, momaqaldiraq, shoir, daraxt,*

yaproq, bog‘, yo‘lovchi, chinor, tol obrazlari tez-tez uchraydi. Bu obrazlar shoir lirikasida ko‘p qatlamli, ko‘p ma’noli, metaforik obraz sifatida ishtirok etadi.



Shukrullo she'riyatidagi poetik obrazlarning o'ziga xosligi ular anglatgan ma'no mohiyatidan kelib chiqadi. Chunki poetik timsol va obrazlar zohiriy va botiniy ma'no kasb etib, so'zning timsolli ma'no qirralari she'rning falsafiy, badiiy-estetik ta'sir quvvatini oshirishga xizmat etadi. Demak, ijodkorning badiiy tafakkuri va ijodiy individualligi bilan bog'liqlikda yuzaga chiqadigan mazkur hodisa har bir shoir lirikasining obrazlar tizimini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, Shukrullo she'riyatidagi aksariyat ma'nodor poetik obraz va timsollar zimmasiga ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-falsafiy mazmun yuklanadi.

Xususan, shoirning “Nafrat” nomli she’rida *turna* va *simyog‘och* poetik obrazlari erk,ozodlik hamda tutqunlik ramzining badiiy ifodasidir:

Ko‘kda qator-qator turnalar uchmoqda,
Ular faryodin tinglaydi osmon.
Pastda qator-qator simyog‘ochlar jim,
Qo‘llari bog‘langan asrlarsimon.
Ko‘kda qo‘shiq,
Yerda faryod!..
Qayga uchayotir turnalar... [2: 59]

Bu she’rda lirik qahramonning erksizlikka va tutqunlikka qarshi nafrati ifodalangan. Shukrulloning ikkinchi bir she’rida esa *momaqalldiroq* va *shoir* poetik obrazlari orqali haqiqatni aytishga shaylangan haqiqatparast, adolatparvar ijodkor obrazi badiiy poetiklashtiriladi:

Ko‘kka bulut chiqdi, momaqalldiroq
Dardin aytmochiday soldi gulduros.
Birdan qovoq soldi shoir ham shu choq,
Bir gap demoqchiday olamga ro‘y-rost.

Ko'zyoshdek yumalab to'xtadi yomg'ir,
Qayta quyosh chiqib yashnadi dunyo.
Ochiq chehra bilan boqdi atrofga shoir,
Olam bo'lsa, derdi, shunday musaffo [2: 65].

She'ring ikkinchi bandida yomg'ir yog'ishi to'xtagach, olamning musaffo bo'lishi tasviri shoir yuragidagi jamiyatni, hayotni ana shunday musaffo va toza, farahbaxsh ko'rish istagining badiiy ifodasidir. Shoir she'riyatida ustoz Usmon Nosir lirikasida ko'p qo'llanilgan o'ziga xos poetik obrazlar ham uchraydi. Masalan, quyidagi she'rdagi *bog'*, *to'kilgan yaproq*, *yo'lovchi* poetik obrazlari Usmon Nosir lirikasidagi timsollarni beixtiyor eslatib yuboradi:

Chirt-chirt uziladi bog'larda yaproq,
Daraxtlar yuk tashlab, tortibdi yengil.
Maysalar ichida suvlar qo'ng'iroq,
Bir orom kayfida yayraydi ko'ngil.

Tevarak bog'larda to'kilur yaproq,
Mevali daraxtlar tiklaydi qaddin.
Daraxtlar gerdaysa haqqi bor, biroq,
Yo'lovchi, sening-chi, bormikan hadding? [2: 117].

Yana bir she'rda shoirning badiiy-estetik niyatini yuzaga chiqarishda chinor obrazi yordamga keladi. Unda qurigan chinor obrazi bilan inson umri qiyos etilar ekan, bu kontrast manzara orqali yuzaga chiqqan estetik xulosa o'zining go'zal poetik ifodasi, falsafiy mazmuni bilan ham ibrat, ham emotsional ta'sir kuchiga ega bo'ladi:

Chinorning shoxlari quriy boshladi,
Shunday qo'l-oyoqdan ketarkan quvvat.
Kuz yetib sarg'ayib yaproq tashladi,
To'kilgandek bo'lar sochlarim shu vaqt.

Bo'ronlar silkitar, chaqinlar chaqar,
Ammo bukilmasdan turar qomati.
Shu chinor ildizin quvvatini ber,
O'zing keksalikning bergin omadin [3: 39].

Ushbu she'rda tabiat asosiy tasvir obyekti sifatida namoyon bo'lmay, u lirik qahramon psixologik holatining va manzaralar mazmunining obrazli ifodasi uchun xizmat qilgan. Lirik qahramon kuz manzarasida o'z hayotining ma'nosini ko'radi, u fasllar almashinuvida hayot va tiriklik mohiyatini anglaydi. She'rdagi chinor shoxlarining quriy boshlashi, kuzda ularning sariq yaproqlarini to'kish

manzarasi inson umrining chegarali ekanligini anglatuvchi chuqur badiiy mazmun kasb etadi.

Shukrullo badiiy mahorati, lirikasi badiiy-estetik ta'sir kuchining o'ziga xosligi shundan iboratki, birinchidan, ijodkor aksariyat hollarda o'quvchisini tushkunlikka tushirmaydi, balki uni qisqa umrni qadrlashga, hayotini go'zal yashashga chorlaydi, ikkinchidan, shoirning lirik qahramoni ham hayotning beshafqatligi, umrning o'tkinchiligi oldida esankirab qolmaydi va dramatik kechinmalarga berilmaydi. Ijodkorning inson umri, tiriklik talqiniga oid istalgan bir she'rini olib qarasak, uning lirik qahramoni o'tgan umriga mamnuniyat va shukronalik bilan boqadi va uning qalb amrida hayotni mazmunli o'tkazish, umr mohiyatini yaxshilik, ezgulik, fidoyilik bilan bezash orqali mangulik yaratish mumkinligi aks etadi. Xususan, shoirning lirik qahramoni:

Chinorning to'kildi so'nggi yaprog'i,

Qissaning yopildi go'yo varag'i.

Chinor mag'rur boqar umridan mamnun,

Xuddi men o'ylagan xazon fasli bu [2: 114] – der ekan, u atrofga mag'rur boqqan chinor umrida o'zining ibratli hayot yo'lini, sermazmun umrini ko'radi. Zero, she'rdagi chinorning oxirgi yaprog'i to'kilsa-da, u o'zining o'tgan umriga mamnuniyat bilan boqadi. She'r pafosini ta'minlagan mana shu mamnuniyat hissi chinor umrining besamar o'tmaganligini, uning qanchadan-qancha odamlarga nafi tekkanligini anglatib turadi. Ko'rinadiki, Shukrulloning badiiy obrazlarida assotsiativlik mavjud bo'lib, shoir borliqdagi u yoki bu faktdan kelib chiqib, poetik fikr va g'oyani obraz darajasiga chiqaradi. Hayotiy voqealar va faktlar esa falsafiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.



Akademik B.Nazarov

o'zining “She'rlari – oq to'shli qaldirg'och” maqolasida Shukrullo she'riyatiga to'xtalib, shunday yozadi: “60-70-yillardan e'tiboran Shukrullo poeziyasida – zamon va zamondoshimizda, vatan va vatandoshimiz hayotida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlarini inson qalbi kechinmalari orqali

kuylash tendensiyasining yangi bosqichga ko'tarilganini ko'ramiz. Bu jarayon, ayniqsa, “Inson va yaxshilik”, “Inson - inson uchun”, “Yulduzlar”, “Suyanchiq”, “Yashagim keladi” nomli she'riy to'plamlaridagi asarlarida yorqin namoyon bo'ladi. Shukrullo she'rlarida falsafiy tamoyil muayyanlashadi” [1: 105].

Darhaqiqat, Shukrullo lirikasida individual poetik obraz darajasiga ko'tarilgan inson, hayot, umr, yaxshilik kabi obrazlar ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etib, bu, birinchi navbatda, ijodkorning yuksak poetik mahoratidan dalolat bersa, ikkinchidan, shoir she'riyatida olam va odam psixologiyasi, inson va jamiyat konsepsiyasi tadrijini kuzatish imkonini yuzaga chiqaradi.

Shukrullo lirikasidagi asosiy poetik obrazlar tabiatdan va real hayotdan olingan bo'lib, shoir badiiy-estetik maqsadini poetik shaklda tasvirlar ekan, o'zining falsafiy-estetik mushohadalarini tabiat hodisalariga, tabiat detallariga bot-bot murojaat etish orqali ifoda etadi.

Ijodkor she'riyatidagi poetik obrazlarda assotsiativlik mavjud bo'lib, shoir borliqdagi u yoki bu faktdan kelib chiqib, poetik fikr va g'oyani obraz darajasiga chiqaradi. Tabiat, tabiat hodisalari, borliq faktlari esa falsafiy-badiiy mushohada uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Shukrullo tabiat xossalari va detallarida inson umrining, taqdirining mazmunini xarakterlovchi turli belgi-xususiyatlarni topadi, majoziylik asosiga qurilgan bunday badiiy tafakkur shoir she'rlaridagi teran obrazlilikni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2016.
2. Шукрулло. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: “Шарқ”, 2009.
3. Шукрулло. Шафақ. – Тошкент: “Академнашр”, 2021.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Академнашр”, 2010.

FILOLOGIYA

ADABIYOT JARCHISI VA JANGCHISI

(yoki Ibrohim Haqqulning ilmdagi yo‘li qanday edi?)



**Ulug‘bek
HAMDAM,**

**O‘zRFA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti yetakchi
ilmiy xodimi,
filologiya fanlari
doktori, professor**

(Filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqulning “Uvaysiy she’riyati” (1982), “Badiiy so‘z shukhi” (1987), “Zanjirband sher qoshida” (1989), “She’riyat – ruhiy munosabat” (1989), “Abadiyat farzandlari” (1990), “Kamol et kasbkim...” (1991), “Tasavvuf va she’riyat” (1991), “G‘azal gulshani” (Adabiy suhbatlar, 1991), “Xoja Orif Mohitobon” (1996), “Irfon va idrok” (1998), “Tasavvuf saboqlari” (2000), “Ahmad Yassaviy” (2001), “Kim nimaga tayanadi?” (2006), “E’tiqod va ijod” (2007), “Navoiyga qaytish” (2007), “Abdulla Qahhor jasorati” (2007), “Taqdir va tafakkur” (2007), “Meros va mohiyat” (2008), “Ijod iqlimi” (2009), “Ishq va hayrat olami” (E.Ochil bilan hammualliflikda, 2018), “Ahmad Yassaviy” (2023), “Mushohada yog‘dusi” (2024), “So‘zboshi” (2024) kabi o‘nlab kitoblari chop etilgan).

Kamina Ibrohim Haqqul bilan ustoz-shogird emasdik. Har birimizning o‘zimizga xos fe‘limiz sababidan bo‘lsa kerak, bir dargohda ishlaganimizga qaramay, asosan salom-alikdan nariga o‘tmaganmiz. Lekin u kishining o‘z vaqtida men va men singari kitob varaqlashga ishqiboz ko‘plab tengdoshlarimga ma‘naviy ustozlardan biri bo‘lgani – haq gap. “Kitob varaqlashga ishqiboz” deganim mumtoz va zamonaviy adabiyot masalalariga azbaroyi qiziqqan o‘quvchiki bor, Ibrohim Haqqul va u kabi o‘zidan bitta katta avlod vakillaridan ta’sirlangani, ta’sirlanganda ham kitoblarini izlab topib, muk tushib o‘qigani, ulardagi haqiqat izlagan qalbning iztiroblariga esh bo‘lganini unutib bo‘lmaydi. Shu yerda bizning taqdirimiz kesishgan. Shuning uchun ham, ana, kaminaning kutubxonasidan joy olgan, u kishining qalamiga mansub talay kitoblar rosa yozib-chizib o‘qilgan. 1997-yilda yoqlaganim, “sof lirika” muammosiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyam ham Ibrohim Haqqul kitoblaridan olingan uzintilarga to‘la.

Yillar o‘tib esa, kamina mansub avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy hayot va badiiy adabiyot masalalariga munosabati birmuncha shakllandi. Natijada mustaqil qarashga, u yoki bu asar to‘g‘risida o‘z so‘zimizni bildirishga moyil va qodir bo‘la

boshladik. Bu esa, o'z navbatida, bahsu munozaralarni keltirib chiqardi. Shu ma'noda, katta adabiyotning chinakam fidoyisi bo'lgan professor I.Haqqul bilan ham turli masalalarda bahslashganmiz. Chunonchi, men yozuvchi



N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanida jahon adabiyotining izlari ko‘proq desam, u kishi folklorning ta’siri mo‘l-ko‘l deya tortishgan joylarimiz bo‘ldi. Aslida, har ikki ta’sir ham bor. Zero, badiiy asar o‘zigacha bo‘lgan jiddiy matnlar bilan dialogik aloqada vujudga keladi. Ayniqsa, uning o‘zi ham jiddiy matn bo‘lsa. Iz, ta’sir deganimiz shu yanglig‘ ham tug‘iladi. Yana Ibrohim Haqqul bir suhbatda “mustaqillik davri adabiyoti haqiqatni ayta olmadi” degan qarashni ilgari surdi, kamina: “agar adabiyotning vazifasi faqat haqiqatni aytish bo‘lganda ham (vazifa faqat bundan iborat emas!), u bu ishni uddaladi”, deya birgina A.A’zamning “Ro‘yo” romanini misol tariqasida keltirdim (qarang: “Jahon adabiyoti” jurnali, 2019). Albatta, fikrlardagi turfalik, ko‘pincha, bir masalaga qanday nuqtai nazar bilan yondashishga ham bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, F.Dostoyevskiy bir asarida “kishi sahardan kechgacha bir arslonning hayot mujodallasini kuzatsa, kechga borib yirtqichning jayronni tutib yeyishiga quvonadi, lekin aksincha bo‘lib, ertadan shomgacha o‘sha jayron hayotini kuzatsa-chi – uning arslon panjasidan omon qolganiga sevinadi”, degan fikr kechadi. Ko‘ryapsizmi, bir masalaga qaysi tomondan, kimning tomonidan turib qarashning o‘zida rakurslar 180 gradusgacha o‘zgarib ketmoqda. Yana vaqtni kimga, nimaga sarf qilganimizga ham ko‘p narsa bog‘liq. Masalaning bu jihatlarini bilgan olim germenevtikaning – talqinlar nazariyasidagi turfalik sir-asrorlarini yaxshi tushunadi va qarshisidagi kishining boshqacha fikrlagani uchungina yomon ko‘rib qolish baxtsizligidan yuqori tura oladi. Shuningdek, Ibrohim aka bilan ayrim jabhalarda hamfikir edik: masalan, iste’dodli va fidoyi yoshlargagina ilm eshiklarini ochish, qo‘llab-quvvatlash, rahbarlik qilish kerak deganga o‘xshash masalalarda, kuzatishimcha, hamisha yakdil bo‘lganmiz.

Demoqchimanki, hayot yo‘llarimizda Ibrohim Haqqul bilan hamfikir bo‘lamizmi, yo‘qmi, bundan qat’iy nazar, u kishining ilmning haqiqiy fidoyisi, jarchisi va jangchisi bo‘lganini hamisha bilganman va shuning uchun olimni hurmat qilganman.

Ergashtiruvchi olim

80-yillar oxiri, 90-yillar davomida I.Haqqulning har bir kitobi, maqolasi biz – yoshlar uchun katta ma’naviy ozuqa, namuna bo‘lgan, ortidan ergashtirgan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘sha paytda ham diplomli olim ko‘p bo‘lgan, lekin namuna bo‘lib, o‘z ortidan ergashtiruvchilari bugungidek kamchil edi. Ibrohim Haqqul ana shulardan – ergashtiruvchilardan biri edi. Olimning yoshlarga ta’sir qiluvchi va ularni ergashtiruvchi xususiyati umrining so‘nggiga qadar davom etdi: bu hol olim o‘limidan keyin ortida qolgan shogirdlarining bir yoqadan bosh chiqarib, ustozlari ishini davom ettirishlari, har yili yod etib tadbir uyushtirishlari va kitoblarini chop qilishlarida ko‘rinadi.

Ibrohim Haqqulning ilmdagi yo‘li qanday edi?

U tadqiqotchi olim sifatida asosiy e’tiborni u yoki bu adabiy siymo asarlarining mazmun-mohiyatini, muhim g‘oyalarini ochib berishga qaratdi. Ya’ni Ibrohim Haqqul ko‘proq mumtoz adabiyot masalalari bilan shug‘ullandi va tadqiqotchiligidagi, asosan, ishning ma’no sathiga urg‘u berdi. Bu bilan o‘quvchida asarning ma’rifiy qatlami to‘g‘risida tushuncha paydo bo‘ladi. Biroq I.Haqqulning yozganlariga “asar haqidagi taassurotlardir” deb qaraydigan ayrim olimlar ham borligini afsus bilan qayd etmoq kerak. Terminni terminga urishtirib, chiqqan sadosini ilm deydi shaklbozlarning qarashi bu. Hamda sog‘lom qarash emas. Chindan ham keyingi vatqlarda ilmiy matnda qancha ko‘p termin (atama) ishlatilsa – ilmiy, yo‘qsa – g‘ayriilmiy deb biladiganlar soni ko‘payib borayotganini afsus bilan qayd etmoq kerak. To‘g‘ri, ilmiy termin olim ishlatadigan kuchli qurol – vositalardan biri. Uning ostida juda katta ma’no-mazmun yotadi. Biroq unutmasligimiz lozimki, termin deganimiz, asli, u yoki bu g‘oyaning shartli ifodachisidir. Olimning qarashlari muayyan termin-atamaga aylanganicha g‘oyalar tarzida yashaydi. Odatda, adabiyot tarixi, adabiy tanqid bilan shug‘ullanuvchi olimlar badiiy matnning mazmun-mohiyati-yu bosh g‘oyalarini topib, ochiqlashga harakat qilishadi. Nazariyotchi olimlar esa ulardan umumlashma nazariy xulosalar chiqaradi. Ko‘rinadiki, terminlashtirish jarayoni keyin – adabiyot tarixchilari va munaqqidlar o‘z ishini yakunlagandan so‘ng boshlanadi. Bas, shunday ekan, badiiy matnning ma’no-mazmunini tahlil qilib olmasdan turib nazariy xulosalar chiqarish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. “Pillapoya bo‘ldim senga, azizim, Sen ham gal kelganda pillapoya bo‘l” dermidi shoir Erkin Vohidov? Adabiyotshunoslik ilmining turli tarmoqlari ham, ta’bir joz

bo'lsa, bir-biri uchun ana shunday o'ziga xos "zina"ning bittadan "poya"laridir. Har olim o'zi yetib borgan "poya"ga taalluqli ishini puxta bajarsa, shuning o'zi katta gap.

Aslini surishtirsangiz, olimlar ikki guruhga bo'linishini ko'rasiz – ijodkor olimlar va nazariyotchi olimlar. Har holda, mening kuzatishlarim shunday deyishimga asos beradi. Ijodkor olim ko'proq asarning mazmun-mohiyati bilan shug'ullansa, nazariyotchi olim shu mazmunni vujudga keltirgan shaklga mo'ltiroq e'tibor qaratadi. Ibrohim Haqqul tabiatan birinchi guruhga mansub olimlardan edi. Uning yo'lini tanqid qiluvchilar esa, ko'proq keyingi guruhga mansublardir. Ko'rinadiki, shu ikki guruhga tegishli olimlar gohida bir-birining yo'lidani ko'ngillari to'lmay turadi. Holbuki, ular bir frontning ikki jabhasida mehnat qilayotgan zahmatkashlardir. Axir, adabiyotshunoslikning uchta asosiy va bir necha yondosh yo'nalishlari bor: adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, shuningdek, matnshunoslik, manbashunoslik va h.k. I.Haqqul faoliyati davomida asosan adabiyot tarixi, qisman adabiy tanqid bilan shug'ullandi. Bu sohalar bilan shug'ullangan olimlar, odatda, badiiy tahlilning kontekstual yo'nalishidan istifoda etishadi. Adabiyot nazariyasi bilan mashg'ul bo'lganlar esa, ko'pincha, immanent badiiy tahlil metodlariga murojaat qilishadi.

Nazariy adabiyotlarda badiiy tahlilning ikki yo'li to'g'risida yozishadi: 1. Kontekstual. 2. Immanent.

Kontekstual tahlil biografik, ijodiy-genetik, sotsialogik, tarixiy-madaniy, qiyosiy kabi qator tarixiylik tamoyiliga suyangani metodlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda asarni vujudga keltirgan tashqi aloqalar o'rganilib, unga muallif tomonidan yuklatilgan mazmun ochib beriladi. Immanent tahlilda esa asarni tutib turgan ichki aloqalar o'rganiladi va stilistik, struktural, semiotik kabi metodlarga tayanib ish yuritiladi. Ko'rinib turganidek, birinchi tahlilda asosiy e'tibor asarning mazmun-mohiyatida qaratilsa, ikkinchisida shu mazmunni yuzaga chiqargan matn shakli tadqiq etiladi. Albatta, so'nggi chorak asrdan mo'ltiroq vaqt ichida jahon adabiyotshunosligida kompleks tahlil, sistem tahlil degan nisbatan yangi metodlar to'g'risida bahs-munozaralar ancha faollashgani ham bor gap. Biroq, nima bo'lganda ham, yuqorida nomlari zikr etilgan tahlil metodlarining o'ziyoq badiiy matnning ma'no va shakl qatlamlarini ochish tashqaridan ko'ringanidek oson yumush emasligidan dalolat beradi. Aytish joizki, professor I.Haqqul masalaning mohiyatidan kelib chiqib, o'z faoliyatini asosan kontekstual tahlil yo'nalishida amalga oshirgan. Bas, shunday ekan, unga qarab: "nega sen immanent tahlil metodiga yetarlicha e'tibor qaratmading?" deyishga hech kimning haqqi yo'q. Olim sobiq sovet mamlakatida hukm surgan ateizm iqlimidan endi-endi chiqib, ildizlarga intilinayotgan, ularni topib otini to'g'ri qo'yishga harakat qilinayotgan bir sharoitda o'z chekiga tushgan vazifani sidqi

dildan, shuningdek, kuchi, bilimi, tafakkuri yetgan qadar ado etdi. Binobarin, bir olim merosini tekshirar ekanmiz, uning qanday davr va sharoitda faoliyat yuritganini hamisha yodda tutmog‘imiz lozim bo‘ladi. Shunday keyin uning ro‘yobga chiqarganlarini e‘tirof etgan holda, qolgani tadqiqiga kirishmoqlik olimga yarashgulik ishdur.

Tasavvur butunligi

Yassaviy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Bedil, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Hamza, Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Jamol Kamol, Shavkat Rahmon kabi mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillari Ibrohim Haqqulning doimiy qiziqish va tadqiq markazida turgan. Shuningdek, u Shekspir, Tagor kabi jahon adabiyoti gigantlarini ham baholi qudrat o‘rgangan. Talaba ekanman, universitetga uchrashuvga kelgan Ibrohim Haqqul: “mening ilm dargohida o‘qib yurib orttirgan eng katta boyligim – Tagorni to‘liq o‘qiganimdir” degani yodimga muhrlangan. To‘g‘ri-da, olim degani o‘zi mansub sohani bir butun tarzda tasavvur qila olishi kerak. Yo‘qsa, tanlab olgani tor yo‘nalishdagi tadqiqot natijalarida katta-katta nuqsonlar yuzaga kelishi muqarrar. Mayli, u mumtoz adabiyot tadqiqotchisi bo‘lsin, lekin Ibrohim Haqquldek jahon va milliy adabiyotning bo‘y-bastidan umuman xabardor bo‘lsin! Mayli, u zamonaviy adabiyot mutaxassisi bo‘lsin, lekin adabiyotning kechagi kunini loqal umumiy manzaralarda bo‘lsa-da bilsin!

Ibrohim Haqqul – yangi adabiyot tadqiqotchisi

I.Haqqul zamonaviy o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan qator maqolalar, kitoblar chop etgan. Masalan “Abdulla Qahhor jasorati” nomli kitobni yoki A.Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan qator maqolalarni eslash kifoya. “Maktabi betakror”, “Ma‘naviy mag‘lubiyat zabunlik erur”, “Ilohiy ishq: tanlov va taqdir”, “Nega yerga qaraysan, Ra‘no?” (“Ishonch”, gazetasi, 8-aprel) maqolalari yangi o‘zbek adabiyotining ilk romanlaridan birining tadqiqiga bag‘ishlangani bilan ahamiyat kasb etadi.

“Maktabi betakror”¹ I.Haqqulning Abdulla Qodiriyning 110 yilligiga bag‘ishlab yozilgan maqolasi bo‘lib, unda “Mehrobdan chayon” romanining bir nechta qirrasi tahlil qilinadi. Bu qirralar birlashib esa bitta chiziqqa kelib tutashadi. Olim Solih Mahdum fe‘lidagi nafsiga bandilik va xonlar o‘rtasida talosh bo‘lgan kanizak qismati kabi masalalarning har biriga yetarlicha to‘xtaladi, pirovardida nafs va ta‘maga, qullik rishtasiga olib kelib bog‘laydi. Shunisi bilan maqola alohida e‘tiborga molik. Ya‘ni, asarning mazmun-mohiyati Solih Mahdum fitrati bilan, bu fitratda in qurgan nafs bilan chambarchas bog‘liq. Ta‘bir

¹ “Ижод иқлими”. Тўпламда. Тошкент., “Фан”. Б.224-229.

joiz bo'lsa, asar syujeti ana shu detaldan o'sib chiqib rivojlanadi. Asar avvalida Anvar va Ra'no o'rtasida bir muloqot bo'lib o'tadi. Unda Ra'noning "Meni kimga berar emishlar?" degan hazil savoliga Anvar "Seni xondan boshqa kim olsin?" deya hazil javob beradi. Ammo bu hazil sekin-asta chinga aylanib boradi. Chunki Solih Mahdum va uning shajaraviy tarixi shu ko'ngilsiz voqealarni keltirib chiqaradi. Maqoladan parcha: "Mahdumning otasi kanizak mojarosiga aralashadi. Madanixonni qo'llab fatvo beruvchilar tomonida turadi. Shuning uchun Buxoro amiri zolim Nasrullo qahriga yo'liqib, g'am-g'ussa va mardudlikka dosh berolmay o'lib ketadi. Uning o'g'li esa Xudoyorxonga qizimni beraman, deb musibat jariga qulaydi. Ota go'zal kanizak vositasida bir hukmdorga yoqish va mavqeini mustahkamlashni ko'zlagan bo'lsa, o'g'il ikkinchi bir xon bilan naslan yaqinlashish umidida o'z qizining baxtiga chang solib, sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Natija esa bitta: nafs va ta'maga qurbonlik". Olim roman mazmun-mohiyatiga ana shunday o'ziga xos tarzda yondashar ekan, A.Qodiriy ijodining ulkan va betakror maktab ekanligiga urg'u beradi.

"Ma'naviy mag'lubiyat – zabunlik erur"¹ nomli maqolasida yana "Mehrobdan chayon" romaniga oid masalalar tahlil qilinadi. Unda "Maktabi betakror" maqolasida qo'yilgan masalalar – hazil motivi, Solih Mahdum fe'lidagi nafsga bandilik, uning ildizi va xonlar o'rtasida talosh bo'lgan kanizak qismati kengroq va teranroq tadqiq etiladi. Ushbu maqolada olim Anvar obraziga ham to'xtalib, uning xarakteri shakllanishida oila, tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhitning rolini e'tirof etadi. Ayni damda, insondagi tug'ma fazilatlar, ularning asosi va ildizlarini ham nazardan soqit etmaydi. "Anvar xarakterini yaratishda Abdulla Qodiriy masalaning shu jihatlarini ham butun nozikligi ila inobatga olgan", deb yozdi olim. Anvar Mahdumnikida tahsil olar ekan, gulzorga mehr qo'yadi. Olimning ta'kidlashicha, Anvarning "Ra'noga bo'lgan muhabbatini – gulga bo'lgan muhabbatidan mutlaqo ajratib bo'lmaydi". Anvarning mirzaboshilik vazifasini qabul qilishni o'ylagani ham Ra'noga erishish orzusi bilan bog'liq. Ammo uning o'zi bu vazifani xohlamaydi. Chunki u yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan muhitda to'g'ri va halol bo'lish mushkul. Anvar Ra'noga qarata: "Sen tamoman boshqacha tushungan bir masala sening harakating va istaging aksicha natijalanib tursa, ruhan ezilasan, vijdonan azoblanasan. Mana mushkilot shu nuqtadadir. Yo'qsa gardandan soqit qilib qo'yish har narsadan ham qulay vazifa, ammo ma'naviy mag'lubiyat og'ir masala, Ra'no!", deydi. "Ha, ma'naviy mag'lubiyat og'ir masala. Bizning jafokash yurtimizda yuzaga kelgan ojizlik, jur'atsizlik, qadrsizlik,

¹ (www.kh-davron.uz, 21.01.2016).

nomussizliklarning aksariyati ma'naviy mag'lubiyatning hosilasidir" deb yozadi olim.

Maqolada Solih Mahdum obrazi to'g'risida ham asosli va qiziqarli mulohazalar ilgari suriladi. Otasi vafotidan so'ng onasi va singlisi bilan Qo'qonda qolgan va biror joydan daromadi yo'q Mahdum tahsilni tark etib, qorinni boqish uchun ish izlashga majbur bo'ladi. Uning xasisligini olim ana shu "qattiqchiliklarning ruhga singib qolgan yomon ta'sirlari"ga bog'laydi. Xasislik tomir otgan Mahdum vujudida ta'ma barg yozganligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, I.Haqqul Solih Mahdum obrazi haqida mulohaza yuritir ekan, uning xarakteri, fe'lini qahramonning boshidan o'tkazgan voqealari, qismati orqali tushuntiradi¹.

"Ilohiy ishq: tanlov va taqdir" ² nomli maqolada A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani qahramonlari, xususan, Anvar va Ra'noning dunyoqarashida tasavvufiy izlar haqida so'z boradi. Olim romanning biror bir joyida tasavvuf yoki so'fiylik degan so'z tilga olinmaganini, lekin "tasavvuf sir-asroridan ozroq xabardor kishi kitobning ilk sahifalaridanoq Anvarning tabiatida Haq va haqiqat oshiqlariga xos bir necha xislatlar mavjudligini" oson payqay olishini aytadi. Bu xislatlar, olimning kuzatishlaricha, quyidagilarda ko'rinadi:

"Birinchidan, yoshligidan u "o'z tengi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab-kulmas, hamisha uning ko'zida bir mung yotar edi"³. Shunga qaramasdan uning "bola chog'danoq eng yaxshi ko'rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi..." (46-bet).

Ikkinchidan, "Istiqbol so'zini har kim har turli tushunadi. Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat orqali ko'rar edi" (89-bet).

Uchinchidan, Anvarning ruhoniyyatida dunyoning moddiy taxtu baxtini nazarga ilmaydigan darveshlarga xos xolislik, erkinlik, yomonlik va kulfatni oldindan sezish layoqati bor edi. Anvarning haqiqat sevgisi va to'g'rilikka inonchi hech qaysi darveshnikidan past yoki sust emasdi. Hatto ulardan eng jasoratlisiga ham o'rnak va namuna bo'larli edi".

Xuddi shunday, maqolada olim Ra'noning dunyoqarashiga, a'moliga diqqat qaratadi. Romanda Ra'noning "Haftiyak", "Qur'on", "Chohor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslaki mutaqqin", Navoiyning barcha asarlari, "Devoni

¹ Maqola muallifning "Talant – jasorat javhari" nomli kitobida "Mehrobdan chayon" romanida ma'naviy mag'lubiyat tasviri" nomi ostida chop etilgan. – Toshkent: "Muharrir", 2018).

² "Talant – jasorat javhari". – Toshkent: "Muharrir", 2018.

³ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent, 1959. 45-bet (Bundan keyingi misollar ham shu nashrdan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi).

Fuzuliy”, Layli va Majnun”, Amiriy, Fazliy, chig‘atoy-o‘zbek katta shoirlarining asarlari, Xoja Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedilni yaxshi o‘qigani yoziladi. Hatto o‘zi yaxshi ko‘rgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarining badiiy asarlaridan bir majmua tuzib yurishidan xabar beriladi” (21-bet). Ana shulardan kelib chiqib olim yozadi: “Boshqalarini bir chetga qo‘yib, “Navoiyning barcha asarlari”, “Sabot ul-ojizin”, Sa‘diyning “Guliston” kitoblari mutolaasiga to‘xtaylik. Ushbu asarlarni tushunib, sevib o‘qigan mushohadali har bir kishi o‘z-o‘zidan tasavvufshunos bo‘ladi. Ayniqsa, Sa‘diy kitoblari o‘ziga xos bir tasavvuf darsligi mazmuniga ham ega”.

Xonning Ra‘noni xotinlikka olishi xabarini Anvar qabul qiladi. U hatto “tasavvuf ta’limotida markaziy o‘rin egallagan ilohiy ishq tushunchasiga tayanib, Ra‘noni “hajr”ga ko‘niktirmoqchi bo‘ladi: “Majoziy ajrashish – ajralish emasdir, chunki biz bir-birimizga majoziy bog‘lanmaganmiz, haqiqiy bog‘lanishni esa qat’etish ifloslar uhdasidan kelmas. Bas, shu holda biz ikov nega xafa bo‘laylik... Ra‘no? Ishq da’vosi avom o‘ylagancha vasl emas – hajrdir. Zero, vasl ishq o‘tini so‘ndiruvchi, hajr esa kamolotga erishtiruvchidir. Sen shu ikkisidan qaysi birisini tanlaysan, Ra‘no?” (O‘sha betda). Ra‘no esa Anvardan farq qilib, o‘z kelajagi va baxti uchun kurashadi. Maqolada Ra‘noning ayni shu xislatiga urg‘u beriladi. “Anvarga nisbatan Ra‘no hayot odami edi” deb yozadi olim.

Ko‘rinadiki, professor I. Haqqul nafaqat mumtoz adabiyotning tolmas va fidoyi olimi, ayni damda, yangi o‘zbek adabiyotining ham o‘tkir fikrli tadqiqotchisidir.

Intervyuda aks etgan olim siyrati

O‘tyurak jurnalist Gulmira Musajonovanning “Men bilgan haqiqatlar” ko‘rsatuvida Ibrohim Haqqul shaxsiyati ancha to‘kis ochib berilgan, deyish mumkin.

“Navoiy haqida gapirish uchun mana shunday baland joyga, toqqa chiqib, toza havoda gapirish kerak, toki, nobakor olam pastda qolib ketsin”, deydi olim Toshkent viloyati tog‘laridan birida jurnalist savollariga javob berarkan. “Nobakor olam” iborasi va, umuman, uning pastda qolib ketishini istash bilan bog‘liq fikr menga juda tanish tuyuladi. Xotiramni titkiladim va topdim – u zamonaviy shoir A.Oripov qalamiga mansub she’rda bor ekan:

Ortda qolsin nobakor hilqat,
Ortda qolsin tanbal bulutlar.
Yuragingda chaqnasin faqat
Yorug‘ xayol, samoviy o‘tlar.

Qarang, Ibrohim Haqqulning Navoiy haqidagi o‘gitlaridan ham zamonaviy adabiyotning isi kelib turibdi. Adabiyotni bir butun deb bilish, his qilish shu bo‘lsa, ajab emas.

“Navoiy odamlarni ikkiga bo‘ladi: ahli ma’ni va ahli surat”, deydi olim. Badiiy adabiyotni tahlil qilayotganda ham olimlar ko‘pincha ikkiga bo‘linadi: ma’noga oshiqalar, shaklga oshiqalar. Buni yuqorida boshqacha ifodalar bilan aytib o‘tdik. Aslida, ikkisini qo‘shish kerak. Biroq birinchisi bo‘lmaguncha ikkinchisi mumkin emasligini ham yodda tutmoq kerak.

Navoiydek adabiy hodisalar negizida ijodkor shaxsi turishini I.Haqqul ta’kidlab aytadi. Chindan, shaxslik – yuksak maqom. Faqat shaxs ijodkorgina mohiyatga intiladi. Bas, katta ijod katta shaxs bilangina bunyod bo‘ladi. Shaxs bo‘lish uchun esa, olimning nazaricha, quyidagilar talab etiladi:

1. Iste’dod.
2. Jasorat.
3. Erkinlik.
4. Butunlik.
5. Fidoyilik.

“Shaxslar yetarli darajada yetishib chiqsa, ular yashayotgan millatning muammolari hal bo‘lardi”, deb ishonadi olim.

“Shaxslik maqomidan yiroq olimlar hatto navoiyshunos bo‘lsa-da, dunyo talashadi, obro‘-martaba talashadi”, deya o‘kinadi u.

Yana aytadiki, “olomonni xalqqa aylantirish bilan adabiyotga munosabatni ham yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkin”.

“Adabiyot uchun xizmat qilish kerak. Mayli, xizmat qilgichni e’tirof etishmasin, mukofotlar bilan siylashmasin, shunda ham u xizmatdan voz kechmasligi kerak”.

“Haqiqatni aytish uchun kafan yelkada bo‘lishi kerak”.

Bu fikrlar mumtoz adabiyot sahifalarida, jumladan, Nizomiy Ganjaviy asarlarida uchraydi, deyishadi bilgichlar. Bu gapni men hayotda ham ko‘p eshitganman. Biroq u yoki bu fikr qachon dillarga-yu tillarga ko‘chadi? Qachonki, uni aytgan odamning o‘zi ham, so‘zi ham shunga monand bo‘lsa. Ibrohim Haqqul tilidan to‘kilgan “Haqiqatni aytish uchun kafan yelkada bo‘lishi kerak” degan gap bugun ayrimlar diliga ko‘chdi, desak yanglishmaymiz. Chunki aynan Haqqulning og‘zidan eshitgandagina odamlar u gapga ishondi.

Nazarimda, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul o‘zi ishongan yuqoridagi haqiqatlarga sodiq qolib yashadi. Taqdir olimni shunday yo‘ldan olib o‘tdiki, natijada uning odamlilik va olimlik qismati o‘zining aytganlariga, e’tiqodiga mos tushdi. Bu – juda katta gap.

2020-2024 yillar

FILOLOGIYA

SO‘ZGA EVRILGAN HISLAR



**ISLOMJON
YOQUBOV,**

**Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va
adabiyoti
universiteti “Jahon
adabiyoti va qiyosiy
adabiyotshunoslik”
kafedrası professori,
filologiya fanlari
doktori**

Miloddan avvalgi ikkinchi asrga oid Xitoy manbalarida, keyinchalik esa Istaxriy, Ibn Havqal, Yoqut Hamaviy, Mahmud Qoshg‘ariy, Bobur va Ibrat asarlarida ulug‘langan Quva (Qubod yoki Qubo) – azaldan Farg‘ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Zotan, bu tabarruk maskandan Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Quboviy, Rukniddin Quboviy, Muhammad ibn Muhammad al-Quboviy, Abduqayum Vahmiy, Shokirxon Hakimiy singari allomalar yetishib chiqqan. Arab va mo‘g‘ul istilolarini boshidan kechirgan bo‘lishiga qaramasdan, Quvada hinduizm, buddizm va islom madaniyatlari rivoj topgan. Madaniyat va san‘at yuksalgan. Bugungi kunda ham mazkur tuman o‘zining adir va adiroldi tekisliklari bo‘z tuprog‘ida yetishtiriluvchi anorlari, bog‘ va tokzorlari bilan dong taratgan.

Ammo so‘zimiz Quvaning tarixi yohud tabiati haqida emas, balki ana shu tarix qalbiga faxr va iftixor, so‘lim tabiat manzaralari diliga ilhom solgan shu yurtning shoir o‘g‘li – Tursun Ali xususida.

Kamolot yo‘llarida

Bolaligi o‘sha anorzorlarda o‘tgani bois, Farg‘ona vodiysida yashovchi xalqning turmush tarzi Tursun Alining tafakkur yo‘cini shakllanishiga sezilarli ta‘sir qildi. Keyinchalik Toshkentdagi tahsil, shoiru olimlar davrasi, o‘z ustida muttasil izlanishlar uning qalami qayralishi, poetik tafakkuri yuksalishida muhim rol o‘ynadi.

Darhaqiqat, Tursun Ali – intellektual shoir. U mumtoz adabiyotimizning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab singari ulug‘ siymolari ijodini muntazam mutolaa qiladi. Jahon adabiyoti va san‘atining Nozim Hikmat, Gabriel Garsia Markes, Fyodr Dostoyevskiy, Ernest Xeminguey, Chingiz Aytmatov, Nodar Dumbadze, Osip Mendelshtam, Aleksandr Faynberg, Ivan Bunin, Uolt Uitmen, Irina Polyakova singari o‘nlab vakillari poetik merosi, rangtasvir asarlari bilan yaqindan tanish. XX asr o‘zbek adabiyoti va zamondosh shoiru adiblar: Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek, Mirtemir, G‘afur G‘ulom, Asqad

Muxtor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Chori Avaz, Mirpo‘lat Mirzo, Nazar Eshonqul, adabiyotshunos olimlar: Ibrohim G‘afurov, Qozoqboy Yo‘ldoshev qalamlaridan to‘kilgan satrlar, insoniy betakror qiyofalariga xos fazilatlar uning hayrat va tahsinlariga sazovorligi bundan guvohlik beradi. U o‘zi hurmat qilgan, muhabbat qo‘ygan bu kabi insonlarga goh bag‘ishlovlar bitsa, gohida ulardan ayrimlarining yorqin xotirasini ehtirom bilan eslaydi.



Tursun Ali modern yo‘nalishda ijod qiladi. U yaratgan she‘riy asarlar shakl va uslub jihatidan turfa xil. Unda biz “birlik”, “ikkilik”, “uchlik” hamda mansura va sochmalar, hikmatlardan tortib, dramatik doston, ballada va turkum-mozaikalargacha uchratamiz. Shoir she‘riyati oshkora didaktika va chorlovlardan mutlaqo holi ekani, borliq ruhan tuyulgani, ohanglar qalb qulog‘i bilan tinglanib, ranglar g‘oyatda yaqindan ko‘rilgani, jonli his etilgani, anglab yetilgani bilan sho‘ro davri poeziyasidan farqlanadi. Shubhasiz, bu

ranginlikning yuzaga chiqishida badiiy tarjimaning ham muhim o‘rni bor.

Talant tig‘ining qayralishida badiiy tarjimaning roli

Aslida shoir - qalb tarjimoni. Biroq Tursun Ali o‘zga el va o‘zga tillarda yaratilgan asarlarni tilimizga o‘girish borasida ham muttasil izlanishdagi shoir qalam sohiblaridan biri. Mutarjim Xitoy she‘riyatining o‘zbek kitobxoniga u qadar tanish bo‘lmagan III-YI asrlarda yashab ijod qilgan Lyu Chjen, Se An, Gu Kaychji, Se Lingyun, Bao Chjao, Lu Kay, Shen Yue, Kun Chjiguy, Se Tyao, Xe Syun va YII- X asrlarning mashhur shoiri Vey Inu singari qalamkashlari asarlarini tilimizga o‘giran. Ma‘lumki, qadimgi Xitoy she‘riyatida miloddan avvalgi oltinchi asrda Lao-Szi asos solgan falsafa – Dao ta’siri kuchli. Bu adabiyot moddiy dunyoning tabiiy qonuniyat asosida muttasil o‘zgaruvchanligi, hamma

narsalar qarama-qarshilikdan iboratligi, dunyoni bilish sezgilardan boshlanib, tafakkur bilan yakunlanishi g'oyasiga asoslanadi. "*Dao*" – tabiiy qonun bo'lib, unda olam mohiyati aks etgan. Zotan, insonning butun maqsadi ana shu mohiyatni bilishga qaratilgandir.

Ta'limot markazida mazkur qonun buzilsa, tabiat o'sha buzg'unchidan ayovsiz o'ch olishiga ishonch ruhi yotadi. Borliq ("*Si*") beshta unsur: (*yer, suv, olov, yog'och, metall*) dan tashkil topgan. Qadimgi Xitoyda "*Tog'lar va suvlar she'riyati*" yoki "*Bog'lar va dalalar she'riyati*" ya'ni bugun biz tushungan ma'nodagi peyzaj lirikasi taraqqiy qilgan. Shoir barcha hodisalarning manbai bo'lmish tabiat ritmini tinglamog'i, o'z yurak sadolarini unga uyg'unlashtirmog'i muhim sanalgan. Shuning uchun ham tabiat go'zalligiga shaydolik ilhom manbai bo'lib kelgan. Tabiat bilan muloqotga kirishmoq she'riyatga ramziy-majoziylik, metaforiklik, ranglarga xos jilvakorlik bag'ishlagan. Inson yuksakliklardan turib olamga boqar ekan, moddiylikdan yuksalgan. O'zini borliqning bir uzvi sanash orqali hoyu havaslarini jilovlay olgan. Besh unsur va inson qon-qardoshligi adabiyot estetik tamoyillarini belgilab bergan.

Kezi kelganda ta'kidlash o'rinliki, ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham Yaratuvchi va olam (*yaralganlar*) ni aynanlashtirib tushunar ekan, moddiy ibtido o'zini Tangri orqali namoyon qilishini ta'kidlagan edi. Tabiat va inson hayotini koinot belgilashini yoqlagan Ibn Sino "*vujudi vojib*" va "*vujudi mumkin*" munosabatlarida nurlanish mavjudligiga diqqat qaratadi. Olam sirlaridan hayot haqiqatini izlagan Umar Hayyom esa tirik va notirik tabiat munosabatlari chegara bilmasligi, bir holatdan ikkinchisiga o'tib turishini ta'kidlaydi. Anglashiladiki, bunday qarashlar Xitoy she'riyatigagina daxldor emas. Uning olis moziyga borib tutashuvchi milliy ildizlari ham mavjuddir.

Demak, Tursun Alini tarjimaga undagan kuch o'zga mintaqa shoirlari ijodining uning qalbiga mushtarakligidir. Zotan, tarjima qilingan asarlar mohiyatini Olloh va banda ruhi o'rtasidagi teran ichki aloqadorlik, alohida insonning ulug' imkonlari, idrok va mushohada qilish qudrati, intuitsiyasiga ishonch tashkil etadi. Chunki, insonni oliy qadriyat sifatida anglashdek qadimiy tuyg'u va ruh zamonlar osha barhayot. Shu ma'noda, shoir she'rlarida inson va tabiat o'zaro uyg'un keladi. U tabiat lavhalarini she'rga ko'chirganida ruh manzaralarini, odam bolasi kayfiyati ifodasi orqali esa tabiat manzaralarini chizadi. Shoirning tarjimalari esa hurfikrlilik, olam sirlaridan boxabarlik, hayotga tashnalik, bag'rikenglik kabi tushunchalarga asoslanadi. Binobarin, zamondosh kitobxon ulardan muayyan estetik zavq tuyishi bejiz emas.

Tursun Ali elimiz ardog'idagi Rauf Parfi, Xurshid Davron singari shoirlar, adabiyotshunos olim va tarjimon Jabbor Eshonqul izidan borib, yapon she'riyati tarjimasiga ham qo'l urdi. U XYII – XYIII asr yapon mumtoz she'riyatining

Mosuo Basyo, Ranran Masukura, Sampu Sugiyama, Issyo Kosugi, Rensesu Xattori, Onisura Kamidzima, Dzyoso Nayto, Kyoray Mukan, Kikaku Takaran, Bontyo Nodzava, Siko Kagami, Kagalik Tiyo, Ryota Osima, Buson Yosa singari vakillari; XIX – XX asr shoirlari Kitaxara Xakusyu, Akutagava Ryunoske, Myudzuxara Syuosi, Kavaxigasi Xekigodo asarlaridan ayrim namunalarni tilimizga o‘girdi.

Kezi kelganda ta’kidlash o‘rinliki, Uzoq Sharq mamlakatlari bo‘lmish Xitoy va Yaponiya adabiyotlari poetikasi o‘rtasida talay mushtarak qirralar mavjud. Bu hol adabiy-estetik qarashlarda konfutsiylilik, daoschilik va buddaviylilik g‘oyalarining kuchli ta’siri “*adabiyot*” va uning chegaralari hamda mazmunini tushunish haqida keng tarqalgan tasavvurlarda namoyon bo‘ladi. Zotan, mazkur mintaqalarda so‘z san’atiga oid qadimiy an’nalardayoq adabiy ijodga o‘ziga xos hodisagina emas, balki siyosiy-ahloqiy ideallarni ifoda etuvchi faoliyat turi sifatida ham qaralgan. Ayni paytda, badiiy asarning uslubiy qimmatini belgilovchi me’zonlar sirasiga shakl hodisasi ham kiritilgan. Yaratilgan asarlar badiiy qimmatini jihatidagina emas, balki kishilarni ma’naviy-ruhiy kamol toptirishi - estetik jihatidan ham qadrlangan.

Qadimda yapon she’riyati o‘z tabiatiga ko‘ra (*sillabik*) bo‘g‘inlar miqdoriga asoslangan. U qofiya va qofiya hosil qiluvchi me’zonlarga emas, balki 5 va 7 bo‘g‘inli she’rlarda tovush almashinuviga asoslanardi. Ma’lumki, yapon she’riyatiga xos bo‘lgan an’anaviy janrlardagi lirik namunalar bo‘lmish *tanka* besh, *xokku* esa uch misradan tashkil topadi. Yapon she’riyatida dastavval beshlik shaklidagi *tanka* janri ustunlik qilgan. XVI – XVIII asrlarda *tanka* bilan bir qatorda uchlikka asoslangan *xokku* janri ham ancha keng tarqalgan. Ularning asoschisi sifatida M.Basyo e’tirof etiladi. *Tanka* va *xokku*, *birinchidan*, yapon san’atining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi ixcham janrlardir. *Ikkinchidan*, keng ma’noda olib qaralganda, ular moddiy olamni estetik ifodalashning badiiy mukammallashtirilgan shakllaridir. Bu janrlar talqin ixchamligi, manzaralar yorqinligi jihatidan diqqatni jalb qilib keladi. Kun chiqish mamlakatining “*Xaykudagi yangi yo‘nalish*” ijodkorlari merosida obyektiv realizm poetikasining muhim unsuri bo‘lmish “*hayotni boricha aks ettirish*” (“*syasey*”) tamoyiliga amal qilinadi.

Bu muxtasar “tarix”dan murod shuki, so‘z san’atining mazkur kichik janrlari tabiatiga xos shakliy ixchamlilik va soddalik, mazmuniy teranlik Tursun Alini hayratda qoldirdi. “*Menga Yapon mumtoz she’riyati o‘zining nafisligi, latofati, ijtimoiy mazmunining chuqurligi va hayotiyligi bilan qadrlidir*”¹, - deb yozadi

¹ Tursun Ali. Oy yaprog‘i. Toshkent, “Sharq” NMAK Bosh tahririyati 2008. –B. 128.

shoir. Mutarjim bu ulkan ummondan o'zbek kitobxonini ham bahramand etar ekan, ayni paytda uning o'zi ham tanka va xokku (*xayku*) poetikasida aks etgan hayot haqiqati, go'zal ohangdorlik, mazmun teranligini o'zlashtirdi. Ko'rinadiki, tarjima shoirning she'riyatdagi shakli va uslubiy izlanishlariga keng yo'l ochgan.

Shoir ijodi ilmiy-adabiy jamoatchilik nigohida

Tursun Ali o'zining *“Tuyg'ular rangi”* (2001), *“Sokin hayqiriq”* (2005), *“Oy yaprog'i”* (2008), *“Gullayotgan yurak”* (2009) kabi to'plamlariga kirgan she'riy manzumalari va tarjimalari bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik nazariga tushgan. Bundan o'ttiz besh yil oldin Tursun Aliga oq yo'l tilagan A.Oripov uning she'riyatidagi rostgo'ylik va samimiyatga diqqat qaratgan edi. Keyinchalik esa, shoirning tinimsiz izlanish-intilishlari natijasida o'tkirlashgan poetik nigohi, quyuqlashgan tuyg'ulariga xos ranglar jilosi, tobora qayralib borayotgan qalamidan to'kilgan satrlarning u yoki bu qirrasini U.Normatov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, M.Yo'ldosheva singari turli avlodga mansub adabiyotshunos olimlar, Bahrom Ro'zimhammad, Go'zal Begim, D.Rajab singari shoiru shoiralar yozgan maqola va taqrizlarda tahlil va tadqiq etildi.

Professor U.Normatov shoirga yo'llagan ochiq xatida¹ uning ash'orlari didli, chin nafasat shaydolari dilidan joy olishiga komil ishonch bildiradi. Zotan shoir fikrlarida asov beboshlik, inja tuyg'ulari ifodasida esa bejilov bir erkinlik, ko'nikilgan andazalarga sig'maydigan shakldagi tarhi tozalik yorqin ko'zga tashlanadi. Adabiyotshunos olim Tursun Alining Sharqu G'arb adabiy tafakkuri bilan bog'liq jarayonlardan yaxshigina xabardor yetuk ziyoli ekanligini ta'kidlaydi. Shoir she'rlariga xos hayotiy teran zalvor, sodda samimiylik, tagdor ramziy-majoziy jilvakorlik, lirik qahramon tuyg'u-kechinmalariga xos betakrorlik, romantik jo'shqinlik singari san'atkorona fazilatlariga mahliyo bo'lgan olim: *“Ijodda faqat qalbingiz buyurganini, yetilgan shakl-shamoyillarni qog'ozga tushirish yo'lidan borayotganingiz meni quvontiradi”*², -deya iqrora bo'ladi. Shoirga: *“Ukajon, - deya murojaat etar ekan, she'rda jonli manzara chizish, manzaradagi sassiz shivirlar, guldurosarlarni, ranglar isini nozik uqish, o'quvchiga yuqtirish bobida yaxshigina tajribangiz bor. Bular shunchaki oddiy manzaralar emas, balki asrimizning global tahlikali ziddiyatlari, umumbashariy muammolarga ishoralaridir”*³, -deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, shoir chizgan manzara-lavhalar bani odam bolalari diliga yaqin, ruhiyatiga payvasta.

¹ Normatov U. Shoir so'zi qush kabi erkin. Qarang: Normatov U. Nafosat gurunglari. Toshkent., “Muharrir”, 2010.-B. 235-240.

² Normatov U. O'sha joyda. –B. 238.

³ Normatov U. O'sha joyda. –B. 239.

Tursun Alining “*Tuyg‘ular rangi*” kitobiga So‘zboshi¹ yozgan professor Q.Yo‘ldoshev shoirni olam titroqlari va ruhiyat injaliklarini tamomila o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, ko‘ngil holatlarini ifoda eta olishi jihatidan qadrlaydi. Uning harakatdagi ruhiy holatlarni yaxlit tarzda manzaralantira olishi, o‘z ko‘nglini taftish qilishga intilishini yuksak baholaydi.

Shoirning tasavvurlar olamiga xos ta’sirchanlik, ifoda tarziga xos musavvirlikni payqagan olim: “*Tabiat Tursun Ali uchun vosita emas, balki o‘zlikdir. Tasvirning manbaidir... Shoir she’rlarida oniy holatlardan olingan va kitobxon qalbiga ko‘chadigan samimiy hamda ohorli hissiy manzara tasviri – reallashgan ko‘lamdor tuyg‘u ifodasi bor... Shoirning olamni obrazli ko‘rish iqtidori baland. Tursun Ali dunyoni ramzli ko‘rishga moyil shoir*”², -deb yozadi.

Shoirning “*Gullayotgan yurak*” kitobiga So‘ngso‘z³ bitgan professor H.Boltaboev esa Tursun Alining she’rdan-she’rga, kitobdan-kitobga tomon dinamik o’sib borishiga diqqat qaratadi. “*Samimiy, qalbga yaqin anglamlar doirasida yangi timsollar, ohorli tashbehlar bilan ish ko‘rish shoirning doimiy matlabi... U oddiy yozadi, oddiylik zaminida sizga yaqin, tanish tuyg‘ular satrga chiqadi va siz tomoningizdan bir mahallar his qilingan, biroq u qadar e’tibor bermaganingiz, idrok etib ulgurmaganingiz sezimga aylanadi*”,⁴ -deb yozadi olim.

Tursun Alining “*Sokin hayqiriq*” to‘plamiga So‘ngso‘z⁵ bitgan yosh adabiyotshunos olima M.Yo‘ldosheva shoir istedod darajasini she’rlaridagi jilvakor musiqiylik, sehrkor ohangdorlikdan, u yaratgan ash’orlarning kitobxon qalbiga yaqinligini esa samimiyatdan izlaydi. Zotan, iste’dod va samimiyat ko‘ngilga yo‘l topmoqning qo‘sh qanotidir.

Sumalakdan tosh topdim

Yaqinda shoirning “*Qor shu’lasi*” (“Yangi asr avlodi”, 2011) kitobi nashrdan chiqdi. Quyida biz zamonaviy adabiyotning bir muhibi sifatida ushbu

¹ Yo‘ldoshev Q. Kayfiyat manzaralari. Qarang: Tursun Ali. Tuyg‘ular rangi. Toshkent. “Yozuvchi”, 2001; Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2006. –B. 464 - 471.

² Yo‘ldoshev Q. O‘sha joyda.

³ Boltaboev H. She’rga aylangan iztirob. Qarang: Tursun Ali. Gullayotgan yurak. Toshkent “O‘zbekiston” 2009. –B. 105-108.

⁴ Boltaboev H. O‘sha joyda. –B. 105.

⁵ Yo‘ldosheva M. “Sokin hayqiriq” jarangi. Qarang: Tursun Ali. Sokin hayqiriq. Toshkent., “ShARQ” NMAK Bosh tahririyati., 2005. –B 127- 138.

kitobni o'qish jarayonida ko'nglimizda kechgan va fikrimizda kurtak ochgan ayrim fikr-tuyg'ular bilan o'rtoqlashishni niyat qildik.

She'riy majmua "*Chillaning so'nggi kuni*" deb nomlangan ash'or bilan ochiladi. Keling, biz unda tasvirlangan manzara-holatlarga diqqat qilaylik:

Ilk manzara: Och bo'riday "*uvillayotgan*" BO'RON va samo elagidan to'kilgan QORlar shiddatidan "*guvillayotgan*" DUNYo. Tabiatning notanti qiliqlaridan o'rtanib, ship-shiydam holatga kelsa-da, sabr-bardosh-la ko'klamga intiq, ammo ba'zan yelkasidagi yuk zalvoriga bardoshi yetmay, ingrab singan DARAXTlar. O'z rizqini izlab sarosar kezganu ilojsizlik, muhtojlik iskanjasida izillab jon taslim qilgan: ("*Qora shoxlarda qolib qora mevalardek to'kilgan duv-duv*") CHUMCHUQlar. Ayni paytda "*qor, qor-a, qora, qara, qorr*" deya kuylayotgan QARG'Alar.

Tanishganimizday, bu yerda tabiat manzarasi tasviri orqali inson va jamiyat hayotiga muayyan ishoralar aks etgan. Qor va Bo'ron beshafqat hayot shiddati, falak charxining tinimsiz guvillashini anglatadi. Ship-shiydam va ba'zan "singan" daraxtlar esa shoirning chaqaloqlik davri, ya'ni o'tgan asrning 50-yillari bilan bog'liq xalqning nochor hayot tarzini ko'rsatishga xizmat qiladi. Chumchuq va qarg'alar qiyosida ham bu qushlar tabiatiga xos beozorlik va loqaydlik jihatlariga urg'u beriladi. Ularning bari keyingi manzara uchun zamin hozirlaydi.

Ikkinchi manzara: Muzlagan xona va unda izg'irindan diydirdab, tirikchilik mashaqqatlaridan parishon bo'lgan ONA. Shubhasiz, bu mushtipar vujud taqdir izmiga rizo. Ammo kelajak umidlari ham bir olam. O'sha orzularning bari onaizor bag'rida, tizginsiz mehri taftidan badani ilib orom olayotgan CHAQALOQ bilan bog'liq. Biroq chaqaloq hali dunyo asroridan mutlaqo bexabar. U dastlab ona allasi, uning shirin og'ushi, keyinchalik sirli-sehrli ertaklar olamida ulg'ayadi.

Uchinchi manzara: Chaqaloq endi o'zining laylak qanotlarida kelmaganligini yaxshi anglaydi. Chunki u ulg'aydi. Ammo endilikda, o'sha shirin ertaklar singari uning mehribon bayonchisi ham olis xotiraga aylangan. Demak, uni qor bo'roniyu izg'irinlardan himoya etguvchi mehribon qo'llar ham abadiyat qa'rida. Buni shoir shunchaki bayon qilmaydi, balki: ("*Osmon g'alvirini elagan edi BOShimga*") qabilida samimiy izhor etadi. Lirik qahramonning yoshi ulg'ayib sochlari moshguruch holiga kelganligini shoir qorning ("*Chilvirday uzun, To'rdek to'zg'in, Muzlagan iplari chatishgan SOChimga*") qabilida manzaralantiradi. Biroq u faqat soch oqarishi bilan bog'liq holatni ko'rsatish bilan cheklanmoqchi emas. Shuning uchun ham lirik qahramon: "*O', necha bor dilimni kuydirgan ayoz*", - deya chuqur xo'rsinadi.

Endi qor, soch, ayoz singari obrazlar o'z botiniy ma'nolarini bir qadar ochiqroq tarzda ifoda etadi. Shuning uchun ham chuqur xo'rsiniq zamiriga ezgulik va razolat, iste'dod va iste'dodsizlik o'rtasdagi azaliy kurashdan

o‘rtangan ko‘ngil, aziyat chekkan dil iztiroblari jamlanganligini anglash mumkin bo‘ladi. “*Mening bag‘rim, Dunyom shalabbo*” qabilidagi lirik qahramon so‘z ohangidagi ilojisizlikka o‘xshash nolish ohangi sezila boshlaydi. Chunki mazkur misralarda YOMG‘IR va QORning bir-biriga esh kelishidan andak xavotirlanish, ta‘bir joiz bo‘lsa, umidvorlikka yo‘g‘rilgan bezovta bir xushyorlik jamuljam. Ammo lirik qahramon zinhor taslim bo‘lmoqchi emas. Aksincha, u ziddiyatlarda ma‘nan g‘olib kelgan qalb sohibi o‘laroq, ertangi kunga “*Quyosh ohanglarin sochar borliqqa*” qabilidagi nekbin ishonch nigohi bilan nazar soladi. Shuning uchun ham, she‘r nihoyasida uning yuragi shodliklardan chechak ochadi. Bu aslida, kurashlarda mahv bo‘lmagan ko‘ngilning o‘tilgan umr yo‘llaridan rizoligidir.

Binobarin, shoir bu she‘rni “*Chillaning so‘nggi kuni*”, -deb nomlashi ham bejiz emas. Mazkur nomlanishning o‘zidayoq chiyillagan chilla, demakki noxush kunlar ortda qolganligiga alohida urg‘u berilgan.

Tursun Ali olamni g‘uborlardan xoli va yorqin ranglarda ko‘radi. Chunki muazzam borliqqa yorug‘ nigoh bilan boqmoq, samoviy ohanglarni ko‘ngil qulog‘i bilan nozik ilg‘amoq uning dilida mamnuniyat va porloq hislar uyg‘otadi:

Yuragimga urilar birdan

charog‘on ovozing jarangdor sasi.

Shoir lirik qahramoni tun qo‘ynida tanho kezadi. Biroq u butkul yolg‘iz ham emas. Zotan, ko‘kda g‘amgin suzgan OY, olis-olislardan mahzun boqqan YULDUZlar. Boshpana topolmay daydib yurgan SHABBODAYu teraklar uchida mizg‘igan SHAMOL uning hamrohi. Bunday ilhom lahzalarida borliq sukunati ichra jaranglagan turfa saslar shoir diliga daryo misol quyilib keladi:

Eshitdim Oy nolasin, tingladim,

Sho‘rlik yuragim-da sindi oy misol.

Nolakor ohanglarni eshitmoq, nafaqat shunchaki eshitmoq balki jon qulog‘i-la tinglamoq uchun shoir ham shunga esh kayfiyat-holatda bo‘lmog‘i lozim. Agar biz uning “*sho‘rlik yuragim*” deya yozg‘irishiga diqqat qaratsak, ana shu vobastalikka ishora qilinayotganligini anglaymiz. Fikrimizda haqli savol charx uradi: nega ayni lahzada Oy ham, shoirona qalb sohibi ham nolakor? Har bir kitobxon bu savolga o‘z qalbidan javob qidiradi. Ehtimol, Oyning tun qo‘ynida sarosar kezinishga mahkumlighi uning ruhan yolg‘izligi belgisidir. Unday bo‘lsa, Oyning nolakor so‘zlarida ham taqdirga rizolik, zaminga ziyo ulashishni o‘z burchi va zimmasidagi ulug‘ mas‘uliyat deb bilish ohanglari mujassamdir. Binobarin, uning o‘rtanishlari mohiyati ham nur va zulmat kurashidagi tanholikdan o‘zga narsa emas. Demak, uni o‘ziga suhbatdosh, dardkash tutgan



shoir tilaklari ham oydek oppoq va yorug‘ ranglarga yo‘g‘rilgan. O‘sha samo yoritqichlaridan kuch va ibrat olib, ko‘ngli nurafshon bo‘lgan shoir yozadi:

*Ko‘nglim koshonasi yorishmoqda Oydan-da,
Hozir,
Hozir men kutgan eng qisqa she‘r yozilishi
Muqarrar.*

Tursun Ali hamisha ham yuqoridagi kabi ko‘ngil koshonasi yorug‘ kayfiyat-holatlarnigina qalamga olmaydi:

*Negadir “oh” tortaman og‘ir,
“Munojot” navosi misoli uzun,
Juda mahzun bu xo‘rsiniq*

deb yozgan shoir “negadir”, -deya izohlashga ojiz qolgan yuqoridagi satrlarda lirik qahramonning xo‘rsiniqlari bu qadar mahzun va ohlari munojot yanglig‘ uzunligi sababi oshkor etilmaydi. Buni anglamoq uchun kitobxon aslida arabcha so‘z bo‘lgan “munojot”ning yalinish, yolvorish ma’nolarini anglatishiga diqqat qaratmog‘i lozim. Zotan, munojot Yaratgandan najot va madad tilab qilinadigan pinhoniyl ibodatdir. Agar biz Alisher Navoiyning “*Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi*” g‘azali “Munojot” kuyiga mohirona bog‘lanishi yohud A.Oripovning “*Munojotni tinglab*” she‘rini eslasak, bu hol san‘at va so‘z ahlini befarq qoldirmaganligi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lamiz.

Anglashiladiki, she‘rda ifodasini topgan ruhiy holat bilan bog‘liq kayfiyat-kechinmalarda odam bolasining nafs yo‘lidagi evrilishlari, armonli dunyoning foniyligi, inson umrining g‘oyatda qisqaligi haqida teran o‘ylarga berilgan shoirning dil izhorlari mujassam. Ular muayyan ma’noda, olam sir-sinoati oldida betadbir qolingani oniy lahzalardagi pinhoniyl iltijolardan ruhiy quvvat olgani bois ham kitobxonda muayyan lirik kayfiyat uyg‘ota oladi.

Ha, shoir bitiklaridagi zohiran sokin, ammo botinan po‘rtanavor va zalvorli fikr-tuyg‘ular kitobxonda lirik qahramon ruhiyatiga mushtarak kechinmalar uyg‘otish, uning tasavvurlarini kengaytirishu idrokini charxlashga, sezimlarini muvozanatdan chiqarishga qodir. Muhimi shundaki, shoir bu kabi xo‘rsiniqlarini hamisha ham nolakor ohanglarda izhor etavermaydi:

*Tamaki tutunin ichimga yutdim,
So‘ng qidirdim ichimdan
o‘z so‘zlarimni.*

Ko‘rinadiki, odam bolasining tutumlaridan chekilmish mahzun iztiroblar uning dil tubiga cho‘kadi. Tursun Ali lirik qahramon botinida kechgan bu kabi teran muhokama-mubohasalarni: “*Uzoq uxlo olmay, bir so‘zni qidirdim tonggacha sarson*”, deya ifoda etadi. Chunki so‘zga mas‘ullik hissini tuymoq shoirning a‘moli. Umumbashariy va umuminsoniy muammolarga poetik munosabat

bildirish esa ulkan mas'uliyatdir. Ana shu mas'uliyatni chuqur anglab qalam tebratayotgan shoir ko'ngil qushining talpinishlarini: *“Yolg'iz qushcha sayraydi baland”* tarzida ifoda etadi. Shubhasiz, bu baland pardalardagi kuy ichki g'urur, sobit bardosh va istiqbolga nekbin ishonchdan ruhiy quvvat oladi. Shuning uchun ham shoir *“Yuragimda bardosh qo'shiqlar kuylar”* qabilida o'z ko'nglini ochadi. Bu bilan kitobxon qalbini g'aflatdan uyg'otib, uning diliga mo'jaz bir chiroy olib kirmoq, dunyoni yashnatish, borliqni yorug' va go'zal ranglarda ko'rish nazarini tiyranlashtirmoqdan o'zga muddaosi yo'qligini anglatmoqni tilaydi.

Xalqimizda: *“Oqqan daryo oqmayin qolmas”*, -degan dono naql bor. Buni o'zga bir shaklda ifoda etgan shoir millat yigitlari ichidan Farhod, Majnun, Otabek singari el-yurt fidoyilari, qizlaridan esa Shirin, Layli, Kumush kabi nozik qalb sohibalari chiqishiga zarracha shubha qilmas ekan: *“Uyqudagi nur uyg'onar beshak!”*, deb yozadi. Guvohi bo'lganimizday, bu o'rinda Tursun Ali qadim adabiyotimiz ruhini navqiron she'riyatimizga olib kirmoqda.

Mahmud Ismoilning Marg'ilondagi gullarga oshiyon bog'ida o'tkazilgan mo'jaz bir mushoira kechasida mumtoz g'azaliyotimizning Navoiy, Maxmur, Haziniy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Huvaydo va bir qator zamondosh shoirlarning ash'orlari latif ohanglar ila o'qiladi. Nogoh osmon toqidan *“qurey-qurey”* sadolari yangraydi. Bu Farg'onani tashlab ketayotgan turnalar ovozi edi:

*Osmonga o'rlaydi Adabiyot,
Zaminu falakni chulg'ar She'riyat qalbi.
“Biz qaytamiz” demoqchi bo'ldimi ular,
Farg'onani tashlab ketgan
shoir bolalaridek?*

Anglashiladiki, shoirning nazdida bu turnalarning oddiy *“qurey-qurey”*lari emas, balki *“biz qaytamiz, biz qaytamiz”* degan xayrlashuv nidolari bo'lib tuyuladi. Axir bir paytlar elimizning yuqorida nomlari sanalgan suyukli shoirlari ham bizni tark etishmaganmidi. Mana, bugun davramizga o'z nolayu afg'onlari bilan kirib kelishdiku, degan o'y-xayollar girdobiga sho'ng'iydi shoir. Ko'rinadiki, jo'n odam yetarlicha ahamiyat ham bermasligi mumkin bo'lgan va ayni lahzada kechayotgan she'riyat oqshomiga u qadar daxlsizday tuyuluvchi o'sha manzara-holatdan Tursun Ali ulkan poetik umumlashma topa olgan. Darhaqiqat, she'riyat shunday bir go'zal oshiyonki, u nafaqat olis tarix va bugunni tutashtirmoqqa, balki lahzaning o'zida zaminu falakni chulg'ashga-da qodir.

Tursun Ali she'riyatida yil fasllari ko'p va xo'p qalamga olinadi. Masalan: kuzda daraxtlar bargining sarg'ayishi, shamol ularni yulqilab uchirishi, maysalarni shitirlatishi va nihoyat xazonlarning chirishi g'oyatda tabiiy hodisalar. Biroq Tursun Ali uchun kuz izg'irinida diydirayotgan daraxt shunchaki tabiat

hodisasi emas. Dimog'ida *“chirigan xazonlar ta'mi”*ni tuyib, dardlarini *“yaproqday to'kkan”* shoir yozadi:

*Kuzgi daraxtlar, o,
Taqdir qismatidan qaqshagan kimsani
Eslatar menga....
Bog' tepasida to'lishgan Oy.
Daraxtlar ko'zida jovdirar umid,
Bahorni sog'inib kutar o'rikzor.*

Ayonki, yuqoridagi she'riy parchada umr bevafoqligi haqida ulkan poetik xulosa chiqarilgan. Muhimi, shoir lirik qahramoni o'zining hamisha bahorga intiqiligi bilan diqqatimizni tortadi.

Shoir ruhining teran puchmoqlarida o'zi yaratgan ulkan olam sari talpinadi:
Sevgilim, kel, bundan ketaylik

O'zimiz yaratgan rangin olamga,

deb yozadi Tursun Ali. Chunki she'riyat azal-azaldan xalq va odamiylik ifodasida birinchi navbatda amalni emas, balki qalb va ruh tilaklarini iloh darajasida ulug'lab kelgan. Shuning uchun ham moddiy dunyoning barcha hoyu havaslaridan baland tura bilgan. Buni yaxshi anglab, yuragidan taralayotgan chorlaguvchi kuy ohanglariga quloq tutgan shoir yozadi:


*Otash bor ko'ksingda muattar ifor,
Garchi tegramizda ivirsiydi qish,
Dunyoimda ochilgan boychechaksan sen!*

Darhaqiqat, shoirning dunyosi qishda ham boychechaklar ochilishi mumkin bo'lgan go'zal makon - uzoq sog'ingan ma'vo. Unga yetmoq uchun esa o'zlikdan kechmoq kerak. Binobarin, she'riyat iqlimlariga yuzlangan kishigina: *“Oppoq qor shu'lasiga chaydim yuzimni”* singari poetik misralar bita oladi. Chunki, qorning oqligi, hatto shu'ladorligi ham bor gap. Ammo moddiy ne'mat sifatidagi qorning o'ziga emas, balki uning shu'lasiga yuz chaymoq, ya'ni tabiatdan ulgi olib poklikka yuz tutmoq haqida chin shoirgina o'ylashi, mahorat bilan moddiylashtirishi mumkin.

Tursun Ali nasriy bitiklaridan birida: *“Har qanday mahoratli ijodkor asarini o'quvchiga chaynalgan nondek emas, balki sumalakka solingan toshdek taqdim etsa, o'shanda o'quvchi toshni tilning tagida olib yurgay, ta'mini tuygay”*, deb yozadi. Darhaqiqat, shoir she'riyati yalang'och so'zlardan xoli. Unda inson va zamon ruhining uyg'un suvratlari mujassam. Shu bois ham ularni biz takror-takror o'qiymiz, mag'zini chaqishga intilamiz. Ko'nglimizga yaqin ohanglar, dimog'imizda g'oyatda tanish va totli hislar bo'yini tuyib, oniy lahzalardan tutilgan holatlar tasviri haqida uzoq mulohazaga berilamiz. Ba'zan esa shoir bilan pinhoni munozaraga kirishamiz. Tafakkurimiz guvillayotgan charx, inson

taqdiri - ibtido va intiho aro kezinadi. Ruhiyatimizda iliq bir taft sezamiz. Yuragimizda shodliklar chechak ochadi. Shubhasiz, bu chin ash'or tug'dirgan hayratlardir.

So'ng so'z



Tursun Ali ruhan tuygan, ko'ngil va shuurida anglagan narsa-hodisalar haqidagi hayratlarini moddiylashtiradi. Shuning uchun ham shoir she'rlari kitobxon qalbiga uyg'onayotgan tabiatning go'zal atrini, gullayotgan daraxtlarning tar va nafis iforlarini olib kiradi. Beg'ubor tuyg'u va farahbash ohanglar inson ruhiyatiga nur, uning mudroq qalbiga surur baxsh etib, yorug' kelajak sari chorlaydi. Zotan, shoir lirik qahramoni nozik qalbi ariqlarda shildirayotgan suvlar shiviri, qo'shquloq, yalpiz yanglig' barra maysalarning mayin titrog'i, yuzlarni siypab yengil tebranayotgan majnuntol novdalarining erka qiliqlari, hatto g'ichirayotgan

qor bilan tillashilgan oniy lahzalar tug'dirgan kayfiyatni tinglamoqqa, kitobxon ko'ngil qulog'iga shivirlamoqqa, uning shuurini harakatga keltirmoq, erkin mulohazalariga turtki bermoqqa qodir. Chunki shoir barmoq, kaft, qo'l, soch singari tana a'zolari; qor, yomg'ir, daraxt, yaproq, maysa singari o'simliklar; hatto chumchuq, qarg'a singari qushlar haqida so'zlaganida ham ularga o'z tuyg'u-hissiyotlarini yuqtiradi - poetik ma'no, estetik zalvor baxsh etadi. Natijada u muhabbat, rostgo'ylik, sog'inch, mehr, iztirob va ularning antipodi bo'lgan xiyonat, riyokorlik, g'araz, ta'ma, loqaydlik singari inson tiynatiga daxldor goh taxir, goh shirin mas'ud tuyg'ularga munosabati bilan o'z bedorligini namoyon eta oladi. Ko'ngilda his etilib, shuurda anglangani, poetik munosabat bildirilgani



bois o'zida kitobxon ruhiyatiga ta'sir etish qudratini jo etgan bu jonli kayfiyat-holatlarning goh oshkor, goh ramz-majozli, gohida ishoraviy tarzda ifodasi esa olamu odam manzarasini nazokatli tarzda o'zgartirish, ma'rifatli asosda yashartirish istagidan suv ichadi.

Shoir lirik qahramonlari o'quvchi bilan tillashadi. Zotan, Tursun Ali ruhiyatida kechgan ichkin kayfiyatlarni she'rga soladi, o'z qahramonlariga hayot ato etadi. Uning ayrim she'rlarida donishmandona falsafiy teranlik, ba'zilarida esa zavq beruvchi mayin ohanglar jo bo'lgan. Chunki ularning birlari jonli hayotiy kuzatishlardan kelingan to'xtamlarni, ikkinchilari esa ilhom lahzalarida tutilgan ilg'amlarni ifoda etadi. Shu bois birlari oyu yillar davomida shoir yuragida asralgach, ikkinchisi esa tuyqus qog'ozga ko'chadi. Poetik tizmalar har ikkala holatda ham ruhiyatdagi hayajon, zavq, sog'inchlilar tug'dirgan ma'yuslik, odam bolasining notanti amallaridan keluvchi dilgirlik, junun vodiysidagi yolg'izlik hollaridan o'z shaklu shamoyili bilan tug'iladi. Shuning uchun ham bizning sezimlarimizni sertashvish zamonamiz bilan bog'labgina qolmay, nafosat ufqlari sari ham yuksaltira oladi. Chunki ular kitobxon shuurining eng teran puchmoqlariga shaffof bir nur olib kiradi. Ko'nglining mudroq ko'zini ochadi. Binobarin, millat ma'naviyatini yuksaltirib, uning botiniy nigohini o'tkirlashtiradi.

Anglashiladiki, Tursun Ali – dardli, iztirobli shoir. Chunki u yuragida pavozga shaylangan erkin hislarni so'zga evirish, hamisha o'z so'zini aytish mashaqqatlarini dadil yengib kelmoqda. Chunki, shoir poetik ijodning bu shirin va azobli qiynoqlari so'ngida keladigan farahbaxsh ma'naviy-ruhiy lazzat ta'mini-da yaxshi biladi.

FILOLOGIYA

ULLIBIBI OTAYEVANING IJODIDA AKS ETGAN HAYOTI VA FAOLIYATI

UO‘K 603.21



**Muhtarama
ULUG‘OVA,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat
xodimi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ullibibi Otayevaning hayoti, faoliyati tahlil etiladi. Shoiraning shaxs sifatida jamiyatda, oilada tutgan o‘rni va insoniy fazilatlari muallifning kuzatishlari, zamondoshlarining xotiralari asosida yoritib beriladi.

Аннотация: В статье анализируется жизнь и творчество Уллиби Отаева. На основе наблюдений автора и воспоминаний современников освещается роль поэтессы как личности в обществе и семье, ее человеческие качества.

Annotation: This article analyzes the life and work of Ullibi Otaeva. The poet's role in society and family as a person, as well as her human qualities, are highlighted based on the author's observations and the memoirs of her contemporaries.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Urganch, adabiy muhit, she’riyat, shoira, inson, oila, jamiyat, ijodkor.

Ключевые слова: Хорезм, Ургенч, литературная среда, поэзия, поэтесса, личность, семья, общество, творец.

Key words: Khorezm, Urgench, literary environment, poetry, poetess, person, family, society, creator.

So‘z, fikr – inson qalbining obu havosi, manzaralari, o‘ziga xos surati. Ammo yozuvchi shaxsi bilan uning asarlarida ko‘tarilgan g‘oyalar, muammolar qanchalar mos kelishi yoki kelmasligini muhokama qilish va bunga e’tibor qaratish adabiyotda ko‘p yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki insonning amali har doim ham so‘ziga mutanosib bo‘lavermaydi. Haqiqat, poklik, ilmu ma’rifatga fidoyilik, chin insoniy fazilatlar haqida yozilgan asarlar jamlansa, eh-he, bu tog‘ning balandligi qanday bo‘larkin? Ammo o‘zi aytgan to‘g‘ri so‘zni, haq gapni bayroq qilib yashash har kimga ham nasib etmaydi, chunki gapirmoq oson, juda-a oson, yashamoq esa...

Men bilgan Ullibibining qiyofasi, so‘zlari, yurish-turishida xotirjamlik, osoyishtalik doimiy mezbon edi. Men uning ketma-ket tug‘ilgan erka farzandlarining injiqliklaridan, bolalarcha talabu sho‘xliklaridan ozgina bo‘lsa-da charchagani, noliganini ko‘rmaganman; shoirona ehtiroslardan ovozi tovlangani, jaranglaganini eslolmayman; nazarimda, u xonadoni yoki ish joyidagi biron-bir

muammoni eng yaqin odamlariga ham aytmagan bo'lsa kerak. Ayrim kishilar qalbini daryoga nisbat berishadi, Ullibibi Otayeva ana shunday insonlar toifasidan edi. Yaxshilik, samimiyat, mehr-oqibatlilik, kamtarlik(!), kamsuqumlik uning tabiati, qoni, ruhiyati, yashash tarzining soddayu sipo mezonlari edi. Yuzko'zlaridan muloyim mehr yog'ilib turadigan bu farishtali insonni yo'qotganimizdan so'ng... yillar o'tgani sayin uni ko'proq tushunayotgandek, anglayotgandekman.



“...1977-yilning yozi edi. “Saodat” jurnalida ishlardim, xizmat safari bilan Urganchga borib, mehmonxonaga joylashdim. O'shanda viloyat gazetasi muharririyatida Ullibibi bilan ilk bor uchrashib tanishgandim.

“Qaerga joylashdingiz?” – deb so'ragan Ullibibi mehmonxonada ekanimni eshitgach, bu holatdan shunchalar hayronu norozi bo'ldiki, gapning ochig'i, o'sha paytgacha uyiga mehmonqo'noq bo'lib bormagani uchun kimdandir bu qadar xafa bo'lgan odamni ko'rmagandim. O'sha lahzadayoq ishlarini yig'ishtirib men bilan birga mehmonxonaga bordi, yuklarim bilan kichkina-kichkina ikki xonadan iborat bo'lgan “dom”iga ko'chirib ketdi. Uchta yosh bolasiyu er-xotin bir xonaga joylashib, bir xonani menga bo'shatib berishdi. Shundan keyin qachon Xorazmga yo'lim tushsa, xuddi o'zimning uyimga kelgandek Ullibibining darvozasidan kirib kelaverardim. Eng chiroyli jihozlangan xonani menga ajratib berishardi. Yana bu ham yetmaganidek, xorazmliklar taomiliga ko'ra, o'sha xonada yolg'iz o'zimga dasturxon solar, oldimga choynak-piyola qo'yib, Xorazm taomlarini tayyorlash taraddudiga tushardi. Supra yoyib tuxum barak uchun xamir qormoqqa shaylanganda, oshxonada uzundan-uzoq kuymalanishini hohlamasdim, ko'proq gaplashgim kelardi. Lekin Ullibibi: “Mening onam mezbonning oshxonada ko'p band bo'lishi – mehmonga hurmatining bir belgisi, deb o'rgatgan”, – deya boshlagan ishini oxiriga yetkazardi” (1).

Qandaydir muhim mavzularda uzundan-uzoq suhbatlashganimizni eslolmayman, men – Toshkentda, Ullibibi – Urganchda. Yilda bir-ikki marta xizmat safari sababidan uchrashib qolardik. Xorazmga borganimda ham, aslida, oilaning tinchini buzish, ularni ortiqcha tashvishga qo'yishni sira istamasdim, ammo boshqacha bo'lishining iloji yo'q edi: Ullibibi bilan ikkimizni ijodkorlik yoki qadrdonlik rishtalarigina emas, qalban yaqinlik bog'lab, meni unga tortib turardi. U nisbatan juda tortinchoq, men esam ko'nglimga kelgan gapni aytmam xotirjam bo'lmaydiganlar toifasidan, bir qarashda o't bilan suvdek. Turmush

o'rtog'i Odilbek bilan sinfdosh bo'lganligi uchun, oilaviy hayot yo'llarida ham maktab yillaridagi samimiyat davom etar, ular orasida aksariyat xotinlar eriga ko'rsatadigan (ba'zan chin dildan, ba'zan... murosayu madora uchun) ortiqcha mulozamat yo'q edi. Ullibibining gap-so'zlari, uy yumushlari, xizmat vazifasi bilan bog'liq tashvishlari qanday bo'lsa, Odilbek aka ularni shundayligicha qabul qilar, arzimagan sabab bilan bo'lsa-da, gaplari kelishmay qolganini hatto sezmaganman. Bizning Farg'ona vodiysi ayollari nisbatan ancha muloyim, turmush yo'ldoshiga munosabatda o'ta ehtiyotkoru andishali bo'lganligi uchun, Ullibibining Odilbek aka bilan xuddi o'rtoqdek gaplashishini men hech hazm qilolmasdim. "Yaxshiyam vodiya kelin bo'lib bormagansiz", – deb fikrimning dalili uchun qator asoslar keltirib tashlardim. Shunda: "Bu qi-iz yomon ekan", – derdi hamma otashin pandu nasihatlarimga javoban, ko'zlarida mehr jilvalanardi. Ullibibining har qanday fikru mulohazani jilmayib qabul qilishi nigohimga muhrlanib qolgan.

Shu o'rinda menda bir imkoniyat tug'ildi: Odilbek aka shaxsiga aytishim kerak bo'lgan minnatdorchiliklarim bor. Hozirgi kun jurnalisti o'z hamkasbining xizmat yuzasidan yuk mashinasining kabinasida yurganini kinolarda ko'rgan. Mening ham kinolardagiga o'xshagan xotiralarim bor: Xorazmning yozini ichida o't yonib turgan tandirning yonginasi, derdim. Qishida esa "sovuq u yog'ingdan teshib, bu yog'ingdan o'tib ketadi" degan iboraning ayni isbotini ko'rish mumkin edi, nazarimda. O'shanday qish yoki yoz kunlarida xizmat safariga borib qolsam, qurilish tashkilotida ishlaydigan Odilbek aka o'ziga biriktirilgan yuk mashinasini yuborar, uzoq-yaqin tumanlarga o'sha mashinaning kabinasida o'tirib borib kelardim... Kitob javonimdagi yozuvchi Lev Tolstoy asarlarining jildlari Ullibibini eslatadi. O'sha paytlarda yaxshi kitoblar sotib olish yoki ularga obuna bo'lish uchun ham tanish-bilish kerak bo'lardi. Men Tolstoy asarlariga obuna bo'la olmaganimni eshitib, Bibi uning to'liq to'plamini Odilbek aka orqali yuborgandi. Ish yuzasidan Toshkentga kelgan Odilbek aka ularni bitta-bittalab keltirib bergandilar. O'ta madaniyatli bu ikki insonning bir-birini qanchalar tushunishi, qadrlashi, maqsadlarini qo'llab-quvvatlashi, bir-birini xursand va rozi qilish uchun hamisha shay ekanliklarining ifodasi bo'lgan bunday yaxshiliklardan men kabi yana qancha odamlar bahramand bo'lgan ekanlar...

Bunchalar bag'rikeng, ko'ngli daryo odamlarni juda kam ko'rganman. Farzandlari yoshlik paytlarida ota-onalarining ko'ngli yumshoqligini me'yorida ham ortiq darajada suiste'mol qilishardi: injiqlik, erkalik shu darajada ediki, mehmon bo'lishimga qaramay, ba'zan asabimni zo'rg'a jilovlab turardim. Lekin har qanday vaziyatda ham Ullibibining yuzidan mayin-mehrli tabassum arimasdi. "Ekkaningni o'rasan", deganlaridek, o'g'illari va qizi Umidaxon shunday insonlar

bo'lib voyaga yetdilarki, ularning jismi, qalbi parvarishu mehr-muhabbatga to'yingani yuzi, ko'zi, so'zi, odamlarga munosabati, hayotda qo'ygan qadamlaridan shundoq anglashilib turadi. Faqat ona diydori, mehr-muhabbatiga to'yib bo'larkanmi, ona sog'inchining taskini bormikin... bu sinovni Alloh ularning ikki dunyosi uchun xayrli mukofotlar bilan taqdirlasin.

Aksariyat ayollarga xos bo'lgan ojizlik desammi yoki ojizalikning o'ziga xosligi desammi... maishiy muammolarga tobelikdan yiroq edi Ullibibi. Hayotda, ro'zg'orda bekamu ko'st, liboslari did bilan tanlangan, xullas, turmushi bekamu ko'st edi, ammo bular namoyish uchun emas, insonlarga xos madaniy, sog'lom hayot kechirish uchun xizmat qilardi, vassalom. Uning moddiy xoyu havaslarga, bu sohada borini ko'z-ko'z qilishga, atrofdagilardan orqada qolmaslik yoki oldinga o'tib olish uchun salgina, sa-algina bo'lsa-da harakati, intilishi, ehtiyoji yo'q edi.

Davralarda ehtiros bilan she'rlar o'qishga tortinchoqligi yo'l qo'ymasmi yoki o'zi buni hohlamasmi?.. Qolaversa, uning she'rlari ehtiroslarni alangalatish, olqishlar uchun emas; bu she'rlar qalbingni uyg'otadi, qalbing bilan yuzma-yuz turib o'zingni, hayot hikmatlarini anglashingga yo'l ochadi. Uning she'rlari taniqli shoira Saida Zunnunova aytganidek, "ishq izhor etgandek sehrli, mayin shivirlab" qalblarga yo'l soladi. Endi... yillar o'tib Ullibibining adabiy merosini qayta o'qirkanman, xotira bo'lib qolgan uchrashuvlarimiz, suhbatlarimizda unga navbat bermay o'z yozganlarimni bir-biriga ulab o'qiyverganim, aqllilik qilib nimalarnidir o'rgatmoqchi bo'lganimni eslab xijolat tortaveraman. Ichki madaniyati, ma'naviyati yuz-ko'zlariga nur taratgan u ma'suma qadrdonim kamsuqumlgi bilan ham qanchalar izzatga munosib edi!

"Ullibibi desam, ko'z oldimga yana shoira hayotining keyingi yillarida harfu so'zlarini sinchiklab o'qigan, o'rgangan kitoblar – hazrat Mir Alisher Navoiyning devonlari keladi. Men ularni dugonamning vafotidan keyin, "O'zbekiston" teleradiokanalining topshirig'i bilan ko'rsatuv tayyorlash uchun xonadoniga borganda ko'rdim: Navoiy asarlari jildlarida Ullibibi nigohlari, qo'llarining izi, satrlar orasida, sahifalar qirg'oqlarida qalbining muhabbati va hayrati e'tirolari qalam bilan yozilgan edi. Aytishlaricha, u yirik bir asar yaratish niyatida bo'lib, bunga tayyorgarlik ko'rayotgan ekan" (3)...

Qariyb qirq yillik xotiralarimning muxtasar surati – shular. Hayotning, bu dunyoda aziz bo'lgan jamiki narsalarning g'animatligidan yana bir karra ibrat – Ullibibi tengqurlarimiz orasida boqiy dunyoga tezroq ketdi. Nimalar qoldirdiyu nimalar olib ketdi – endi va oxir-oqibat mana shu savolning javobidan ko'ngillar taskin izlaydi. Beozor, mehnatkash, fidoyi, saxovatli, mehmondo'st, ilmu ma'rifatga oshno, kamtaru kamsuqum, o'zgalar qalbini avaylagan... – mana shu fazilatlaridan bahra olgan dillarda o'ziga nisbatan muhabbat, minnatdorchilik,

yorug‘ xotiralar qoldirdi. Ayni shu fazilatlari sababidan hamda dildan qilingan duolar sharofatidan Uning chin dunyosi obod bo‘lishidan umidvormiz, inshaalloh.

Taqdiri azalda ismi jismiga munosib yaratilgan, deb shunday odamlarga aytsa kerak. Atirgul niholi yana bir gul umrini yashamoq uchun qahraton qish izg‘irinlarini, qorli-qirovli kunlarni, ilk bahorning ayamajizu dovullarini go‘zal sabot bilan yenggani kabi, Ullibibi ham

Barchani hayratga solib, yomonlikni

Yaxshilikka yalintiraman, –

degan orzu bilan hayotning qanchadan-qancha og‘ir dardlarini ko‘tarib yurdi. Shoirlik da‘vosidan begona... ona farzandini sevgandek she‘riyatga go‘zal, jonga tutash tuyg‘ular bilan bog‘langan edi.

Og‘ir xastalik dugonamizni manguлик dunyosiga erta olib ketdi. Hayotining so‘nggi yillari, so‘nggi nafasigacha iroda, e‘tiqod sinovidan o‘tdi. Shoira qalbiga umrini barvaqt xazon qilmoqqa chog‘langan dardi bedavoning azoblaridan ko‘ra, XX asr ikkinchi yarmidagi insoniy munosabatlarning jarohatlari, qabohatlari, jamiyat noqisiliga o‘zini ham sababkor deb his etmoq og‘riqlari ko‘proq azob berganiga she‘rlari dalil:

O‘lganga kuymaslar bizning zamonda,

Yo‘qolgan narsaga kuyarlar.

Diydorga to‘ymaslar, to‘ysalar faqat

Ziyofat oshiga to‘yarlar.

Ko‘zi qiymas to‘zar, rangi o‘char deb

Saratonda yangi ko‘ylak kiyishga.

Lekin bolasini ko‘zi qiyarlar

Qoq peshinda dalalarga qo‘yishga (2).

Ullibibi 1990-yillargacha Xorazm viloyat gazetasida ishladi. Jamiyat uchun barcha jabhalarda faoliyat ko‘rsatayotgan ayollarning bittasi, jamoasi uchun esa har kuni gazeta sahifasiga belgilangan miqdordagi satrlardan iborat material topshirishi shart bo‘lgan xodim edi. Yillar o‘tdi, Alloh bag‘rini, xonadonini besh farzand bilan to‘ldirdi. Endi chin ayollik, onalik saodatidan bahramand bo‘lib yashash uning oddiy insoniy haq-huquqi edi. Lekin amalda jamiyat uchun birinchi navbatda ishchi kuchi bo‘lib qolaverdi. Chegara bilmas onalik mehr-muhabbati, tushlariyu hushlarida farzandlarini erkalashga, komil insonlar qilib tarbiyalashga talpingan tuyg‘ular uyquga to‘ymagan bolajonlarini erta tongdan bog‘chaga sudrab chopishlarda to‘kildi, sochildi... tongdan boshlanib yarim tungacha davom etadigan uy yumushlaridan toliqqan jismu ruh o‘z-o‘zidan xijolatu qarzdorlik iztirobi bilan uyg‘onaverdi.

Torayib qolgandir tabiat bag'ri,
Ko'zim teshilgudek kenglik so'rayman.
Topolmay garangsib, asabiylashib,
O'g'limga baqirib, qizimni qarg'ayman.

Ullibibi o'z taqdirida ming-minglab ayollarning qismatini ko'rdi – qalb og'riqlarining ildizi mana shunda. Qoniga, ruhiyatiga ro'zi azalda omuxta etilgan chin ayollik baxtini orzu qildi:

Men uchun yo'q tungi navbatchiliklar,
Uyda cho'riliklar,
Ishxonada zir
Yugurib-yelishlar...
Horib kelishlar...
Sokin oqib yotgan daryo emishman,
Chapu o'ng qirg'og'im – ikki zar beshik.
Mendan boshlanarmish boshi yo'q dunyo,
Mendan ochilarmish dunyoga eshik.

Zero, onalar baxti farzandlar iqbolini yo'rgaklaydi, ulg'aytiradi.
“Bolamassan, boshga bitgan balosan!” – degan daydi o'qday hukmni eshitgach,
Birdan ma'yus tortadi bola,
Sakrayolmas endi paxsadan.
–O'g'lim, uchar qushmisan? – so'zin
Kutgan edi bola onadan.

Maysalar, gullar, daraxtlar, daryolar kabi erkin yayrab yashamoqqa, dunyoni bezamoqqa haqlidir Mehr, Muhabbat! Uning nafasлари siqilganda, qanotlari qir qilganda, hayot tomirlaridan oqayotgan qon shunchaki suyuqlikka aylanib qoladi, nazdimda. Holbuki, kelajakning ezgu kurtaklari ayol – ona qalbining ipakdek mayin haroratini his etgan sayin uyg'onaveradi, ulg'ayaveradi.

Men aralash ekaveribman
Bug'doy, arpa, gulni, tikanni.
Sen og'rinmay teraver, bolam,
Bu – dehqonmas, onang ekkani.

She'rlarini o'qigan sayin xayoliy bir manzara tuyaman: Ullibibi qalbining kechmishlari mehr-muhabbatining keng darichalaridan yog'ilgan nurga yuzini yuvib balqiydi.

Sevgim, meni osmon qadar yuksaltding,
Hok etding, pok etding tuproqday, nurday.
Qulluq, qo'llar yetmas yuksaltganingga,
Shukur, tuproq qadar hok etganingga.

Mehr-muhabbatning tambalangan eshiklarini ochmoqdek mushkul vazifani uddalamoqqa urinadi:

Maktublar yo‘l layman sog‘inchlar to‘la,
O‘zim o‘z nomimdan o‘z manzilinga.
Ochaman titroq qo‘l, yoshli ko‘z bilan,
Qarolmay yuraman lekin yuzimga.
Meni ishg‘ol etsa shodlik lashkari,
Yo‘yaman otingga – sharofatingga.
Qayg‘uga cho‘mib g‘am loyiga botsam,
O‘ylayman: bu – mening kasofatim-a. (4).

Garchand xastalik bilan ancha yillar olishgan bo‘lsa-da, shoiraning umidsiz, dardga yengilgan satrlari yo‘q. Chunki u bu yorug‘ dunyoda uzoq yillar yayrab-yashnab umrguzaronlik qilish orzusi bilangina yashamadi.

Menga dahshatlidir orzularimning
Ucholmay, men bilan yerga kirishi.

Ullibibi Otaeva farzandlari kamolga yetib, qaddi-qomatiyu qalbi chiroyli insonlar bo‘lganlarini ko‘rdi, she‘riy kitoblari bosilib chiqdi. Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlari ummoniga g‘arq bo‘lib, asl ilohiy bahrdan imon-e‘tiqodi suv ichganidan qanchalar baxtli edi!

...Qo‘sh kelinlar xonadoniga qadam qo‘yishlaridan oldin hoki turobini ziyorat qilishdi. Yolg‘izgina qiz Umidaxon ham ona bo‘ldi. Behzodbekning qizi – katta nabiraga Ullibibi deb ism qo‘ydilar.

Maktab partalaridan boshlab sevib ardoqlagan, sadoqatli turmush yo‘ldoshi Odilbek aka Ullibibining “Shukrona” she‘riy to‘plamini nashr ettirdi.

Nabiralar o‘z otalari, amakilari Firdavs, Behzodbek, Bunyodbek,

Hayotbekning bolaliklarini eslatadi– uyni boshlariga ko‘tarib sho‘xlik qiladilar. Qator o‘tirib chizishga, yozishga, o‘qishga tushadilar. Hamon bu xonadonda farzandlar, mehmon, inson qadri, kitoblar, she‘riyat va albatta, validai muhtaramaning xotirasi aziz, e‘zozli.

Ullibibi qalbimda jilmayib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Ulug‘ova. Xotiralar daftari. Shaxsiy arxiv.№ 5.
- 2.U.Otaeva, “Shukrona”, G‘.G‘ulom nomli Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent-1996 yil, 17-bet.
- 3.Odilbek Yoqubov xotiralari. Urganch, 2005-yil.
- 4.U.Otaeva, “Shukrona”, G‘.G‘ulom nomli Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent-1996 yil, 34-bet.

FILOLOGIYA

ADABIYOT O‘TKINCHI HAYOTNI MANGULIKKA MUHRLAYDIGAN VOSITA



Qozoqboy Yo‘ldosh

*Pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy
Yo‘ldosh bilan Anvar Allambergenov suhbat*

SAVOL: *Domla, Najmiddin Kubro “Kim dard cheksa, o‘shal insondir”, hazrat Navoiy esa “Ko‘ngil ichra g‘am kamlig‘i asru g‘amdur, Alam yo‘g‘i dag‘i qattiq alamdur” degan bo‘lsa, Boborahim Mashrab “Dilda darding bo‘lmasa dardi sarimni kavlama” deya o‘zlarining dard haqidagi qarashlarini bildirgan. Ular dardsizlikni dard, dardni esa baxt deb bilgan. Ulug‘larning dard haqidagi qarashlari shu yo‘sinda edi. Asrlar to‘fonidagi evrilishlar natijasida bugungi kun adabiyotida, ijodkor shaxsida va ijodida dard qanday shakl-u shamoilga do‘ndi?*

JAVOB: Vahimali savol beribsiz. Bunga javob berish oson emas. Lekin bir haqiqat borki, har qanday ijod, ayniqsa, adabiyot faqat darddan iborat. Shuning uchun ham o‘sha: “Dilda darding bo‘lmasa dardi sarimni kavlama”, – degani shu. Chunki dardi bor odamgina o‘zga odamning ruhiyatini, holatini, istag-u hohishlarini bir qadar bo‘lsa ham tushuna oladi. Bu yerda “dard” kasallik ma’nosida emas, olam hodisalaridan bezovtalanish, olam hodisalariga ruhiy munosabat bildirishdir. Bu o‘rinda siz ham savolingizda shuni ko‘zda tutgansiz. Dard hamisha badiiy ijodning ma’nosi, mohiyati bo‘lib kelgan. Aslida: “dilda g‘amning kamligi o‘sha g‘amdur”, – degani chin haqiqat. Afsuski keyingi vaqtda dard degani shaxsiylashib, xususiylashib borayotir. Yaratgan Alloh ijodkorni dunyoga keltirayotgan vaqtda, almisoqda uning ruhini belgilayotgan vaqtdayoq

unga adoqsiz, chek-u chegarasiz dard berib qo'ydi va u umri davomida ana shu dardda, ana shu dardning girdobida, o'pqonida aylanib hayot kechiradi. Kimningki katta dardi bo'lsa, o'sha katta iste'dod hisoblanadi. Ko'pincha odamlar katta dard egasini tushuna olmay juda qiynalib ketishadi: Abdulla Oripovga nisbatan hayotining keyingi o'n yilligida "Abdulla Oripovga o'zi nima yetishmaydi? Buncha shikoyat qiladi?" – deyishdi odamlar. Biz kabi oddiy odamlar Abdulla Oripovni o'zimizning qarichimizda o'lchamoqchi bo'lamiz. Uning hayotdan noroziligiga endi: "Qahramon bo'lsa, qo'sha-qo'sha uylari bo'lsa, farzandlari bo'lsa, son-sanoqsiz boyliklari bo'lsa, nima yetishmaydi unga?" – degan savollar qo'shildi. Unga ana shu darddan qutulish yetishmaydi. Uni Yaratgan Egam yaratayotgan vaqtida ko'ngliga o'sha dardni joylab qo'ygan. Iste'dod degani, aslida dard degani. Qancha katta iste'dod bo'lsa, demak unda shuncha katta dard bor. Navoiy vazir bo'la turib, podshoning amriga 9 marta qarshilik qilish huquqiga ega bo'la turib, bir umr dard chekib o'tdi va yana shukrona qilib, dard yo'qligi asru g'amdir, deb ham aytib turibdi. Demakki, ijodkor degani – iste'dod degani, ana shu dard degani. Shu ma'noda bizning hozirgi kunga kelib bu dard juda xususiylashib ketmadimikin deb odamda ozgina xavotir paydo bo'ladi. Nimaga? Nima deganimiz bu? O'zi dard hamisha xususiy-ku! Bitta subyekt tomonidan chekilgan dard hamisha subyektiv bo'ladi. Lekin gap shundaki, o'sha subyekt ko'pincha o'zidan tashqari dardi bilan og'riydi. Masalan, Abdulla Orif 65-yillarda: "Million egatlarga sochilgan o'zbek", – deydi. Yoki: "Rangpar kishi ko'rsa og'riydi qalbim", – deb nola chekadi. "Singlim, sen bir rangparsan", – deydi va bu ana shunday dard. O'shaning dardi bilan "Quyuq tutun ko'rsam ko'nglim to'ladimi", deganga o'xshash satrlari bor, ya'ni uylaridan suyuq tutun emas, quyuq tutun chiqsa odamlar boyroq yashay boshlasa, odamlar odamga o'xshab kun kechira boshlasa men baxtiyor bo'laman deb yozdi. Unga nima edi aslida. Raisning o'g'li edi, uchta akasi bor edi. Maktabni oltin medal bilan bitirgan edi, universitetni qizil diplom bilan bitirgan edi, uning yo'llari ravon edi. Lekin unga o'zining ravon yo'llari emas, insoniyatning farovonligi, insoniyatning komilligi, insoniyatning pokizaligi

muhimroq edi-da! U ta'na qilmay: "Sevgim mukofotini, inson uchun ming otashda kuyar edim men. O', qanchalar sevar edim inson zotini, qanday buyuk muhabbatla sevar edim men", – deb dod soladi. Shunday holatlar sizning savolingizga javob bo'ladiki, dard iste'dodni hech qachon tark etmaydi. Jamiyatda bitta iste'dod bo'lsa, demak, bitta dardmand bor. Jamiyatda mingta iste'dodli odam bo'lsa, demak, mingta dardmand odam ham bor. Men endi boya biroz xususiylashib ketayotir deganim, global hayot nihoyatda shiddat bilan ketayotgan vaqtda odamni o'zgalar haqida o'ylashdan bir chalg'itib qo'yayabdi hozir. Odam ulgurolmaydigan, bashariyat hayotining shunday bosqichi boshlandiki, endi odam hech narsaga ulgurolmaydigan bo'lib qoldi. Ana shu ulgurishga intilish cheksiz yugur-yugurlarning ichida katta iste'dodlarimiz ham, katta daromadlilarimiz ham dardga vaqt sarflashning o'rniga mo'ljaldagi manzilga yetib olishni, qo'lga kiritishi kerak bo'lgan ishni eplab olishga urinib, o'zlarining asl qiyofalarini, asl dardmandlarini yuzaga chiqara olmayabdilar, deb o'ylayman. Albatta, bu mening subyektiv qarashim. Lekin baribir Alloh bizning millatni talantlarimizdan qismagan. Mana, hozirgi ana shunday noliblar yotgan zamondan ham yoshgina, hali 25 ga yo borgan, yo bormagandir, Jontemir Jondor degan bir shoir yigit paydo bo'ldi. Olovli bir adoqsiz dardning olovida yonib yotibdi. U o'zining muammolari bilan emas, balki o'ziyam bilmaydi nimadan norozi, nimadan ko'ngli to'lmayotganini, nimaga intilayotganini ehtimol, u hali odamzod Allohni rozi qiladigan darajaga yetishiga juda uzoq ekanligini ko'rib turibdi va uning butun iste'dodi ana shu holatdan norozilikni, ana shu holatga isyonni, Allohdan tobora uzoqlashib borayotgan qavmni Yaratganga yaqinlashtirishni, buning uchun nafs istaklaridan voz kechib, muhabbat yetovida yurish kerakligini orzu qiladi shekilli. Yoki yoshi kattaroq Sanobar Mehmon degan bir shoir qizimiz bor. Ana shuning bitiklaridayam shunday buyuk bir dard anqib yotadi-da. Demoqchimanki, demak, XXI asr go'yo dardsizlar asriga o'xshaydi. Odam o'zidan boshqaning tashvishi bilan og'rimaydiganga o'xshaydi. Bir-biriga oqibat ko'rsatayotganlar kamayib ketayotganga o'xshaydi. Lekin bu - o'xshaydi. Chunki, bizda manzillarimiz qisqa-qisqa. Nafs manzillarimiz qisqa va aniq ko'rinib turadi. Odam ana shu aniq

manzilga intilib o‘rgangan. Lekin aslida Yaratgan Egam bizning hozirgi kunimizga yarasha ana shunday dardmandlarni berib qo‘ygan.

SAVOL: *Hozirjavob janr deb ta’riflanadigan hikoya bugungi kun voqeligini yoritishda haqiqatdan ham hozirjavoblik qilmoqdam?*

JAVOB: Masalani mana shunday qo‘yish unchalik ham to‘g‘ri emas, Anvarbek. Chunki u sovetlardan qolgan yondashuv. Sizlarga endi bizlardan meros bo‘lib o‘tibdi-da. Aslida adabiyot hozirjavob ham bo‘lishi kerak emas, zamonaviy ham bo‘lishi kerak emas. Chunki u adabiyot! Hikoyadir, essedir, qissadir, romandir, 3 qator, 4 qator she’rdir. U adabiyot bo‘lishi kerak, u badiiy bo‘lishi kerak. Bunday masalani jurnalistikaga nisbatan qo‘ysa bo‘ladi. Chunki u javob berishi kerak. Insonlarning chaqirig‘iga, talabiga munosabat bildirishi kerak. Javob berishi kerak emas, u ham munosabat bildirishi kerak. Adabiyot esa o‘tkinchi hayotni manguликka muhraydigan vosita. O‘tkinchi lahza sizning ko‘nglingizdan o‘tgan yo nafratni, yo qayg‘uni, yo quvonchni manguликka muhrlaydi. Chinakam adabiyot ana shu. Adabiyot haqida men shunday o‘ylayman. Bugungi kunda yaxshi hikoyalar yaratilyaptimi, degan savol tug‘iladi. Juda go‘zal hikoyalar yaratilyapti. Bizning adabiyotda juda ko‘p ijodkorlarimiz, tadqiqotchilarimiz ko‘pincha “O‘zbek adabiyotida qo‘lga, pichoqqa ilinadigan adabiy asarlar yaratilmayotir”, – deb yozishadi. Aslida bu iddaolari, yozg‘iriqlari bilan o‘zlarining adabiyotdan yiroq ekanliklarini ko‘rsatadilar, xolos. Bugungi o‘zbek adabiyoti juda katta adabiyot! Afsuski, katta o‘qirmani yo‘q adabiyot. Adabiyot hech qachon o‘nglanmaydi, agar unda katta o‘qirman bo‘lmasa. Chunki adabiyot ne‘mat o‘laroq paydo bo‘lgan. Adabiyot: bitta subyektning ko‘nglidagi dardlarni o‘zga odamlar ham ilg‘armikin? Menga dardmand bo‘larmikin? – deb aytadi. Men dardlarimni bo‘lishayin deb yoziladi asar. Chinakam asl asarlar hozirjavob asarlar emas. Uning dardlarini hech kim ilg‘amasa, dardlariga munosabat bildiradiganlar bo‘lmasa, uning yuragidan qon bo‘lib silqib yotgan og‘riqlarni hech kim sezmasa, u qolaveradi. Adabiyot g‘alati narsa, adabiyot bor narsa. Lekin kimga? – Faqat o‘qiganga. O‘qigan odamgagina adabiyot, o‘qimagan odamga umuman yo‘q

adabiyot. Shuning uchun birovlar oxirgi marta 80-yillardami, 70-yillardami badiiy asar o'qigan. Bundan buyog'iga turmush og'irlashib ketdi, turmush tezlashib ketdi, o'sha tasavvur bilan yuribdi. Go'yo unga kelib birov adabiyotni o'qitib qo'yishi kerakdek. Chinakam adabiyotni izlab o'qiydilar, baho beradilar. Mana, siz hikoyalar haqida gapirdingiz, Zulfiya Qurolboy qizini, Shukur (Sh.Xolmirzayev-A.A.) akani aytib o'tirmayman. Sh.Xolmirzayev o'z hikoyalari haqida: "Jahon darajasidagi hikoyalar meniki", – deb bemalol aytardi va to'g'ri aytardi. Millatdagi mo'ljalning adashgani shundaki, "Jahon adabiyoti" degan maxsus jurnalimiz bor. Bu yerda dunyo adabiyotining yaxshidir, yomondir namunasi tarjima qilinadi. "Kitob dunyosi" degan gazeta ham borgan sari tarjima gazetasiga aylanib boryapti. Holbuki, o'zimizning adabiyotimizdan chiqmay yotgan, chiqishi kerak bo'lgan juda go'zal asarlar yaratilyapti. Deylik, men Jontemirning asarlarini ham adabiyot gazetasida, ham "Kitob dunyosi" gazetalarida bostirishni, Sanobar Mehmonning she'rlari ana shu men aytayotgan nashrlarning hammasida qayta-qayta chiqishini istayman. Ularga o'xshagan shoir-yozuvchilar Xudoga shukrki, bizda ko'p. Bitta emas, ikkita emas – ko'p! Va men shuni orzu qilgan bo'lar edim. Lekin boringki, mana hikoyalar ma'nosida ham "Kitob dunyosi"da tarjima qilib chop qilinayotgan, "Jahon adabiyoti"da chop qilinayotgan, turli boshqa nashrlarda chop qilinayotgan tarjima asarlar bilan bizning bugungi kundagi yaratilayotgan hikoyalarni solishtirib ko'rsangiz ham juda uyaladigan ahvolda emasligimiz ma'lum bo'ladi. Masalan, Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur", "Ayol", "Yozsiz yil", "Yolg'izning qismati" degan hikoyalari dunyoning eng shedeвр asarlari bilan bemalol bellashadi. Yoki Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare", "Muhtalo" hikoyalari juda yirik hikoyalar. Faqat u hikoyalar yaxshi, faqat u hikoyalarni o'qib ulardan ta'sirlanadigan o'qirmanlarning va uni tadqiq qilib beradigan siz bilan menga o'xshagan mutaxassislarning mazasi yo'q, xolos. Ana shuni bilmasdan, o'zimizcha og'zimizning bir chekkasida bugungi o'zbek adabiyotida o'qiydigan narsa yo'q deb yuraveradi. O'qimasang yo'q. Nima bo'libdi? Navoiy bizda bormi? Navoiy yo'q o'zi aslida. Chunki Navoiyning faqat otini o'qiymiz biz. Stakanga quyib kelgan dorini sirtdan yalagandek gap bizda hozir. U bizga ta'sir qilmaydi. Chunki

biz uni yutmayabmiz. Dori stakanni ichida chiroyli turibdi. Biz uni faqat sirtini yalayabmiz, ichiga kirmayabmiz. Mohiyatini ichimizga singdirmayabmiz. Navoiy shuning uchun uzoq bo‘lib, tushunarsiz bo‘lib turaveradi. Navoiyga borish kerak, u kelmaydi. Adabiyot ham shunaqa, u hech kimning oldiga kelmaydi. Adabiyotga borish kerak. Chunki borish senga foyda keltiradi. Sen tozarasan, sen yasharasan. Yaqinda buyuk shoirimiz Usmon Azimning uchlik hikoyasi chiqdi. Qahramonlari ma’lum darajada bosh qahramon bo‘lmasayam, uchlik hikoyasini “Triptix” deb atadi. 1-hikoyasi “Ishxonadagi ko‘rgazma”, 2-hikoyasi “Bir quchoq atirgul”, 3-hikoyasi “Xodimlar bo‘limining boshlig‘i”. Uchta hikoyani ko‘rib shunday suyunib ketdimki, ko‘z tegib qolmasaydi, Usmonga deb o‘yladim. Shu qadar go‘zal bitilgan, shu qadar odamning yuragidagi eng nozik torlarini chertishga qudrati yetadigan, odamning odam ekanligini belgilaydigan omillar aslida nimadan iborat ekanligini ko‘rsatib berish qudratiga ega bo‘lgan asarlar. Men bu haqida yozdim. “Adabiyot va san’at” biroz qisqartirib ham chiqardi. Biz hali ana shularni hazm qilishimiz kerak. Bizning tadqiqotchilarimizning, ayniqsa, sizga o‘xshagan yosh olimlarning oldida ana shularning mohiyatiga yetib bormoq, qanday qilib shu darajaga yuksaldi Usmon Azim, qanday qilib shunday odam zotining o‘zi ham ilg‘amaydigan ruhiy to‘lg‘amlarni, ruhiy to‘qishlarini bu qadar ingichka ko‘rsatib berdi, degan savolga javob berishimiz kerak. Holbuki, ko‘pchilik hali uni o‘qib ham chiqqani yo‘q. Bu ilmimizning juda orqada qolganidan dalolatdir. Yoki adashmasam, 2019-yilning oxirlarida Nazar Eshonqulning “Farishta” degan hikoyasi chiqdi. Bilmayman, bunday hikoya yana qaysi xalqda bor. Qachon bo‘lgan. Nazarimda bu hikoyani ko‘pchilik o‘qimagan. Bizning yozuvchilarimiz bir-birinikini o‘qimaydi. Ular o‘qisa daholikdan tushib qoladi. Olimlarimiz, o‘qirmanlarimiz o‘qimagandan keyin uning daholigini kim biladi? Nazar Eshonqulning navbatdagi bitta hikoyasi bo‘lsa kerak, deydi. Bu yerda butun boshli ma’naviy qadriyatlarning almashinuvi, ularning bir qismi sinib, o‘limga mahkum bo‘layotgani va uning o‘rniga shafqatsiz – odamni his qilmaydigan, dardni tuymaydigan ikkinchi bir qadriyatlar qaror topayotganligi shunaqa mahorat bilan

haqqoniy tasvirlanganki, uni o'qiganingizdan keyin adabiyotimiz, juda katta hikoyachiligimiz borligini ko'rasiz!

SAVOL: *Zamonaviy o'zbek adabiyoti ijodkorlaridan qaysi birining ijodi Yevropa gazi bilan o'lchaganda ham bemalol jahon adabiyoti bilan bellasha oladigan ijod namunasi sohibi deb hisoblaysiz?*

JAVOB: Umuman, bizning adabiyotimizni Yevropaning gazi bilan o'lchamaslik kerak. Bizning o'zimizning gazimiz bilan o'lchasak ham ilgari 1 gaz – 80 sm bo'lar edi. Hozir ham o'shanday. Yevropaniki ham 85 emas. Demoqchimanki, bizning gazimiz ham Yevropanikidan qolishmaydi. Bu endi faqat egamanlikdan keyingi yutuqlarimiz emas. Bu deylik, o'sha ayni sovetning quturgan vaqtida, gullagan vaqtida ijod qilgan G'afur G'ulom-u Oybek-u Qahhorlar, buyog'i Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirza, Abdulla Orif – bular kichkina adabiy hodisalar emas va ularning hech qaysisi ham o'rgamchi ijodkorlar bo'lmagan. Hamda ularga qanday gaz kerak bo'lsa, o'shanday gazga javob beradigan ijodkorlar. Olmaning tagiga olma, shaftolining tagiga shaftoli tushadi, degan gap bor. Shu kechagi katta adabiyotning vorislari bugun ham qurib ketgan emas. Bugun ham Halima Xudoyberdiyevaning she'riyati dunyo she'riyatining istagani bilan bellasha oladi. Shavkat Rahmonning dardli she'riyati, Cho'lponning oh-vohlari darajasidagi she'riyat, bugungi kunda ijod qilayotganlardan Usmon Azimning she'riyati deymizmi, nasri deymizmi, dramaturgiyasi deymizmi, hech bir dunyo adabiyotining o'lchamlariga, sinovlariga dosh berolmaydigan joyi yo'q. Erkin A'zamning nasri, Nazar Eshonqulning nasri, qaysidir darajada Xurshid Do'stmuhammadning nasri, Isajon Sulton, Muhammad Sharif, Ulug'bek Hamdamlarning bitiklari qayerda chiqarsa, qayerda tarjima qilinsa, agar tarjima qilishning uddasidan chiqa olsa, hech bir xijolat chekmaydigan, hech bir adabiyotdan kam bo'lmaydigan. Nimaga shunday? Nimagaki, Yevropaning alohida bir tarozisi yo'q-ku, u yoqqa borsa boshqacha yozib qolmaydi-ku odam. Iste'dodlar hamma joydayam bor. Oldinlari shu iste'dodning hamma qirrasini ko'rsatishning imkoni yo'q edi. Hozir esa mana, Abdulla Oripovdek daholar

bugungi kunda oramizda hozir yo‘q bo‘lsa ham, sekin-sekin yozish erki bor bo‘lganligi uchun bizning adabiyotimiz har qanday andozalarga, har qanday talablarga javob beradigan adabiyot bo‘ldi. Men endi qaysi birini aytay. Shoiralarimizdan O‘ktamoy degan shoira bor. Uning Hindistonda 3 marta, Turkiyada 1 marta, Qozog‘istonda bir necha marta alohida o‘sha tillarda kitobi chiqqan. Nimasi bilandir qiziqdirki, ularga kerakdirki, ular kitob qilib chiqaryaptida. G‘alati yondashuv, ba‘zan bizdagilar shikoyat ham qilib qolishadi, o‘zlari chiqib, yo‘l topib tarjima qilyabdi. Ha endi yo‘l topadi-da, nima qilsin endi? Nima qilish kerak? Uning o‘rnatib qo‘yilgan navbati, tartibi bo‘lmasa! Navbatga turinglar, seniki 500 betlik, seniki 350 betlik kitobi chiqariladi chet tilida deb. Chet tili kimga xaridor bo‘lsa, tovaringni olib chiq, unga olarman top. Sen sotarman bo‘l. Hozir endi ochiq ko‘z bilan qarash kerak adabiyotga. Kitob ilgari faqat ma‘naviy qadriyat edi, Tovar emasdek edi. Hozir kitob tovarga aylandi. Mening bolaligim, mening yigitligim, mening talabaligim, mening er-yigit vaqtida u yoki bu asarni mening qatorimdagi odamning o‘qimasligi ayb edi. Yoki ular o‘qigan narsadan mening bebahra qolib ketishim ayb edi. Hozir bu fazilat qayda? Chunki shunday bir muhit shakllandi. Biz internet chiqdi, telefon chiqdi deymiz. Telefon faqat o‘zbeklarga kelgani yo‘q. Internet hali Xudo biladi yarim o‘zbekda yo‘q. Yarimmas, 30% bormi-yo‘qmi Alloh biladi. Lekin dunyo o‘qiyapti. Dunyo gazeta-jurnal ham o‘qiyabti. Biz u, ko‘zimizni ochganimiz bilanoq telefon o‘qiyabmiz, shuning uchun biz u bilan o‘zimizni oqlamasligimiz kerak. Demoqchimanki, endi o‘zbekning o‘zining gazi o‘ziga yetib ortadi.

SAVOL: *Bugungi kunda adabiyotning bosh qahramoni kim bo‘lishi kerak?*

JAVOB: Adabiyotning bosh qahramoni yozuvchining tutumlari bilan, o‘zining hatti-harakatlari bilan, fe‘li bilan yozuvchini muvozanatdan chiqargan har qanday odam bo‘lishi mumkin. Zamonamiz qahramoni degan gaplar qolib ketdi. Lermontovning “Zamonamiz qahramoni” degan qissasi bor. Shu yerda Pechorin degan nihoyatda yetuk shaxs, uning faqat ma‘naviyati yo‘q. Aqlda hammadan o‘tkir, kuchda hammadan kuchli, topqirlikda hammadan topqir, urushda

hammadan zo‘r, omadda hammadan omadli, lekin shuncha narsasi bor-u baxti yo‘q. Istagan odamini istagan vaqtda oyoqosti qila oladi. Qudratli, yana boy odam. Duelga chiqqanda raqibi uni haqorat qiladi, buni o‘zi taklif qiladi. Otadi, xato ketadi, ot endi deydi, Pechorin otmaydi. U mardligidan emas, hozir u ot deydi va hayotning qadriga yetmaydi, o‘lsa o‘lib ketaveradi. Pechorin shuni istamaydi. Qiynalib o‘lsin deydi va u bir vaqt keladi, kimnidir sevadi, yaxshi ko‘ra boshlaydi. Hayot boshlandi endi. Endi, hayotdan ketgisi kelmagan vaqtda qani tur, o‘qni uzishga keldim deydi. Mana mening zamonamning qahramoni demoqchi. Aslida buning tagida kinoya bor, armon bor. Shular zamonning egalari bo‘lib qoldi. Zamonamiz qahramoni degan tushuncha sovet adabiyotida bo‘lgan edi va uni bizning o‘zbeklar boshqacha tushunib olgan edi. Shuning uchun bizning zamonamiz qahramoni har qanday odamni muvozanatdan chiqaradigan, odamning ko‘ngliga ta’sir qiladigan, odamning ruhiga, uning tafakkuriga ta’sir ko‘rsatadigan darajada tasvirlangan har qanday obraz zamonamiz qahramonidir. Xossatan, Nazar Eshonqulning “Farishta” hikoyasidagi qahramon ana shunday chala odam. Bo‘yiyam, aqliyam, jismiyam, kuchiyam o‘smagan odam. Bolaligi va eng muhimi, ruhiyat bolalikdagi tozalik bo‘yicha qolib ketgan. Unda manfaat yo‘q, g‘irrom yo‘q, unda bir narsaga erishsam, degan intilish yo‘q. U farishta! U boladay o‘ylaydi, yoshi 60 dan oshdi, boladay o‘ylaydi, bola bilan o‘ynaydi. Nevarali odam nevarasi bilan o‘ynaydi. Va yangicha tarbiyalangan, supermen bo‘lishga intilgan nabiraning qo‘lida o‘ldiriladi va asl o‘zbek, toza ma’naviyat o‘ldiriladi. Kechagi ma’naviyat o‘ldirildi. “Bugungi qallob ma’naviyat - men” degan menchilik ma’naviyati g‘olib keldi. Mana, zamonamiz qahramoni. Uyam o‘z zamoni qahramoni. Biz bugun o‘ylaymizki, qurilishda qahramonlik ko‘rsatgan, kranda ishlayotgan, yoki seldan kimnidir qutqarib olgan, ha qahramon ular va bundan ikkinchi savol kelib chiqadi-da, zamonamiz qahramoni bo‘lsa, nimaga qahramon kerak zamonamizga? Chunki zamonamizning qolgan qahramon bo‘lmagan qismi qahramonga ergashishi kerak go‘yo. Odamlarga bunday deb qaramaslik kerak. Adabiyotdagi bunday yondashuv mening nazarimda judayam noto‘g‘ri narsa. Har bir odamning qismatini Yaratgan almisoqdayoq belgilab qo‘ygan. Hali siz

tugʻilishingizdan million yil oldin sizning taqdiringiz belgilab qoʻyilgan. Topshiriq berilgan. Anvar Qozoqboy Yoʻdoshev bilan suhbatlashadi. Siz suhbatlashmayman deb Qoraqalpoqqa ketib qolganingizda ham, meni Yaratgan Egam Qoraqalpoqqa eltib qoʻyar edi (taqdir) va ikkalamiz suhbatlashgan boʻlar edik. Adabiyot odamni shunday koʻrsatib beradiki, shu odamni koʻrib birov fikr qiladi, birov shukr qiladi. Birov fikr qiladi: shunday boʻlsam ekan deb, yomonini koʻrib turib birov fikr qiladi: shunday boʻlmayin iloyim, shunday boʻlmaganimga shukr deb. Adabiyotning missiyasi oʻsha. Men ishonmayman, masalan, Navoiy Farhod obrazini Badiuzzamon otasiga qarshi kurashmasin deb yozganiga. Navoiy shunchalar sodda oʻylaydigan odam emas. Badiuzzamon ham bitta asarga qarab hayotini quradigan odam emas. Umrining oxirigacha otasiga qarshi kurashib oʻtdi-ku! Muzaffar Mirzo ham “Farhod va Shirin”ni oʻqigandir, ikkalasi bitta taxtga sheriklik bilan bir kun unisi, bir kun bunisi kuydirib yurdi-ku. Axir unday qilmasdan: “Aka, siz kattasiz”, deb u aytmadi. “Uka, otam seni moʻljallagan edi, ol, men “Farhod va Shirin”ni oʻqidim, boboning gapidan uyalaman endi”, – demadi-ku. Bunday qaramaslik kerak adabiyotga. Adabiyot unaqa yugurdak ishlarni qilmaydi. Adabiyot - katta narsa, katta hodisa. Navoiyni mana bugun oʻqimasdan turib gapirib yuribmiz. Navoiyni oʻqish kerak, oʻqigan vaqtda taʼsirlanib, oʻqigan vaqtda katarsis – tozalanish degan narsa oʻsha vaqtda boʻladi. Oʻqiysiz, hech kim yoʻq, yigʻlaysiz. Men uncha qoʻshilmayman kitob oʻqigan odamning qoʻlidan yomonlik kelmaydi deb. Bekor gap. Kitob oʻqigan emas, kitob yozgan odamning ham qoʻlidan juda katta yomonliklar keladi kerak boʻlsa. Lekin bunday odam oʻylay boshlaydi. Kitob oʻqigan, yozgan odam oʻylay boshlaydi. Birovni tushunadi. Menga ogʻriqli, ungayam ogʻriqli boʻlsa kerak, deb oʻylay boshlaydi. Ana shu narsa uni tozartiradi. Shu narsa uni bir qator yomonliklardan tiyadi. Yoʻq, u kitobda oʻqib boʻldi, yopdi – u boshqa odamga aylanib qolmaydi. Navoiydan keyin bitta ham yomon odam boʻlmasligi kerak edi. Holbuki, Navoiyni oʻzigayam qancha yomonliklar boʻldi. Shuning uchun bu hammasi bizning sovet davridagi sovetcha qarashlarning oqavalari.

SAVOL: *Domla, adabiyotimiz tarixiga nazar solar ekanmiz, ayol ijodkorlar juda siyrak. Bugungi kun nasrida adibalar haqida ham shunday desak yanglishmaymiz. Nazmda bo'lsa, 15-16 yashar qizlarning ikkita-uchtadan kitoblari chiqqan. Bu holga qanday munosabat bildirgan bo'lardingiz, umuman olganda o'zbek adabiyotidagi ayol qizlar ijodi xususida nimalar deyolasiz?*

JAVOB: Abayning bir gapi bor: “Iymon ham parvarishga muhtoj”, – deydi. Masalan, biz iymon keltiramiz: “Laa ilaha illalloh, Muhammadun Rasululloh”, – bo'ldi, men musulmonman deb yuraveramiz deydi. Iymonningni parvarishlamasang, iymoningdan ayrilib qolishing ham hech gap emas. Xuddi shunday, iste'dod ham parvarishga muhtoj narsa. Sababi shundaki, o'zbek ayoli iste'dodini parvarishlash imkoniyati kamroq, erkaklarga nisbatan. Kechagacha faqat Nodiraga, Uvaysiyga o'xshagan sal balandroq qatlamdan chiqqan odamlarga mumkin bo'lgan ish edi. Hatto bugungi kundayam ayniqsa, qiz bola ayol bo'lganidan keyin iste'dodini namoyon qilishdan ko'ra o'zining ayollik missiyasini, ahlini ko'paytirishday, erning, qaynonaning xizmatini qilishday narsalar bilan ketadi. Men Oydinnisoning kitobiga taqriz yozganimda Abdulla Oripov aytgandi: “Taqrizni o'qidim. Juda yaxshi yozibsiz, Oydinniso juda yaxshi shoira ekan. Lekin oxiridan suyuntirsinda, bu qiz turmushga chiqib ketib, ijod esidan chiqib ketmasaydi”. U kishi ko'p ko'rgan-da, qancha talantlarni ko'rgan. Ayol kishi XXI asrdam ayol. U o'zining mutaxassis sifatidagi yoki Xudo bergan iste'dodini yuzaga chiqarishdan ko'ra oiladagi vazifalarini bajarishi birlamchi bo'lib turibdi va boyagi Oydinniso yaxshiyam keyinchalik ham uyaltirmadi. Juda katta shoira bo'lib shakllandi. U gapga uncha ko'p bo'lgani yo'q, 10 yil bo'lgandir yo salgina oshgandir. Ha albatta, erkak shoirlarga nisbatan, ayniqsa, erkak nosirlarga nisbatan, ayol nosirlar kamroq. Buning ijtimoiy sabablaridan tashqari psixologik sabablariyam bor. Ayol bizga nisbatan judayam ko'p barobar tuyg'usi nozik, egiluvchan. Tuyg'ularga shunaqa jins va shuning uchun ham uning hayotida lahzalik tuyg'ular muhim rol o'ynaydi, yetakchilik qiladi. U umumlashtirib hodisalardan qonuniyat chiqarishdan ko'ra har bitta hayotiy hamda ruhiy holatga shu joyning o'zida munosabat bildirishga moyil bo'ladi ruhan. Shuning uchun ham

keyinchalik xato qilib, afsuslanib, ko‘p qiynalib yuradi o‘zlari. Shuning uchun she’riyat tuyg‘ular va uning ifodasidir. Demak, u go‘zallikdan ta’sirlansa ham tez ta’sirlanadi. U shuning uchun she’rga moyil. Yomonlikdan ta’sirlansa ham kuchli va tez ta’sirlanadi. Suning uchun u yana she’rga moyil. Lekin ayni vaqtda o‘zbek adabiyotidan nihoyatda yaxshi nosir ayollar ham chiqyapti. Juda baquvvat nosir ayollar ham chiqyapti. Jumladan, Risolat Haydarova degan, Salomat Vafo degan romanchi ayollarimiz bor. Zulfiya Qurolboy qizi ham roman, ham hikoyalar borasida juda ildam ketayotgan yozuvchilardan. Endi shoirlarimizning sanog‘i yo‘q, o‘zingiz bilasiz. Halima opadan boshlab Farida Afro‘z-u boshqa-boshqa, eh-hey. Halima Xudoyberdiyevaning bir go‘zal she’ri bor. O‘sha yerda tushuntirib qo‘yibdi, sizning savolingizga javob o‘shanda:

Sen so‘rama, men ham aytmayin
 Kuragimning singanini qars.
 Shovqin solma, men uyg‘otmayin,
 Yuragimda yotar bir yo‘lbars.
 Baland bir o‘t yongan ichimni
 Men sovutib yashashim kerak.
 O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,
 Men ovutib yashashim kerak.
 Ayol o‘tib borar... sho‘x yurib,
 Shamollarda soch yoygan ayol.
 Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib,
 Sirtidan mayin jilmaygan ayol.
 Sen so‘rama, men ham aytmayin...

Mana siz so‘radingiz, men baribir aytdim. Ana shu yerdagi, o‘rtadagi bandga e’tibor qiling:

Baland bir o‘t yongan ichimni
 Men sovutib yashashim kerak.
 O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,

Men ovutib yashashim kerak.

Ya'ni, shoir erkak bo'lsa yuragidagi alangalanib turgan o'tni yanayam kattaroq alangalatishga harakat qiladi va hech tortinmasdan yoza oladi. Masalan, 70 yoshida ham, 60, 50 da ham sevgi haqida aytadi: "Qo'ynimda bir yor, ko'nglimda bir yor", deb. Ana endi o'zbekning qizi Halima yozolmaydi: "Qo'ynimda bir yor, ko'nglimda bir yor", deb. O'sha baland o't yonib yotipti ichida, lekin uni chiqarolmaydi. O'z-o'ziga kuch sarflaydi.



Shularning orasida Salomat Vafo ifodada pardalamay, soxta uyatchanlikka berilmay juda ko'p sahnalarni ochiq yozadi. Uyatsizlik uchun qilmaydi bu ishni, balki shu yerda adabiy manfaatga xizmat qilsin, badiiy bir aniqlikni yuzaga keltirsin, ta'sirchanlikni yuzaga keltirsin, degan o'yda qiladi. Biz endi haligacha

o'rganmaganimiz uchun: voy ayol kishi-ya, shuni yozishga uyalmadi, unaqa-bunaqa deb donolik qilamiz o'zimizcha. Holbuki, hayotda bor u narsa. Lekin endi hayotda bor narsaning hammasini yozayotgani yog'u. Shu o'rinda kerak bo'lganligi uchun yozyapti. Shu o'rinda shundan boshqa narsa tasvirning mohiyatini yuzaga keltirmaydi. Xullas, o'zbek nasridayam, yoshlarning orasidayam yo'q emas. Masalan, Muyassar Tulovova degan bir qiz bor, Bibi Robiya degan nosir qizimiz bor. Nodirabegim degan qiz bor. Risolat Haydarova yaqinda "Karantin" degan asar yozdi. Hozirgi holat, tojli o'lat haqida. Bibi Robiyaning yozganlari, Muyassarning yozganlari, ayniqsa, Zulfiyaning bitiklari juda katta talantlarning ko'rinishi. Lekin baribir nasrda umuman o'g'il bolalar ham juda unaqa sermahsul emas, katta avlod emas. Masalan, Sobir O'nar, Abduqayum

Yo‘ldosh, Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton, Muhammad Sharif, Ulug‘bek Hamdam butun bosh bir avlod. Bular nuqul avlodimiz yo‘q, deb dod solsayam aslida bular butun boshli bir avlod. Yana hozir esimga kelmaganlari bordir qancha. Nazar Eshonqul aytgancha. Ismoil Shomurod degan go‘zal romanchi bor. Buni bir alohida tadqiq qilish kerak va mana shunday nosirlar bugun bor deb aytolmaymiz. Demak, bir tomondan ehtimol nosirlarning shunday iste‘dod bilan tug‘ilmaganligi sababidandir. Ikkinchi tomon shoshqin hayotning, ulgurib qolish kerak bo‘lgan hayotning uzuq-yuluq parchalarini boya aytganimdek, o‘tkinchi holatlarni mangulikka muhrlashga intilish bu she‘riyatning ichida. Hayot hodisalaridan qonuniyat qidirish bu nasrning vazifasi. Nega shunday bo‘ldi, nimaga shu kunga tushib qoldi, nimaga bunchalar yuksalib ketdi, sababini izlash kerak, topish kerak-da. Shunday o‘zi nosir yigitlarimiz ko‘p emas. Men hatto o‘ylab qo‘rqib qolyabman hozir, nosir yigitlarimiz nosir qizlarimizdan kamroqmikin, deb.

SAVOL: *Har doim qo‘ldan qo‘ymay o‘qiydigan kitobingiz qaysi? Shu kitobning bunday e‘zozga ega bo‘lish sababi nimada?*

JAVOB: Har doim qo‘ldan qo‘ymay o‘qiydigan kitobim yo‘q hozir. Bir zamon o‘qishga kitob topa olmasdim, hozir endi o‘qishga vaqt topa olmayapman. Uni endi qayta-qayta o‘qishga ilojim yo‘q. Lekin eng ko‘p o‘qigan kitobim “Alpomish” dostoni va Navoiyni qayta-qayta cho‘qilab turaman. Uni o‘qib turishga intellektual, estetik kuchim yetmasa kerak. Charchab qolgunimcha bir narsalar kerak bo‘lganda Navoiyni, Shukur Xolmirzayevning asarlarini, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanini har zamonda varaqlab turishni yaxshi ko‘raman. Eng ko‘p o‘qiganim “Alpomish”, undan keyin Navoiy.

SAVOL: *Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani nimasi bilan o‘ziga tortadi?*

JAVOB: Bu asar voqelikka tamomila boshqacha ko‘z bilan qaragani va judayam go‘zal bir hayotiy ishoralar qilgani, keyin tarixiy shaxslarga xuddi bir portretga qaraganday, sanamga qaraganday sig‘inib emas, balki ular ham bir oddiy odam deb, Beruniy ham kimnidir yaxshi ko‘rgan, kim bilandir birga bo‘lgan deb,

Ibn Sinoni ham kimlardandir qo‘rqan, qayerdadir adashgan, qayerdadir bahslashgan, qayerdadir hatto quvilgan deb qaragan. Ibn Sino o‘z oyog‘i bilan yurib keldi, men Ibn Sinoman dedi. Na unga muhtoj bo‘lgan podsho tan oldi. Sen muttahamsan, yo‘qol dedi. Yaxshi o‘ldirib qo‘ymadi. Bu endi hammasi Odil Yoqubovning to‘qimalari. U oddiy yo‘ldan bormadi. Ibn Sino mana bunday qilib tuzatdi, deb romanlar yozilib yotibdi. Bu yo‘ldan bormadi u. U Ibn Sinoyam bir odam, qayerdadir mulzam bo‘lishi mumkin bo‘lgan, qayerdadir qo‘rqishi mumkin bo‘lgan odam. Beruniyni ham xuddi shunday odam deb ko‘rsatdi. Holbuki, bu kitoblar yozilgan vaqtdan o‘tmishdagi buyuklar yo faqat oppoq rang bilan yondashish, yo faqat qora bo‘yoqlar bilan bo‘yash o‘rganilgan edi. Mana, Navoiy asarlarini o‘qing, biron joyida xato qilmaydi. Navoiy biron joyida o‘zini o‘ylamaydi. Boshdan oxirigacha yo kutubxonani, yo odamlarni, yo Arslonqulni, yo Sultonmurodni, ishqilib, yo qayerda nima qursam ekan, yo odamlarni, kasallarni, shoirlarni, podshohlarni o‘ylaydi. Lekin o‘zinimas. Uyam odam bo‘lgan-ku axir. Uyam shamollagandir, sovuq qotgandir, isib ketgandir, qorni og‘rib qolgandir. Ya’ni, buyuklarga devordan tushmaydigan portret deb qaramagan-da Odil Yoqubov, shunisi bilan o‘ziga tortadi.

SAVOL: *Sizning nazaringizda o‘zbek adabiyotidan har bir o‘zbek kitobxonini o‘qishi kerak deb hisoblaydigan asarlar o‘ntaligini sanab bersangiz?*

JAVOB: Men buni alohida tuzganim yo‘g‘u, birinchi navbatda o‘nlikmas, o‘zi bir yuzlik bo‘lsa ham kamlik qiladi. O‘qimasa bo‘lmaydigan asarlar Xudoga shukrki, bizda ko‘p. Qodiriyning, Cho‘lponning asarlarini o‘qish kerak. Fitratning, G‘afur G‘ulomning, Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, “Bolalik” asarlarini o‘qish kerak. Abdulla Qahhor hikoyalarini, “Sarob”ini o‘qish kerak. O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinasi” romanlarini, hikoyalarini o‘qish kerak. Sh.Xolmirzayev hikoyalarini o‘qish kerak. E.Vohidovni o‘qimasangiz:

Qulluq qil demasman, yurt tuprog‘ini o‘p,

Yurtga qullar emas, fidolar kerak.

Uning sen-u mendek shoirlari ko‘p,



Buyuk elga endi daholar kerak – degan E.Vohidovni o'qimaslik mumkin emas. O'zbek bo'lish uchun albatta A.Oripovni, Rauf Parfini, Shavkat Rahmonni o'qimasa biror yeri yeyiladi, kamayadi. Halima Xudoyberdiyevani o'qimasa ayolni, o'zini tushunmay o'tib ketadi. Ayolning:

Ortga qaytmam cheksam ham

Shuncha jabr-u jafoni.

O'zgaga ham bermayman

Sizday bir bevafoni.

Bunaqa she'riyat dunyoning boshqa biror joyida bormikin. O'zim qaytmayman, lekin birovga ham bermayman. Bunaqa tuyg'uni aytish uchun qanchalar dohiyona iste'dod kerak. Shularni albatta o'qish shart deb hisoblayman!

SAVOL: *Domla, suhbatga vaqt ajratganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman, sizga katta rahmat. Sog'-salomat bo'ling!*

JAVOB: Omon bo'ling!

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

5 (26)
2025-yil, may.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 6,125 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22